M.N.Skatkin, asosan uch ko‘rinishdagi bog‘lanishni tavsiya etadi, ya’ni: 1) oldindan bog‘lanish; 2) keyindan bog‘lanish; 3) davomli bog‘lanishlarga ajratadi va har bir bog‘lanishlarni o‘ziga xos tavsifnomasini keltiradi. Lekin, N.V.Verzilin, P.G.Kulagin, Y.Keytkeviguslar qarayotgan tushunchaning o‘quvchilar bilish faoliyati bilan aloqadorliginini e’tiborga olgan holda, bog‘lanishni ikki kategoriyaga, ya’ni: sinxronli bog‘lanish; asinxronli bog‘lanishlarga ajratadi. K.P.Korolev bog‘lanishlarni asosan quyidagi tartibda belgilaydi: 1) tushuncha va faktlar orasidagi bog‘lanish; 2) tekshirish metodlari va ilmiy tafakkur orasidagi bog‘lanish; 3) umumiy ko‘nikma va malakalarini shakllanishidagi bog‘lanish; 4) o‘qitishning bilish usullari orasidagi bog‘lanishlarga ajratadi [35; 23]. Shuningdek, fanlararo aloqadorlikda ichki va tashqi aloqadorlik, uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik hamda integrativ aloqadorlik tushunchalaridan ham foydalanildi. Ma’lumki, predmetlararo aloqadorlik o‘rganilayotgan obyektni har tomonlama chuqur o‘rganishni ta’minlaydi. U pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik hamda integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi.

Bola faqat o‘quvchilik yillarida narsa va hodisalarning mohiyati haqida tushunchaga ega bo‘lib, ularga nisbatan o‘z fikr-mulohazalarini to‘liq, erkin bayon eta oladi. V.G.Belinskiy gumanitar fanlar (ona tili, adabiyot, tarix)ni maktabda o‘qitiladigan fanlar orasida eng muhimi: kishilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga, ularni «odam qilishga» yordam beradigan fanlardir, deb hisoblar edi [24; 275]. Shu xususda «Kasbiy pedagogika» fani «Adabiyot» fanlarida turli xil janrdagi asarlarni

hikoya o‘qish, ertak o‘qish, masalni o‘qish she’r va uni o‘qish uslubiyoti, ilmiy-ommabop maqollar hamda hadislar, hikmatlar, tez aytish va topishmoqlarni o‘rganish asosida kasbga yo‘naltirish ishlari olib borildi. Mazkur metodikalarda kasb mazmundagi materiallar tanlab olindi.

Shuningdek, tadqiqotlarda oldindan, keyindan va davomli bog‘lanishlar, ichki va tashqi, sinxron, asinxron, integrativ, uzviy bog‘lanishlar, tushuncha va faktlar orasidagi, tekshirish metodlari va ilmiy tafakkur orasidagi, amaliy ko‘nikma va malakalar shakllanishidagi, o‘qitishning bilish metodlari orasidagi bog‘lanishlar o‘rganilgan, lekin ekologik tarbiya berish asosida fanlararo bog‘lanishlarga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligini ko‘rsatadi.

Uzviylik – o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammalashib borishida ko‘zda tutiladi.

Predmetlararo aloqadorlik – o‘zini mohiyatiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, o‘rganilayotgan obyektning turli jihatlari, xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

O‘zaro aloqadorlik – mohiyatiga ko‘ra o‘quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi.

Integrativ aloqadorlik – esa nisbatan yuqori darajadagi aloqadorlik hisoblanadi [39; 7].

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan “Madaniyatshunoslik”, “Huquqshunoslik”, “Ma’naviyat asoslari”, “Falsafa”, “Sotsiologiya”, “Pedagogika.Psixologiya”, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Siyosatshunoslik” kabi fanlarga ham katta ahamiyat berarilishi kasb to‘g‘risida talabalarga juda ko‘p foydali ma’lumot berishi jihatidangina g‘oyat muhimdir. Shuningdek, umumkasbiy fanlar hamda ixtisoslik fanlari bilan bog‘lanish mazkur fanni chuqur o‘rganishda muhim hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, har bir o‘quv fanining «Kasbiy pedagogika» fani bilan aloqadorligi 1-rasmda shakllantirildi:



1-rasm. “Kasbiy pedagogika” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

2.6. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. “Kasbiy pedagogika” fanining asosiy maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot bering?

2. Uslub va uslubiyot tushunchalariga izoh bering.

3. O‘zbekiston Respublikasida qanday umumiy va kasbiy ta’lim tizimi islohatlari olib borilmoqda?

4. Ta’lim jaryonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati qanday?

5. «Kasbiy pedagogika» fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yuzasidan “Klaster“texnologiyasini ishlab chiqing

6. “Kasbiy pedagogika”ning rivojlanish bosqichlarini sanab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi	**O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining vazifalari**	**O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish**

2-jadval

Akademik litseylarga o‘quvchilar qabul qilish va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni	**Kasb-hunar kollejlariga o‘quvchilar qabul qilish va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni**

O‘qitish sifati va darajasining davlat ta’lim standartiga muvofiqligini ta’minlash uchun qanday nazorat tartibotlari o‘tkaziladi va jadvalni to‘ldiring:

3-jadval

Nazorat turlari	**Nazorat tartibotlar**

2. “Blits-so‘rov” texnologiyasini bajaring:

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
					Kasbiy tarbiya	muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim
					Kasbiy ta’lim	inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni
					Kasbiy tayyorgarlik	ta’lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta’limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi
					Kasbiy mahorat	ta’lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon
					Kasbiy motivatsiya	avlodlarning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish va ularni boshqaruv amaliyotida qo‘llashni ta’minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo‘lib, rahbarning o‘z faoliyati davomida fan-texnika yangiligiga, ilg‘or tajribalarga tayanish hamda mazkur tajribalar asosida o‘zining ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borishi bilan bir qatorda jamoa faoliyatini boshqarish tajribasi
					Kasbiy tajriba	kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta’sirida shakllanuvchi mayl
					Kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash	muayyan kasb-hunarni egallashga ixtisoslashtirilgan o‘rta maxsus ta’lim muassasasi; 2) o‘quvchilaning kasb-hunar moyilligini, layoqatlarini, bilim va

						ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb tanlash imkonini beradigan ta’lim muassasasi
					Kasb-hunar kolleji	kasb-hunar kollejlari o‘quv tarbiya jarayoniga ixtisoslashgan pedagogika fanining alohida tarmog‘i
					Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi	shaxs fikrining tanlangan, o‘zlashtirilgan yoki bajarilgan mehnat faoliyatida ifodalanishi
					Kasb-hunarga yo‘naltirish	pedagogika fanining oliy o‘quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiquvchi alohida tarmog‘i
					Androgogika	pedagogikaning oliy o‘quv yurti shart-sharoitlarida talabalarga ta’lim-tarbiya berishning nazariy asoslari va metodikasini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i
					Oliy maktab pedagogikasi	o‘quvchilarga muayyan kasb-xunar haqida ma’lumot berish orqali ularni shu kasbga qiziqtirish, yo‘llash jarayoni

3-BOB. KASBIY PEDAGOGIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

3.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Kasb, ta’lim, metod, metodologiya, kasb ta’limi, nazariya, amaliyot.

3.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Milliy g‘oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, halq pedagogikasi tajribasiga tayanish.VIII-XIII asrlarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining fundamental asoslari. Ular barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va halq xunarmandchilik ustalari tajribasi va rivojlanishini aks etadi. O‘rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta’lim haqida. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta’lim. Turkistonda VIII-XIII asrlarda jamiyat ta’lim asos bo‘lgan barcha yangi g‘oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo‘shqin bo‘lgan davrda kasbiy ta’lim tajribasi. Kasbiy ta’lim tizimida milliy islohotlar yo’nalishlarining mohiyati: ta’limning O‘zbekiston halqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an’analar va odatlar bilan uzviy bog‘liqligi, ta’limni milliy rivojlanish, boshqa halqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg‘otishning muhim vositasi sifatida tan olinishi.

3.3. VIII-XIII asrlarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining fundamental asoslari.

Milliy g‘oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun halq pedagogikasi tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir.VIII-XIII asrlarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining fundamental asoslarini bilish maqsadida barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va halq xunarmandchilik ustalari

tajribasi va rivojlanishini tahlil etishni taqozo qiladi. Quyidagi 1-5-jadvallarda tarixiy manbalar va mutafakkirlarni kasb, hunarga oid tushunchalari keltirilgan.

1-jadval

Tarixiy manbalarga kasb, hunarga oid tushunchalar

Tarixiy manbalar	Kasb, hunarga oid tushunchalar
Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz: 1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘rgazmali ashyolar. 2. Xalq og‘zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar. 3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.	Dastlabki urug‘chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug‘ning áarcha a’zolari jamoa bo‘lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a’zolarining yosh jihatlariga ko‘ra quyidagi uch guruh asosida tashkil etganlar: a) bolalar va o‘smirlar; v) ijtimoiy hayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar; s) keksalar.
	Ibtidoiy jamiyatda bola o‘zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan. Bu holat og‘ir sharoitda kechgan. o‘g‘il bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o‘zlashtirar edilar. Hech qayerda yozilmagan odat va an’analarga ko‘ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma’lum tajribalarga ega bo‘lardilar. Bola ma’lum tayyorgarliklardan so‘ng maxsus sinovlardan o‘tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo‘lga kiritar edi. Ushbu an’ana, ya’ni, bolalarni ma’lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham ko‘zga tashlanadi Urug‘chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnatining ko‘lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko‘payib boradi
	Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o‘rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang‘ich ko‘rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san’at sirlarini o‘rgatish ancha murakkab ish bo‘lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo‘lishni taqozo etar edi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar
	Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga dalalarni o‘lchash, suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi
Avesto	Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qayerda ekanini so‘raganda, u shunday javob beradi: u shunday joyki, kishilar u yerda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona)lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib, bola-chaqali bo‘ladilar; men har ikkala qo‘li

	bilan mehnat qiluvchi kishini qo‘llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag‘ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi deb ko‘rsatiladi
	Biroq baxt-saodatga erishish uchun mehnat qilish lozim. Shu bois, baxtga erishishning yagona va ishonchli yo‘li mehnat qilish ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi: “Chorvadorlar to‘q bo‘lsin uchun chorvani muttasil parvarish qilmoq lozim”
Islom dini	Islomiy g‘oyalar odamlarni yaxshilikka da’vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ‘ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik, mehnat qilish hamda yer yuzini obod va go‘zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ‘ib etadi

2-jadval

Mutafakirlarning kasb, hunarga oid fikr-mulohazalari

Mutafakkirlar	Kasb, hunarga oid tushunchalar
Yassaviya tariqati “Hikmat” asari	Bu asarda Yassaviya ta’limotidagi poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, o‘z qo‘l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo‘lida nisonni ham btinan, ham zohiran har mtomonlama takomillashtirish kabi umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.
Bahouddin Naqshband	“Dil ba yoru, dast ba kor” (Dil yorda, qo‘l ish (mehnat)da) shiori fikrimizning yorqin isbotidir. Shuning uchun ham Naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar mehnat qilish evaziga hayot kechirar edilar. Tunu kun toat-ibodat bilan shug‘ullanib, oila, jamiyat yumushlarini tark etish emas, balki oilani farovon, mamlakatni obod etish yo‘lida mehnat qilish talab etilar edi.
Abu Nasr Forobiy	Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir
	Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy

	bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir.
Abu Rayhon Beruniy	Eng muhimi, mutafakkir, inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, hayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og‘ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag‘batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g‘amho‘r bo‘lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki, ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta’kidlaydi.
	Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o‘rgatish kerak deydi. Mehnat tarbiyasida o‘sha davr tarbiya an’anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi.
	Hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika Fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.
Abu ali ibn Sino	Oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o‘rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta’sirini ta’kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug‘laydi va qimorboz, sudho‘r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta’sir etishini to‘g‘ri talqin etadi.
Yusuf Xos Hojib	Insonga bilim nechog‘lik zarur bo‘lsa, kasb-hunar egallash ham shunchalik muhimligini asarida alohida ta’kidlaydi. Shunga ko‘ra u asarda turli toifadagi kishilar borasida fikr yuritar ekan, hunarmandlar haqida ham iliq fikrlar bayon etadi[; 111].
	Jamiyat taraqqiyoti va xalq farovanligida muhim o‘ringa ega bo‘lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi [; 112].
	Jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shgan har bir kasb, hunar egasini ulug‘laydi va ularni qadrlash zarurligini ta’kidlaydi [; 112].

Kaykovus	... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to‘rt bobda bayon etdim
	Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim-tarbiya berish nazarda tutilgan: 1. Kaykovus bilim olish haqida. 2. Hunar va turli kasb egalari haqida. 3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida. 4. Jismoniy yetuklik haqida.
	Kaykovus ilmni uchga bo‘ladi: biror kasb-hunarga bog‘liq bo‘lgan ilm; ilm bilan bog‘liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat. Birinchisiga, ya’ni biror kasb bilan bog‘liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, yer o‘lchash, shoirlik va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar bo‘lib, har qanday usta bo‘lsa ham bu boradagi ilmni bilmasa, hech ish qila olmasligi ta’kidlanadi.
	uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o‘ta muhimligi bilan diqqatga sazovor
	dehqonchilik ilmini egallash, mazkur ishda yerni tarbiya qilish, tezkor va g‘ayratli bo‘lishni ta’kidlaydi. Boshqa hunarlarni egallashda ham rostgo‘y bo‘lish, xiyonat qilmaslik, muhtojlarga yordam qilish kabi xislatlarga ega bo‘lishga undaydi. Ayniqsa, uning bozor bilan bog‘liq kasb-hunar kishilariga bergan o‘gitlari qiziqarli. Masalan, u: “Bozor xalqi bila bozori bo‘lg‘il. Tosh va tarozini rost qilg‘il. O‘z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo‘lmag‘il. Sheriklaringga xiyonat qilmag‘il, har peshakim qilsang, unga hiyla qilmag‘il va hamisha hamma ishingni birdek qilg‘il. Agar moldor bo‘lsang, muhtojga qarz bermoqni g‘animat bilg‘il”, — deb to‘g‘ri ta’kidlaydi. Bu pandlar ham hukmdorga, ham oddiy fuqaroga bab-baravar zarur bo‘lib hisoblanadi. Bu bilan Kaykovus yoshlarda mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuyg‘usini tarbiyalaydi, jismoniy mehnat bilan ham aqliy mehnat kabi shug‘ullanish lozimligini bayon etadi.
Muslihiddin Sa’diy	Ulug‘ murabbiy bilim olish bilan birga hunarning ham inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. Chunki “...hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, deydi u, - agar hunarmand molidan mahrum bo‘lsa, qayg‘usi yo‘qdir, chunki hunarning o‘zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to‘ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi”

3.4. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim.

Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim ksb, hunar haqidagi fikr-mulohazalarga asoslandi. Turkistonda VIII-XIII asrlarda jamiyat ta'lim asos bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqin bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribalari mutafakkirlarning fikr-mulohazalari asosida rivojlandi. Quyidagi 3-jadvalda berilgan:

3-jadval

Mutafakkirlarning kasb, hunarga oid tushunchalari

Mutafakkirlar	Kasb, hunarga oid tushunchalar
Amir Temur	"Belda kamar va tilda sano", ya'ni ish va so'z bir bo'lsin deyishni xush ko'rardi
Abdurahmon Jomiy	Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o'tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ilmu hunar sirlarini o'rganishga, bu yo'lda sabrli, matonatli bo'lishga undaydi. Shuningdek, hunar o'rganishi har bir kishi uchun u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, deb ta'kidlaydi[47;195].
Alisher Navoiy	Bolalarga yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga – muallimga berish lozimligini ta'kidlaydi. Shu bilan bolalarga yoshligidanoq fanlar va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidlaydi [47; 191].
Husayn Voiz Koshifiy	Insonni kamolga yetkazish maqsadida unda tarkib toptirish uchun zarur bo'lgan xislatlarni o'nga bo'lib turkumlashtiradi. Shu lardan biri kasb-hunat, ilm-ma'rifatni egallashga chaqiradi [47; 213]
Zahiriddin Muhammad Bobur	Yoshlar shaxsini hayotning o'zi shakllantiradi, lekin bunda mehnat va mehnatda toblanish muhim rol o'ynaydi [47; 220]

3.5. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati.

Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati: ta'limning O'zbekiston halqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an'analar va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish, boshqa halqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi sifatida tan olindi.

3.5. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. “VIII-XIIIasrlarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining fundamental asoslariga misollar keltiring.

2. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta’limni izohlang.

3. Kasbiy ta’lim tizimida milliy islohotlar yo‘nalishlarining mohiyati.

4. Mutafakkirlarning fikrlaridan namunalar keltiring.

5. Mutafakkirlarning fikrlarini amaliyotdagi holatini tahlil qiling.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

O‘rta Osiyoda miloddan oldingi 6 asrdan miloddimizning 3 asrigacha bo‘lgan davrda ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya		
Eng kadimgi yorgorliklarda inson tarbiyasi	Zardushtiylik ta’limotida ta’lim-tarbiY. «Avesto»	Eng kadimgi yozma ma’rifiy yodgorliklar

2-jadval

6-8 asrlarda O‘rta Osiyoda ijtimoiy va madaniy hayot, maktab hamda pedagogik fikrlar			
Islomda ta’lim-tarbiya		**So‘fiylik ta’limoti**	
Imom Ismoil al		Yassaviya	
Abu Iso at Termiziy		Naqshbandiya	
		Kusroviya	

3-jadval

Sharq mutafakkirlarning pedagogik fikrlari			
Mutafakkirlar	**Kasb-hunarga oid fikrlari**	**Mutafakkirlar**	**Kasb-hunarga oid fikrlari**
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy		Unsurul-Maoliy Kaykovus	
Ahmad Farg‘oniy		Az-Zamaxshariy	

Abu Nasr Forobiy		Umar Xayyom	
Abu Ali ibn Sino		Abu Rashod Ahmad al-Axsikatiy	
Abu Rayhon Beruniy		Ahmad Yugnakiy	
Mahmud Qoshg‘ariy		Sulaymon Boqirg‘oniy	
Yusuf Xos Hojib		Muslihiddin Sa’diy	

4-jadval

9-15 asrlarda O‘rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, maktab va pedagogik fikrlar	
Mutafakkirlar	**Kasb-hunarga oid fikrlari**
Sohibqiron Amir Temur	
Muhammad Tarag‘ay – Mirzo Ulug‘bek	
Abdurazzoq Samarqandiy	
Alisher Navoiy	
Abdurahmon Jomiy	
Jaloliddin Davoniy	
Husayn Voiz al-Koshifiy	

4 BOB. KASBIY TA'LIMNING DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMOLARI

4.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Uzluksiz ta'lim, ta'lim tizimi, isloh qilish, prinsip, kasb, hunar

4.2. Mavzuning qisqacha ta'rifi.

Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik. Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati: izchillik, ochiqlik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan extiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. «Uzluksiz ta'lim» tushunchasi. Uzluksiz ta'lim tuzilishi. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Kasbiy ta'lim turi va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari. Uzluksiz, kasb-hunar ta'limi tizimida o'rta maxsus ta'limining o'rni va ahamiyati.

4.3. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- ta’limning ijtimoiylashuvi ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta’limning milliy yo‘naltirilganligi ta’limning milliy tarix, xalqan’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish[4; 43-44].

4.4. Uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari.

Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;
- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;
- ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini tubdan o‘zgartirish;
- majburiy umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash;
- maxsus, kasb-hunar ta’limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;
- ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog‘liqyangi kasb-hunar va mutaxassisliklar

bo‘yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;
- ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy-ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;
- ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;
- uzluksiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va ilm-fan bilan bog‘liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;
- tub yerli millatga mansub bo‘lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish [4; 44-45].

4.5. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va

davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi [2. – B. 9].

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

maktabgacha ta’lim;

umumiy o‘rta ta’lim;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;

oliy ta’lim;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishini ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturlari: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar), umumiy o‘rta ta’lim (I-IX sinflar), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta’limi dasturlari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy (bakalvriat, magistratura) ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi [4; 45-46].

4.6. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari nimalardan iborat?
2. Uzluksiz ta’limni qanday islox qilish yo‘nalishlari mavjud?
3. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlarini sanab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari	Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari mazmuni

2-jadval

Uzluksiz ta’lim turlari	Uzluksiz ta’limni turlari mazmuni

3-jadval

Uzluksiz ta’limni islox qilish yo‘nalishlari	Uzluksiz ta’limni islox qilish yo‘nalishlarining mazmuni

2. Quyidagi “Blits-so‘rov” texnologiyasini bajaring:

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
					maktabgacha ta’lim	mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan
					umumiy o‘rta ta’lim	o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishning

						mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish
					o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi	bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi
					oliy ta’lim	4+5
					oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim	Majburiy, ixtiyoriy ta’lim
					kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	4+2
					maktabdan tashqari ta’lim	KIXI, mustaqil izlanuvchilar

3. Ta’lim, prinsip, kasb, hunar tushunchalarini “Sinkveyn” texnologiyasi asosida loyihalashtiring:

Masalan:

1. Bilim (1 ta ot so‘z turkumi: kim? nima? so‘roqlariga javob beruvchi so‘z).

2. Oddiy, sodda (2 ta sifat so‘z turkumi: qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob beruvchi so‘zlar).

3. O‘rganadi, izlanadi, o‘rgatadi (3 ta fe’l so‘z turkumi: nima qiladi? so‘roqlariga javob beruvchi so‘zlar).

4. 3 yoki 4 so‘zdan iborat jumla.

5. Sinonim.

5 BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELINING O‘ZIGA XOSLIGI

5.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Milliy dastur, tamoyil, rivojlanish, bosqich, milliy modelь, shaxs, davlat va jamiyat, fan, ishlab chiqarish, uzluksiz ta’lim.

5.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi, davlat ta’lim siyosatining tamoyillari. Milliy dasturning kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, qayta tuzish vazifalari.

Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo’nalishlari. Milliy dasturni amalaga oshirish bosqichlari. Shaxs – Milliy modelning asosiy komponenti. Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish va rivojlantirish tamoyillari. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari. Jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirish, dunyo bozori sharoitdagi va talablariga javob beruvchi jamiyatga qaratilgan iqtisodni shakllantirish sharoitida ta’limni isloh qilish strategiya va taktikasi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim siyosatining tamoyillari.

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti soxasida ustuvor deb e’lon qilinadi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limining majburiyligi;

- o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish [4; 20].

5.4. Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.

1. Ta’limning uzluksizligini ta’minlash
2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
3. Ta’lim jarayonini mazmunan islox qilish
4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar
5. Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar
6. Ta’lim tizimini boshqarish
7. Kasb-xunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish
8. Ta’lim tizimini moliyalash
9. Moddiy-texnika ta’minoti
10. Ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish
11. Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish
12. Ta’lim soxasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash xamda bu soxani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
13. Fan bilan ta’lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish
14. Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish
15. Ta’lim va kadrlar tayyorlash soxasidagi xalqaro xamkorlik

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Ta'limning uzluksizligini ta'minlash. Ta'limning o'z ichiga maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta'limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha raqobatbardosh ta'lim muassasalari vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi.

Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta'limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko'zlovchi tizimi vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlariga mos yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha maxsus fakultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish. Kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni

kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

Pedagog kadrlarning obro‘-e’tibori, mas’uliyati va kasb ko‘nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta’limning yangi shakl va uslublari, o‘quv, shu jumladan differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar. Yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma’rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

O‘zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo‘mitalari, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik qiladilar. (O‘zR 09.04.2007 y. O‘RQ-87-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar. Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma’lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o‘quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o‘quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta’minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san’atni o‘rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta’lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o‘tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o‘quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste’dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniqyo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ta’lim tizimini boshqarish. Uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta’limning normativ-huquqbazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo‘jalik faoliyati olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi. Ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta’lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish. Ta’lim boshqaruvi organlariga bog‘liq bo‘lmagan, kasb-hunar ta’limi sifatini attestatsiyadan o‘tkazuvchi davlat xizmati tashkil etiladi. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbol talablariga monand davlat ta’lim standartlari ishlab chiqiladi. o‘quv yurtlari faoliyatini, professor-pedagog kadrlar sifatini hamda ta’lim oluvchilarning bilimini reyting asosida baholash tizimi tadbiqetiladi. Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilishning davlat va jamoat shakllari rivojlantiriladi.

Ta’lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyalash tizimi takomillashtiriladi.

Ta’lim tizimini moliyalash. Ta’limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtiriladi, uning ko‘p variantli (byudjetdan ajratiladigan va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta’lim muassasalarining o‘zini o‘zi pul bilan ta’minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta’lim sohasiga jalb etish rag‘batlantiriladi.

Respublika fuqarolari uchun keyinchalik ularni to‘lashning moslashuvchan tizimiga asoslangan ta’lim kreditlari berish mexanizmi shakllantiriladi. Uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda donorlar va homiylarning mavqei kuchayib boradi.

Pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qo‘yilgan vazifalarga muvofiq boshqa tarzdagi faoliyat hisobidan ta’lim muassasalarining daromadlari ko‘payishi ta’minlanadi.

Moddiy-texnika ta’minoti. Har bir mintaqaning demografik va jo‘g‘rofiy xususiyatlaridan kelib chiqib, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tarmog‘i barpo etiladi. Ta’lim oluvchilarni oiladan ajralmagan holda o‘qishga imkon qadar ko‘proqqamrab olinadi.

Mavjud ta’lim muassasalarini kapital ta’mirlash va yangi ta’lim muassasalari qurish, ularni normativ talablarga muvofiq, zamonaviy texnika va texnologiyalarning darajasini hisobga olgan holda jihozlanishini ta’minlash choralari ko‘riladi.

O‘quv-tarbiya muassasalarini zarur uskunalar, inventarlar, ashyolar, ta’limning texnikaviy, dasturiy va didaktik vositalari bilan jihozlash yuzasidan ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish qo‘llab-quvvatlanadi. Barcha bosqichdagi ta’lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim

jarayonini axborot bilan ta’minlash rivojlanib boradi. Ta’lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televideniye va radioning ta’lim dasturlari intellektuallashuvi ta’minlanadi. Fan va ta’limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma’lumotnomalar bilan ta’minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim xizmati ko‘rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi. Davlat va nodavlat ta’lim muassasalari rivojlantiriladi, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta’lim xizmati ko‘rsatish bozori davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Asosiy ta’lim dasturlarida nazarda tutilmagan konsultativ va qo‘shimcha ta’lim xizmatlaridan iborat pullik ta’lim xizmati ko‘rsatish tizimi rivojlantiriladi.

Ta’lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. Pedagogik faoliyatning obro‘-e’tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro‘yobga chiqariladi. Ta’lim oluvchilarning va pedagoglarning o‘qishi, sog‘ligi va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta’lim muassasalari va sog‘liqni saqlash organlari bolalar hamda o‘quvchi yoshlarning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko‘radilar. o‘quv-tarbiya jarayonining sog‘lomlashtirishga qaratilgan yo‘nalishini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilarning tibbiy-gigiyena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi ffaolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

Fan bilan ta’lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg‘or amaliy ilmiy tadqiqotlar o‘tkaziladi, ta’lim sifati davlat ta’lim standartlariga muvofiqkelishini tashkil etish va ta’minlash maqsadida pedagogika va

ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki rag‘batlantiriladi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi ta’minlanadi. Yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi.

Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish. O‘quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash rag‘batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo‘llab-quvvatlanadi. Ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik. Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yobga chiqariladi, xalqaro ta’lim tizimlari rivojlantiriladi, ilmiy-pedagog kadrlar, talabalar va o‘quvchilar almashish kengayadi. Ta’lim to‘g‘risidagi milliy hujjatlar xalqaro miqyosda e’tirof etilishi uchun asos yaratiladi. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning, O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalarining kadrlar tayyorlash sohasiga chet el investitsiyalarini bevosita va bilvosita keng jalb qilish borasidagi faoliyat kuchaytiriladi [4; 54-59].

5.5. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari.

Milliy dasturni ro‘yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar. Milliy dasturni amalga oshirish maqsadida:

- Milliy dasturning yo‘nalish va bosqichlarini amalga oshirishning aniqmexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta’minoti ifodalangan yechim va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi.

- Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalari belgilanadi.

- Milliy dasturning aniq yo‘nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlari jalb etiladi.

- Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvi tashkil etiladi.

- Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritiladi.

- Ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modeli ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash masalalari yuzasidan seminarlar va konferensiyalar o‘tkazish orqali Milliy dasturning prinsipial yondashuvlari hamda asosiy qoidalarini keng ko‘lamda tushuntirish ishlari olib boriladi.

- Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqalarining faol ishtiroki ta’minlanadi.

- Ommaviy axborot vositalarida Milliy dasturning bajarilishi muntazam yoritib boriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan Respublika komissiyasi tashkil etiladi, bu Komissiyaning zimmasiga dasturni bajarishga doir barcha ishlar va tadbirlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, shu jumladan quyidagi vazifalar yuklanadi:

- uzluksiz ta’limning tegishli turlari uchun davlat ta’lim standartlariga qo‘yiladigan umumiy talablarni ishlab chiqish;

- umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat ta’lim standartlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan iborat ta’lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

- o‘rta umumiy ta’limga ega bo‘lgan o‘quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to‘la qamrab olish tadbirlarini, bu tizimni hududlarning demografik, jo‘g‘rofik xususiyatlari va kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirish, uning moddiy-texnika asosini yaratish;
- akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ishlaydigan o‘qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta’lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta’minlash;
- oliy ta’lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloh qilish, bu borada tegishli davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;
- maktabgacha ta’lim va tarbiya muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bolalar tarbiyasida va ularni maktabga tayyorlashda oila, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining mas’uliyatini oshirish;
- ta’lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta’minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ta’lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish;
- professor va pedagog kadrlarni rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi ta’lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus Respublika jamg‘armasi tashkil etish va uning faoliyatini ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarni faol o‘rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o‘rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, o‘zbekcha-chet tillar lug‘atlarini, davlat tilidagi maxsus adabiyotlarni nashr etish;
- uzluksiz ta’lim sohasi o‘qituvchilari va pedagog kadrlarini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatiga haqto‘lash va rag‘batlantirish tizimini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiyalash, kadrlar tayyorlashning malaka talablarini aniqlash hamda sifatini baholash ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha ta’lim tizimi boshqaruviga bog‘liqbo‘lmagan yagona davlat xizmatini tashkil etish;

- ta’limni axborot bilan ta’minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog‘lash, ommaviy axborot vositalarining ta’lim sohasidagi vazifalarini belgilash;
- kasb-hunar ta’limi sohasida kadrlarga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganishni tashkil etish, ta’lim xizmati ko‘rsatish va kasbiy mehnatning raqobatga asoslangan bozorini hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni shakllantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqariladi. *Birinchi bosqich* (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish. Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq ta’lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;
- pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;
- ta’lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-ahloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo‘yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;
- o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;
- ta’lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag‘lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta’lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta’lim xizmati ko‘rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

- ta’lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo‘lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
- xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta’lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o‘quvchi o‘rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta’minlangan holda izchil tayyorlanadi. Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish yo‘nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)[2] Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta’limga o‘tish to‘liq amalga oshiriladi. Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ta’minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimini

[2] 2005 yilda ikkinchi va uchinchi bosqichlarni amalga oshirish yillari uzaytirilib, ikkinchi bosqich 2001-2007 yillar va uchinchi bosqich esa 2007-va undan keyingi yillar deb belgilandi.

axborotlashtirish amalga oshiriladi. Ta’lim xizmat ko‘rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to‘liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liqta’minlanadi. Milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o‘zini o‘zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olinadi [4; 40-41].

5.6. Shaxs – Milliy modelning asosiy komponenti.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liqbo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi.

"Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari orqali sifatli ta’lim olish, shuningdek ta’lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko‘rish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi va tajribasini o‘rgatishda ishtirok etadi [4; 42-43].

5.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. “O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim siyosatining tamoyillarini ta’riflang o‘ting.

2. Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining qanday asosiy yo’nalishlari mavjud?

3. Milliy dasturni amalga oshirishning nechta bosqichlari bor?

4. Shaxs – Milliy modelning asosiy komponenti ekanligini isbotlab bering.

5. Milliy modelning qanday komponentlari mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toiflash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim siyosatining tamoyillari	**O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim siyosatining tamoyillarining mazmuni**

2-jadval

Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo’nalishlari	**Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo’nalishlarining mazmuni**

Milliy dasturni amalga oshirishning qanday bosqichlari mavjudligini bo‘yicha jadvalni to‘ldiring:

3-jadval

Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari (yillari)	**Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlaridagi ishlar**

2. Shaxs so‘ziga “Sinkveyn” metodini loyihalashtiring.

3. Quyidagi “Blits-so‘rov” texnologiyasini bajaring:

Guruh bahosi	**Guruh xatosi**	**To‘g‘ri javob**	**Yakka xato**	**Yakka baho**	**Tushunchalar**	**Tushunchalarga izoh**
					shaxs	ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi

						kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari
					davlat va jamiyat	kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi
					uzluksiz ta’lim	kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi
					fan	malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi
					ishlab chiqarish	yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, iljor pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi

6 BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

6.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar kollejalari, akademik-litsey, madaniyat, san'at

6.2. Mavzuning qisqacha ta'rifi.

«O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi» (O'MKHT) tushunchasi. O'MKHT rivojlanishi maqsadi. O'MKHT rivojlanishi tamoyillari: ilgarilanma, kasbiy ta'lim, uzluksizlik, ketma-ketlilik, insonparvarlik, demokratiklik. O'MKHT tizimining tavsifi va o'ziga hos jihatlari: majburiylik, 9-yillik o'rta ta'limdan so'ng barcha uchun kafolatlangan kirish, ta'lim maskanini erkin tanlash huquqi (akademik litsey, kasb-hunar kolleji), bepul ta'lim, davlat byudjetidan moliyalashtirish, byudjetdan tashqari daromat keltiruvchi faoliyat yuritish huquqi. O'MKHT ta'lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji tushunchalari. O'MKHT ta'lim muassasalari maqsad va vazifalari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi haqidagi diplom.

6.3. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi» (O'MKHT) tushunchasi.

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Qonunning 3-moddasida O'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim olish maqsadida xar kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash xuquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari egallangan kasb-xunar bo‘yicha ishlash xuquqini beradigan xamda bunday ish yoki ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi beradi.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-xunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

Kasb-xunar kolleji o‘quvchilarning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-xunar o‘quv yurtidir [4; 47-48].

6.4. O‘MKHT ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji tushunchalari.

Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beradi. o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zlari tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘nikmalarni o‘qishni muayyan oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-xunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi; o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o‘quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta’lim

muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta’lim olish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko‘rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta’lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari uchun ta’lim va kasb-hunar dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- akademik litseylarning o‘quvchilari mehnat faoliyati ko‘nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro‘yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jo‘g‘rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi ta’lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta’minlash, ularga o‘quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash [4; 47-48].

2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish

2.1. Kasb-hunar bo‘yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta’lim berish, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini va ularning o‘z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlagan kasb-hunar bo‘yicha mutaxassisliklarni egallashini ta’minlash o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi hisoblanadi.

2.2. Quyidagilar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining vazifalari hisoblanadi:

- davlat ta’lim standartlari doirasida umumta’lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish;

- o‘quvchilarning uzluksiz ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirishi, tanlangan mutaxassisliklar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun zarur va yetarli bo‘lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

- respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish.

2.3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida kunduzgi o‘qish shaklida amalga oshiriladi.

Akademik litsey - o‘qitish muddati uch yil, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ma’lumot beradi, o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan holda o‘qitishni ta’minlaydi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘qishni oliy ta’lim muassasida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarish maqsadida bilimlar darajasini oshirishni va maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydigan o‘qish yo‘nalishini (ta’lim fanlari va kurslarini puxta o‘zlashtirish sohasi: gumanitar, tabiiy-ilmiy) ixtiyoriy ravishda tanlaydilar.

Akademik litseylar, qoidaga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etiladi, ularning o‘zaro munosabatlari ularning ustavlari hamda boshqa meyoriy hujjatlar bilan tartibga solib boriladi.

Soha bo‘yicha, tabaqalashtirilgan holda puxta o‘qitishni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan bitim asosida akademik litseylarga homiylik qiladilar.

Kasb-hunar kolleji - o‘qitish muddati uch yil, davlat ta’lim standarti doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumoti beradi, o‘quvchilarning kasb-hunar layoqatlarini, ko‘nikma va o‘quvlarini rivojlantirishni, ularning tanlangan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir nechta mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Kasb-hunar kollejlarida kasbga o‘qitish yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq, respublika hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, shuningdek mehnat bozorining kichik mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Kasb-hunar kollejlari uchun ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari tomonidan barqaror ishlaydigan korxonalar va tashkilotlardan vasiylar belgilanadi, shuningdek turdosh oliy ta’lim muassasalari tomonidan ularga homiylik amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejida kasb-hunar va ta’lim dasturlarini bajarish o‘qitishning ikki tomonlama tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin, bunda o‘quv-ta’lim jarayoni va kasb-hunarga tayyorlash tegishli ravishda kollejda va korxonada olib boriladi.

2.4. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari va xodimlarining ijtimoiy kafolatlari, ularni qo‘llab-quvvatlash va ularga beriladigan imtiyozlar qonun hujjatlariga va tegishli meyoriy hujjatlarga, shuningdek ta’lim muassasasi Ustaviga muvofiq belgilanadi.

2.5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli soha mutaxassislariga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarni

hisobga olgan holda, o‘quvchilarni oiladan uzoqlashtirmasdan imkoni boricha ko‘proq qamrab olish sharoitlaridan kelib chiqib tashkil etiladi [3].

6.5. O‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi haqidagi diplom.

3.10. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bitiruvchilarga o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda:

akademik litseylar uchun - fanlar bo‘yicha o‘qitilgan soha;

kasb-hunar kollejlari uchun - Klassifikatorga muvofiq mutaxassislik (mutaxassisliklar) bo‘yicha berilgan malaka ko‘rsatiladi.

Diplomlarga o‘zlashtirilgan umumta’lim va maxsus (kasb-hunar) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo‘yicha baholar (reytinglar), shuningdek bitiruvchining umumiy reytinggi va yakuniy davlat attestatsiyasining natijalari ko‘rsatilgan qo‘shimcha varaq ilova qilinadi.

Akademik litseyni tugatganlik to‘g‘risidagi diplom oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish hamda olingan bilimlarni mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejini tugatganlik to‘g‘risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat faoliyatini amalga oshirish hamda oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish huquqini beradi[4].

Respublikadagi madaniyat va san’at KXK ruyxati quyidagicha berilgan:

1. Toshkent madaniyat kolleji.
2. Respublika Estrada-sirk kolleji.
3. Bekobod san’at kolleji.
4. Guliston san’at kolleji.
5. Jizzax san’at kolleji.

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida Nizom» 204-son qarori

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida Nizom» 204-son qarori.

6. Samarqand san’at kolleji.
7. Navoiy madaniyat va san’at kolleji.
8. Buxoro san’at kolleji.
9. Buxoro san’at kolleji.
10. Qarshi madaniyat kolleji.
11. Qarshi san’at kolleji.
12. Termiz san’at kolleji.
13. Nukus madaniyat va san’at kolleji.
14. Ellikkal’a san’at va pedagogika kolleji.
15. Urgench san’at kolleji.
16. Farg‘ona san’at kolleji.
17. Andijon san’at kolleji.
18. Namangan san’at kolleji.

6.5. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi» (O‘MKHT) tushunchasiga ta’rif bering.

2. O‘MKHT ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji tushunchalarining bir-biridan farqi bormi?

3. Qanday kasb-hunar kollejlarini bilasiz?

4. Akademiy litseylarga misollar keltiring.

5. Madaniyat va san’at sohasidagi o‘rta maxsus, kasb-hunar kolleji muassasalarini bilasizmi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadvali”ni to‘ldiring:

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi	**O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining vazifalari**	**O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish**
akademik litsey		
kasb-hunar kolleji		

2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi jumlasiga “Klaster” metodini ishlab chiqing.

3. “Tushunchalar asosida matn tuzish” metodini bajaring.

Quyida keltirilgan tushunchalar bilan tanishing va ular asosida qisqa mazmunli matn tuzing:

Tushunchalar: ta’lim tizimi, ta’lim turlari, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim, oiladagi ta’lim va mustaqil ravishda ta’lim olish, ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar.

4. “Tushunchalar tahlili” metodini bajaring:

№	Tushunchalarga topshiriqlar	Tushunchalar
1.	Ta’lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, o‘rgatish, o‘rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmui (5 ta)	Metod
2.	Ta’lim nazariyasi (9 ta)	Didaktika
3.	Shaxsning o‘zaro bir-biri, jamiyat a’zolariga nisbatan qabul qilingan meyorlar asosidagi munosabatlari, hatti-harakatlari majmui, jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq meyorlari; 2) xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab (5 ta)	Axloq
4.	O‘quvchi yoki talabaning individual salohiyati, imkoniyatlari ifodasi (8 ta)	Qobiliyat
5.	O‘quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi (6 ta)	Ta’lim
6.	O‘quvchi yoki talabada muayyan o‘quv materiali va kasbni chuqur o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘lgan avtomatlashgan mahorat (6 ta)	Malaka
7.	Ilm-fan yoki san’atni rivojlantirish uchun tuzilgan oliy ilmiy muassasa (8 ta)	Akademiya
8.	Pedagogik amaliyotda o‘z tavsifiga ko‘ra ommaviy tajribalardan farqlanuvchi (7 ta)	Yangilik
9.	O‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallashga yo‘naltirilgan o‘quv muassasasi (6 ta)	Kollej

7 BOB. TA’LIMNI STANDARTLASHTIRISH. O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

7.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

standart, standrtlashtirish, davlat ta’lim standarti, o‘quv reja, o‘quv dasturi

7.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang‘ich davrlarida standartlashtirish ko‘rsatkichlarini vujudga kelishi. Xalqaro va milliy standartlar. Standart, standartlashtirish meyorlari tushunchalari. Ishlab chiqarishda standartlashtirish. O‘zbekiston Respublikasida “Standartlashtirish to‘g‘risida” gi Qonun. Standartlashtirish, ta’lim standarti, O‘MKHT ta’lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O‘MKHT davlat ta’lim standartlariningsh funksiyalari O‘MKHT DTS maqsadi, funksiyalari, vazifalari, tamoyillari. O‘MKHT DTS. DTSga, uni ishlab chiqish va amalda qo‘llashga qoyiladigan talablar. DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari. DTSning tarkibiy qismlari. Standartlashtirish obyektlari. DTS mazmuni. DTSning Davlat va milliy-mintaqaviy tarkibiy qismlari. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitlarida kasbiy ta’lim sifatiga talablar. DTS kiritilishi kasb-hunar kollejlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholashning asosiy maqsadi sifatida. “Ta’lim sifati”, “ta’lim sifatini nazorat qilish”, “ta’lim sifatini baholash” tushunchalari. Standartlashtirish, ta’lim standarti, O‘MKHT ta’lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni (davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlari). O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari turlari va ulardagi ta’lim-tarbiya jarayoni.

7.3. Standart, standartlashtirish meyorlari tushunchalari.

Standart – muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjat.

Standartlashtirish – mavjud yoki bo‘lajak masalalarga nisbatan umumiy va ko‘p marta foydalaniladigan qoidalarni belgilash orqali ma’lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat.

Davlat ta’lim standarti (DTS) – ta’lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta’lim mazmunini o‘zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, nizomlar, o‘quv rejasi va boshqa meyoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. DTSni, uning talablarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysinishdan qatiy nazar barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risidagi Nizomning umumiy qoidalarida quyidagilardan iborat:

1.1. "Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qoidalariga muvofiq respublikada idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo‘lgan davlat ta’lim standartlari (DTS) belgilanadi.

1.2. DTS - standartlashtirish obyektiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilaydi hamda "Standartlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi.

1.3. DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan talablarni; ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta’lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablarini; o‘quv

yuklamasining zarur hajmini; ta’lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

1.4. DTS ta’lim jarayonini va ta’lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa meyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi[5].

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga xamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashi berilgan.

Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

7.4. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari.

DTS ning tarkibiy qismi sifatida umumiy o‘rta (kasb – hunar va oliy) ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Tayanch o‘quv reja ta’lim sohalarini meyorlash hamda ta’lim muassasalarini moliyaviy ta’minotini ta’minlashga asos bo‘luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o‘quv rejasi o‘quv predmeti bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmunini ta’lim oluvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta’minlash;
- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

[5] Davlat ta’lim standarti to‘g‘pisidagi Hizom. O‘zR VM 05.01.98 y. 5-son Qarori 1-ilova

- ta’limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
- ta’lim jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minlash;
- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash.

Davlat ta’lim standartlarining vazifalari:

- ta’lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari turlariga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta’limga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi meyoriy negizni yaratish;
- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta’lim va tarbiyani kelishib olish ularning o‘zaro bog‘liqligini, uzluksiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;
- o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlashga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkredetatsiya qilishni joriy qilish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;
- milliy standartlar talabini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash[6].

4. Ta’limning standartlashtirish obyektlari. Quyidagilar ta’limning standartlashtirish obyektlari hisoblanadi:

4.1. Ta’lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o‘quv yuklamasi hajmi, ta’lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorgarlik sifati.

4.2. Talablar, meyorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta’lim usullari va vositalari, shuningdek ta’lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar.

4.3. Ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga va kasb-kor malakasiga tashxis qo‘yish tartibi, bitiruvchilap sifatini, ta’lim faoliyati, pedagog va ilmiy-pedagog xodimlar sifatini baholash.

5. *Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.* Quyidagilar DTSni ishlab chiqishga qo‘yiladigan asosiy talablar hisoblanadi:

5.1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlari, vazifalari va qoidalari so‘zsiz amalga oshirilishiga qaratilganlik.

5.2. Ta’lim va kasb-hunar dasturlarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy madaniy an’analar, xalqning intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar prinsiplarini hisobga olish.

5.3. Ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minlash.

[6] Davlat ta’lim standarti to‘g‘pisidagi Hizom. O‘zR VM 05.01.98 y. 5-son Qarori 1-ilova

5.4. Xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fan rivojlanishi darajasi, kadrlar tayyorlashga nisbatan amaliyot tomonidan qo‘yiladigan talablar hisobga olingan holda ta’lim standartlarining ilmiy asoslanishi.

5.5. Ta’lim turlari va bosqichlari bo‘yicha standartlarning kelishilganligi va izchilliligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda ularning kompleksliligini ta’minlash.

5.6. O‘quv yuklamasi maqbulligiga qaratilganlik, ta’lim oluvchilarning qobiliyatlari va eqtiyojlariga bog‘liq ravishda ta’limning tabaqalashtirilishi imkoniyatlarini hisobga olish.

5.7. Ta’lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, ta’lim faoliyatini sifatini baholash mezonlari va tartibotini belgilash.

5.8. Standartning texnologikligi - uning bajarilishini nazorat qilish va uning meyorlari va talablari buzilishining oldini olish imkoniyati;

5.9. Standartlarga tajribada tekshiruvdan o‘tgan ta’lim faoliyatining ilg‘or meyorlarini kiritish.

5.10. Davlat ta’lim standartlari O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtirishi kerak.

6. Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi.

6.1. DTSni ishlab chiqish tanlov shartlarida yoki ta’lim boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan e’lon qilingan innovatsiya loyiqalari asosida amalga oshiriladi.

6.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasi DTS loyihasi ekspertiza qilinishini va eksperimental tekshirishdan o‘tishini tashkil etadi, ularning natijalari bo‘yicha xulosani rasmiylashtiradi.

6.3. DTS Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasining xulosasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

6.4. DTS ular tasdiqlangan sanadan boshlab amalga kiritiladi va ta’lim boshqaruvi vakolatli organlari va ta’lim muassasalari tomonidan majburiy ijro etish uchun qabul qilinadi.

6.5. Tasdiqlangan DTSga muvofiq ta’lim muassasalariga ega bo‘lgan vazirliklar va idoralar ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ishlab chiqadi va ularning amaliy o‘zlashtirilishini ro‘yobga chiqaradi.

6.6. Ta’lim oluvchilarning qobiliyatlari va eqtiyojlariga bog‘liq ravishda o‘quv yuklamasini tabaqalashtirish, DTS tomonidan belgilangan meyorlardan ortiqcha ta’lim mazmunini belgilash ta’lim boshqaruvi vakolatli organlari va ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari vakolatiga kiradi.

6.7. DTSga o‘zgartirishlar kiritish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq ta’lim darajasi va kadrlar tayyorlashga nisbatan qo‘yiladigan talablar o‘zgarishi davomida DTSni tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

7.5. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni (davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlari).

Davlat ta’lim standarti o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun quyidagilardan iborat:

So‘z boshi

I. Asosiy qoidalar

II. O‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar

III. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar

So‘z boshi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish instituti tomonidan "Ta’lim to‘g‘risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

to‘g‘risida", "Standartlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida" 1998 yil 5 yanvardagi 5-son, "O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 1998 yil 13 maydagi 204-son qarorlariga muvofiq ta’lim turlari o‘rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash maqsadida Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan[7].

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsatisiz to‘liq yoki qisman ko‘chirib olish, ko‘paytirish va rasmiy nashr sifatida tarqatish mumkin emas.

I. Asosiy qoidalar.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Ushbu standart o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari majmuining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning:

maqsad va vazifalarini;

asosiy tushunchalarini, tamoyillarini va standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilishni;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini standartlashtirish sohasidagi meyoriy hujjatlarning toifalarini aniqlab beradi.

Ushbu standart:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlarining tuzilishini;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilishni;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari talablarining bajarilishini nazorat qilishni belgilaydi.

[7] Vazirlar Mahkamasining 16.10.2000. 400-sonli qaroriga 2-ilova.

1.1.2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari ta’limni boshqarish davlat organlari hamda idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo‘llanilishi majburiydir.

1.2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslari

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartini ishlab chiqishda quyidagi qonunlar va meyoriy hujjatlar asos qilib olindi:

"Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida" 1998 yil 5 yanvardagi 5-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 1998 yil 13 maydagi 204-son qarori;

O‘Z DST 1.0-98. "O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar";

O‘z DST 1.1-92. "O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. O‘zbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari";

O‘z DST 1.10-93. "O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta’riflar";

O‘z DST 1.5-93. "Davlatlararo standartlashtirish bo‘yicha ishlar olib borish qoidalari. Standartni tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish va ularning mazmuniga qo‘yiladigan talablar";

O‘z DST 1.8-94. "O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Yetakchi hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartiblari";

O‘z DST 1.9-95. "O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Soha standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartiblari";

O‘z DST 1.8-94. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Amal qiladigan hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va tavsiyalar.

O‘z DST 6.01.1-95. O‘zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar.

O‘z DST 6.01.2-95. O‘zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.

1.3. Ta’riflar

Mazkur standartda quyidagi ta’riflar va atamalar qo‘llanilgan:

1.3.1. O‘zbekiston uzluksiz ta’lim standartlarining davlat tizimi ta’lim jarayonini belgilab berish, o‘qitishning asosiy mazmunini, ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malaka talablarini, kadrlar tayyorlash sifati va ta’lim muassasalari faoliyatini baholash mezonlari va mexanizmlarini aniqlash orqali kadrlar tayyorlash sohasida eng maqbul tartibga solish darajasiga va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining kafolatlangan darajasi va sifatiga erishishga qaratilgan meyoriy hujjatlar majmui.

1.3.2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (O‘MKHT) tarmoq standarti malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo‘nalishi va kasb-hunar bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumini va so‘nggi maqsadlarini, o‘quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta’lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta’minlovchi meyoriy hujjat.

1.3.3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (O‘MKHTTYKIUT) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

1.3.4. Kasb faoliyati sohasi kasbga doir bilim, malaka va ko‘nikmalarning qo‘llanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiyot sohalari bilan muvofiqlashtiriladi.

1.3.5. O‘MKHT muassasalaridagi tayyorlov yo‘nalishlari aniq kasb faoliyati sohasida mutaxassislarga kasb ta’limi berish doirasidir. Mutaxassislarni kasb faoliyatining aniq sohasi bo‘yicha tayyorlash yo‘nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni bilan belgilanadi.

1.3.6. O‘MKHT ning umumiy ta’lim dasturi umumiy ta’lim tayyorgarligi mazmunini aniqlovchi hujjatlar to‘plami. Umumiy ta’lim dasturini muvaffaqiyatli egallash akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga ularning oliy ta’lim muassasalarida ta’limni davom ettirishlari uchun teng imkoniyat va huquqlarni ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ta’limning navbatdagi pog‘onalarida bilim olishga tayyorlashni ta’minlash hajmidagi ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va aniq fanlarni o‘z ichiga oladi.

1.3.7. O‘MKHT ning kasb-hunar ta’limi dasturi kasb-hunar ta’limi tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi hujjatlar to‘plami. Kasb-hunar ta’limi dasturi kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi bo‘yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi ma’lum kasbga doir umumkasbiy va maxsus fanlarni hamda ishlab chiqarish ta’limi va amaliyotini o‘z ichiga oladi.

Kasb-hunar ta’limi dasturini muvaffaqiyatli egallash kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kasbi va ixtisosligi bo‘yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi bilan ta’minlaydi.

1.3.8. Maxsus kasb-hunar ta’limi dasturi maxsus kasb-hunar ta’limi tayyorgarligi mazmunini belgilovchi, akademik litseylarning tayyorlov yo‘nalishiga

mos keladigan va o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini jadallashtiradigan, ularda maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini shakllantiradigan, o‘quvchilarning oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishini yoki ularni mehnat faoliyatiga yo‘llashni nazarda tutgan fanlarni chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan hujjatlar to‘plamidir.

Maxsus kasb-hunar ta’limi dasturi fanlarni chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan alohida ijtimoiy, tabiiy-ilmiy yoki ilmiy-texnik va aniq fanlarni o‘z ichiga oladi.

1.4. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini standartlashtirishning maqsadi va vazifalari

1.4.1. O‘MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- O‘MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta’minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- O‘MKHTning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- O‘MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minlash;

- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash.

1.4.2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarining vazifalari:

- O‘MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari turlariga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- O‘MKHTga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi meyoriy negizni yaratish;

- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- O‘MKHT o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlashga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

1.5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini standartlashtirish tamoyillari. O‘MKHT standartlarini ishlab chiqishda quyidagilarni ta’minlash zarur:

- ta’limning uzluksizligi va uzviyligi;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, fan-texnika va texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish;

- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mujassamligi;

- matnlar bayonining aniqligi va yagona qiymatliligi;

- fan, texnika hamda texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga, respublikadagi va chet ellardagi ilg‘or tajribalarga mos kelishi;

O‘MKHT maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi.

1.6. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish

1.6.1. Respublikada O‘MKHT ni standartlashtirishni tashkil qilish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish va uning maqbul darajasini ta’minlash Ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi (TBBVDO) tomonidan amalga oshiriladi.

1.6.2. O‘MKHT standartlarining mazmuni, Davlat standartlari tizimining O‘Z DSt 1.0-98 "O‘zbekiston Respublikasi standartlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro‘yxatga olish tartibi"ga to‘g‘ri kelishi zarur.

1.6.3. O‘MKHT davlat standartlari va ularga kiritiladigan o‘zgartirishlar O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalash markazi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi taqozo etiladi.

O‘MKHTning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklari bo‘yicha ta’lim standartlarini tasdiqlash 3 yillik to‘liq ta’lim sikli mobaynida pedagogik tajriba-sinov ishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, ularga ekspert baho berilgach, amalga oshirilishi taqozo etiladi.

1.6.4. Davlat ta’lim standartlari (DTS)ga o‘zgartirishlar kiritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga mos ravishda, ta’lim darajasi va kadrlarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablarini e’tiborga olgan holda, DTSlarini tasdiqlash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.7. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini standartlashtirish sohasidagi meyoriy hujjatlarning toifalari, standart turlari

1.7.1. O‘MKHT standartlari quyidagi toifa va turlarga bo‘linadi:

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlari (O‘z DTS) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan standartlar.

O‘MKHT tayyorlov yo‘nalishlari va kasblar bo‘yicha tarmoq standartlari (TSt) O‘zbekiston Respublikasi TBBVDO tomonidan tasdiqlangan standartlar. Ular quyidagilardir:

- akademik litseylar tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim standartlari;

- kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisoslar bo‘yicha ta’lim standartlari;

"O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun o‘quv rejalari va dasturlari ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar" standarti.

O‘MKHT tayyorlov yo‘nalishlari va kasblar bo‘yicha tarmoq standartlari (TSt) ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari, korxonalar, tashkilotlar va ta’lim faoliyatining boshqa subyektlari tomonidan ishlab chiqiladi.

1.8. *O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tarmoq standartlarining tuzilishi*

1.8.1. Akademik litseylar tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim standartlari quyidagi tuzilishga ega:

Zarvaraq (Titul varag‘i)

Qo‘llanish sohasi

Meyoriy hujjatlar

Standartning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylarda ta’lim mazmunining majburiy minimumi

Akademik litsey bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy talablar

Akademik litsey tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi (fanning nomi, asosiy o‘quv elementlari)

Standart talablari bajarilishini nazorat qilish

1.8.2. Kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha ta’lim standartlari quyidagi tuzilishga ega:

Zarvaraq (Titul varag‘i)

Qo‘llanish sohasi

Meyoriy hujjatlar

Standartning maqsadi va vazifalari

Ta’riflar

Kasbiy tavsifnoma:

tayyorlov yo‘nalishi, kasb va ixtisosliklarning nomlari;

tayyorlov yo‘nalishining qo‘llanish sohasi va vazifalari;

malaka;

o‘qishga qabul qilish shartlari (mazkur mutaxassislikni egallash uchun shaxsning tayanch hisoblanuvchi ruhiy-fiziologik sifatlari minimumi, yosh va jinsiy xususiyatlari, tibbiy cheklanishlar bo‘yicha ishga qabul qilish tartibi haqida ma’lumotlar ko‘rsatiladi).

Kasb-hunar tayyorgarligi mazmunining majburiy minimumi (o‘quv davrlari, fan sohalari, shuning-dek mazkur fan sohalarining o‘quv elementlari va ularni o‘zlashtirish darajalari ko‘rsatiladi).

Namunaviy o‘quv reja quyidagi qismlardan tashkil topadi:

umumiy ta’lim qismi;

kasbiy ta’lim qismi (umumkasbiy, maxsus fanlar);

o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti;

fakultativ mashg‘ulotlar va (yoki) o‘quv muassasasi ixtiyoridagi soatlar.

Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish.

1.9. *O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish*

1.9.1. O‘MKHT davlat standartlari talablariga rioya qilish ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

1.9.2. Nazorat qilishning bosh vazifasi, O‘MKHT davlat standartlari va tarmoq standartlari talablarining buzilishini aniqlash, oldini olish va bartaraf qilishdir.

1.9.3. Ushbu standart talablariga rioya qilish ustidan nazorat quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- davlat ta’lim standartlari asosida turli o‘quv muassasalarida bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga baho berish;

- o‘quv reja va dasturlarni tahlil qilish;

- o‘quv muassasasida foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish.

1.9.4. Standart talablarining buzilganligi uchun javobgarlik amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta’lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.

II. O‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar.

2.1. O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni standartlashtirish:

- O‘MKHT muassasalari bitiruvchilarining bilim sifati va kasbiy malakasiga qo‘yiladigan talablarni standartlashtirishning maqsad va vazifalarini belgilashdan;

- O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni standartlashtirish sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashdan;

- O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy talablar, shu jumladan malaka talablari mazmunini belgilashdan;

Standart talablarining bajarilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirishdan iborat.

2.2. "O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar" idoraviy bo‘ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, yakka shaxslarni ham hisobga olgan holda barcha davlat boshqaruv organlari va ta’lim faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lgan subyektlar tomonidan bajarilishi shart.

2.3. O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni standartlashtirishning maqsad va vazifalari

2.3.1. O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni standartlashtirishning maqsadi davlat va jamiyat, mehnat va ta’lim xizmatlari bozorlari talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashning davlat kafolatlarini ta’minlashdir.

2.3.2. Ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni standartlashtirishning vazifalari quyidagilar:

- kasb-hunar kollejlarida kichik mutaxassislar darajasida kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichlarini belgilab berish;

- akademik litseylar bitiruvchilarini o‘rta maxsus ta’lim darajasida tayyorlash ko‘rsatkichlarini belgilab berish;

- O‘MKHT muassasalari uchun pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, ta’lim beruvchilarni ishonchli axborot bilan ta’minlash.

2.4. O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy talablar

O‘MKHT muassasalari bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablar quyidagi ko‘rsatkichlarning umumlashtirilgan tavsifnomasidan iborat:

- fundamental fanlar va aniq kasb sohasi doirasida nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

- kasbiy mohirlik va tafakkur doirasining yetarli shakllanganligi;

- tashkilotchilik va tadbirkorlik xislatlarining shakllangan bo‘lishi;

- davlatning tuzilishi, uning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi haqida aniq bilimlarga ega bo‘lish, xalqaro voqea, hodisa va muammolarni tushuna olish;

- mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalari shakllangan bo‘lishi;

- turli vaziyatlarni tanqidiy baholash, yangiliklarga doimiy intilish;

- o‘zbek tilini mukammal bilish, davlat tilida yozma va og‘zaki ravishda erkin muloqotda bo‘lish;

- umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, o‘z millatini va vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;

- kompyuterlar va boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish;

- rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda, boshqa chet tilini mukammal bilish;

- o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga, boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni kundalik hayotga, turmushga tatbiq eta olish;

- jismoniy baquvvat, sog‘lom bo‘lish, harbiy xizmatga va tezkor tibbiy yordam ko‘rsatishga layoqatli bo‘lish;

- ma’naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan o‘zini o‘zi doimo takomillashtirish xislatlariga ega bo‘lish;

- bilimlarni doimo oshirib, yangilab borishga intilish, o‘quv va mehnat faoliyatiga ijodiy, mustaqil yondashish sifatlariga ega bo‘lish;

- mantiqiy fikrlashning uslublari va usullarini bilish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lish;

- huquqiy bilimlar asoslariga ega bo‘lish;

- iqtisodiy bilimlar asoslariga ega bo‘lish;

- zamonaviy axborot vositalari bilan ishlashning amaliy ko‘nikmalarini mustahkam egallash;

- ma’naviy-axloqiy madaniyatga ega bo‘lish;

- siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burch va mas’uliyat hislari shakllangan bo‘lishi;

- ekologik madaniyatga egalik kasbiy faoliyatda ekologik mas’uliyatni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lish;

- o‘quv fanlari bo‘yicha oliy ta’lim muassasasida tahsil olish uchun zarur bo‘lgan bilimlar majmuiga ega bo‘lish.

2.5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tayanch o‘quv rejasi

2.5.1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartining tayanch o‘quv rejalari ta’lim mazmunidan kelib chiqib akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha alohida tuziladi.

Tayanch o‘quv rejalari O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining ishchi o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

2.5.2. Tayanch o‘quv rejasida o‘quv yili 40 hafta va 2 semestrdan iborat. Har bir semestr 20 haftani o‘z ichiga oladi.

2.5.3. Tayanch o‘quv rejalarida umumiy 4560 soatdan 80-220 soat ta’lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.

2.5.4. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarining haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soati mustaqil ishlashga ajratiladi.

2.5.5. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o‘quv rejalari 1, 2, 3 va 4 jadvallarda keltirilgan.

2.5.6. Ta’lim muassasalari ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o‘quv rejalarini tuzishda tayanch o‘quv rejalarini ta’lim standartlari talablari doirasida 15-20% gacha o‘zgartirish huquqi beriladi.

4-jadval

Akademik litseylar uchun tayanch o‘quv rejasi

	Fanlar	**Soatlar soni**	**Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida**
	Umumta’lim fanlari	1940	42,5%
	Chuqurlashtirilib o‘qitiladigan fanlar	1400	30%
	Qo‘shimcha chuqurlashtirilib o‘qitiladigan fanlar	650	14,2%
	Maxsus fanlar Davlat attestatsiyasi Fakultativ kurslar	290 70 270	5% 1,6% 6%
	Jami	**4560**	**100%**

Izoh: Akademik litseylarning o‘quv rejalari tayyorlov yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida tuzilib, chuqurlashtirilib va qo‘shimcha chuqurlashtirilib o‘qitiladigan fanlar uchun ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga nisbatan 5% gacha o‘zgarishi mumkin.

2.6. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish

2.6.1. O‘MKHT sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

- ichki nazorat O‘MKHT muassasasi tomonidan amalga oshiriladi;

- o‘qitish sifatining ichki nazorati ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risida"gi Nizom asosida reyting-nazorat shaklida o‘tkaziladi. Nazoratning reyting tizimi quyidagi nazorat tadbirlari o‘tkazilishini ko‘zda tutadi:

- joriy nazorat og‘zaki so‘rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya’ni o‘qituvchi o‘z amaliyotida qo‘llaydigan barcha so‘rov turlarini o‘z ichiga oladi.

- oraliq nazorat fanning ma’lum bir qismi, bo‘limi yakunlangandan so‘ng o‘tkaziladi. Oraliq nazoratning o‘tkazilish tartibi, shakli ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

- yakuniy nazorat semestr tamom bo‘lganda va o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Yakuniy nazoratning o‘tkazilish tartibi, shakli ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

- tashqi nazorat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat test markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan "Ta’lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom" va amaldagi meyoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi;

- davlat-jamoat nazorati ta’limni boshqaruvchi vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;

- yakuniy davlat attestatsiyasi davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi (loyiha)ni himoya qilish bilan yakunlanadi.

2.6.2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bitiruvchilarga o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda:

- akademik litseylar uchun fanlar bo‘yicha o‘qitilgan soha;

- kasb-hunar kollejlari uchun O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi (O‘MKXTTYKIUT)ga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha berilgan malaka ko‘rsatiladi.

Diplomlarga o‘zlashtirilgan umumta’lim va maxsus (kasb-hunar) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo‘yicha baholar (reytinglar), shuningdek, bitiruvchining umumiy reytingi va yakuniy davlat attestatsiyasining natijalari ko‘rsatilgan qo‘shimcha varaq ilova qilinadi.

Akademik litseyni tugatganlik to‘g‘risidagi diplom oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish hamda olingan bilimlarni mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejini tugatganlik to‘g‘risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat faoliyatini amalga oshirish hamda oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish huquqini beradi.

Klassifikator – bu oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash ta’lm yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ruyxati. U 8 ta bilim sohasidan iborat (ta’lim, gumanitar fanlar va san’at, ijtimoiy fanlar, biznes va huquq, fan, muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlar, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, xizmatlar). Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori O‘zbeikston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo‘yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va vazirlar mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 1998 yil 5 yanvar 5-son qarori asosida tayyorlangan.

III. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichini ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar.

3.1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichining maqsad va vazifalari

3.1.1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi (O‘MKXTTYKIUT)ning maqsadi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha malakali kichik mutaxassislarni tayyorlashning tizimlashtirilgan ro‘yxatini belgilashdir.

3.1.2. O‘MKXTTYKIUTning asosiy vazifalari:

O‘zbekiston Respublikasi hududida kasb faoliyati sohalari bo‘yicha bir xil tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarga ega bo‘lgan kichik mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlash;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar foydalanishlari majburiyligini ta’minlash;

O‘MKXTTYKIUTni ta’lim haqidagi meyoriy hujjatlar (ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) va Oliy ta’limning yo‘nalishlar va ixtisosliklar tasniflagichi)ni indeksatsiyalash maqsadida boshqa ta’lim turlari bilan muvofiqlashtirish.

3.2. Kichik mutaxassislarning kasb faoliyati sohalari

3.2.1. O‘MKXT muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash quyidagi sohalar bo‘yicha amalga oshiriladi:

Sanoat (mashinasozlik, energetika, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, metallurgiya, geologiya va foydali qazilmalarni ishlab chiqish, kimyo sanoati, yengil sanoat, matbaa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish)

Transport

Aloqa

Qurilish

Uy-joy va kommunal xo‘jaligi

Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi

Sog‘liqni saqlash

Ta’lim

Madaniyat va san’at

Ijtimoiy va iqtisodiy soha

Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish sohalari.

3.2.2. O‘MKXTTYKIUTning tasniflash obyektlari bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar hisoblanadi.

3.3. O‘MKHT tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklari umumdavlat tasniflagichining kodlari

3.3.1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarni tasniflash olti raqamli sonlar bilan kodlanadi.

Koddagi birinchi uchta raqam ixtisosliklarning kasbiy sohalari; to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi raqamlar tayyorlov yo‘nalishlari hamda kasblarning tartib raqamini ifodalaydi.

3.3.2. O‘MKHT tayyorlov yo‘nalishlari kasblar va ixtisosliklar kodi kasb faoliyati sohalariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha tayyorlov yo‘nalishlari ro‘yxatining raqamli belgisi.

3.3.3. Uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim (bakalavriat) orasidagi uzviylikni aniqlash va uni ta’minlash maqsadida O‘MKHTTYKIUTda oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishlari kodlari ham qavs ichida keltiriladi.

3.3.4. O‘MKHTTYKIUTda tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning kodlariga mos keladigan "Ta’limning xalqaro standartlashtirish tasniflagichi" (MSKO) kodlari ham keltirilishi lozim.

3.3.5. Tasniflagichni tuzishda davlat, jamiyat va mehnat bozori talablari, kasbiy tayyorgarlikdagi tajribalar, ijtimoiy hamkorlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar talablari hisobga olinishi lozim.

3.5.O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichiga o‘zgartirishlar kiritish tartibi

3.5.1. Tasniflagich tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo‘luvchi ro‘yxati bo‘lib, u qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

3.5.2. Tasniflagichga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritishga oid takliflar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organiga taqdim etiladi.

3.5.3. Tasniflagichga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun o‘quv dasturlari ishlab chiqish bo‘yicha yo‘riqnomada dastur talablari berilgan.

I. Umumiy qoidalar. Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2002 yil 21 maydagi 154-sonli «Davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja, fan dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘iga muvofiq ishlab chiqilib, yaratilayotgan o‘quv dasturlarining tarkibi va mazmunini yoritishga qaratilgan hamda barcha bilim sohalari uchun foydalanishga mo‘ljallangan.

O‘quv dasturlari «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi vazifalar asosida uzluksiz ta’lim turlari (umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’limning bakalavriati) o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, fanlarda mavzular ketma-ketligi va takrorlanmasligiga alohida e’tibor bergan holda ishlab chiqiladi. O‘quv dasturi davlat ta’lim standarti (DTS) ning o‘quvchilar bilimi, malaka va ko‘nikmalariga muayyan fan bo‘yicha qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan uslubiy-meyoriy hujjat hisoblanadi.

II. O‘quv dasturining tarkibi va mazmuni. Namunaviy o‘quv dasturining tarkibi quyidagilardan iborat:

-kirish;

-asosiy qism;

-amaliy, seminar, laboratoriya va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar;

-kurs ishlari (loyihalari);

-fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi (mavzular ketma-ketligi va bilim olish dasturi) ning tarkibi;

-amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun kerakli jihozlar;

-o‘qitishning texnik vositalari;

-tavsiya etilayotgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.

Kirish. Kirish qismida o‘qitiladigan fanning maqsadi, dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fanning ahamiyati qisqacha ochib beriladi. Fanni o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlari va laboratoriya ishlari, kurs ishi va loyihalari) ko‘rsatiladi**.**

Kirish qismining hajmi 14 shrift bilan 1 interval oraliqda 0,5 betgacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

Asosiy qism. Fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Mavzular DTS talablari asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni to‘la qamrab olishi kerak.

Mavzularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Asosiy qismda har 2 soatga mo‘ljallangan bir mavzuga 14 shrift bilan 1 interval oraliqda 0,25 betgacha joy ajratilishi tavsiya etiladi.

Amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Asosiy qismda keltirilgan mavzularga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya, kurs ishi (loyihasi) mashg‘ulotlarining mavzulari tartib raqami bo‘yicha keltiriladi. Amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari mavzulari soni o‘quv dasturida keltirilgan mashg‘ulotlar sonidan oshib ketmasligi tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun mavzuga tegishli bo‘lgan o‘quv jixozlari, laboratoriya jihozlari, o‘qitishning texnik vositalaridan (kompyuter, kodoskop, elektron multimediali o‘quv qo‘llanma, elektron darsliklar, maketlar va h.k.) maqsadli ravishda samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni qisqacha ochib beriladi. Mustaqil ishga mo‘ljallangan topshiriqlar (mavzular) ma’ruzalar mavzulari, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari mavzulari, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga qaratilishi tavsiya etiladi.

Mavzular soniga qarab 14 shrift bilan 1 interval oraliqda 0,3 dan 2 betgacha joy ajratilishi tavsiya etiladi.

Kurs ishlari (loyihalari)ni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Fan bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari) o‘quv rejasida belgilangan bo‘lsa, kurs ishlari (loyihalari)ni tayyorlash uslublari va ularning namunaviy mavzulari keltiriladi. Kurs ishlari (loyihalari)ning kengaytirilgan mavzulari va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar fan o‘qituvchilari tomonidan alohida uslubiy ko‘rsatma ko‘rinishda ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Mavzular soniga qarab 14 shrift bilan 1 interval oraliqda 0,3 dan 2 betgacha joy ajratilishi tavsiya etiladi. Har bir o‘quv dasturining umumiy hajmi fanga ajratilgan soat miqdoriga qarab 5-15 betgacha bo‘lishi mumkin.

Tavsiya etilayotgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxatini keltirishda zamonaviy xorijiy va mahalliy adabiyotlardan, Internet, turli axborot kommunikatsiya resurslaridan hamda boshqa o‘quv, ilmiy va uslubiy ma’lumotlar manbalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

5-jadval

Fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi tarkibi

№	Fanning bo‘limlari va mavzular nomi	Umumiy yuklama, soat							
		Hammasi	Darslar turi bo‘yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)						Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (ma’ruza)	Amaliy	Laboratoriya ishi	Seminar	Kurs ishi (loyihasi)	
1									

III. O‘quv dasturining ekspertizasi va tasdiqlanishi. O‘quv dasturining eksperizasi va tadbig‘i quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘quv dasturi tayanch oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining tajribali professor-o‘qituvchilari, yetuk pedagoglari va mutaxassislaridan tegishli bilim sohalari bo‘yicha tashkil etilgan, sho‘ba kengashlarida muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida O‘quv dasturiga ekspertlar guruhidan kamida 2 ta taqriz olinadi.

Barcha fanlar bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturlar oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv–metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etiladi.

Muhokamadan o‘tgan O‘quv dasturlari oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

IV. O‘quv dasturlarini ro‘yxatga olish va amalda qo‘llash. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘quv dasturi bosh varag‘iga tartib raqami qo‘yilib ro‘yxatga olinadi. O‘quv dasturining asl nusxasi O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi Markazning DTS bo‘limida saqlanadi. O‘quv dasturiga o‘zgartirishlar kiritilishi lozim bo‘lgan taqdirda qayta ishlab chiqilib, yuqorida keltirilgan tartibga asosan dastur qayta ekspertiza va tasdiqdan o‘tishi lozim. O‘quv dasturi tasdiqlangan va ro‘yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi.

V. O‘quv dasturiga mualliflik huquqi. O‘quv dasturini tuzish bo‘yicha ijodiy guruh tarkibida ishtirok etgan mualliflar o‘zlarining ilmiy-uslubiy ishlar ro‘yhatiga ushbu dasturni kiritishlari va ushbu dastur bilan tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin. Boshqa mualliflar va uslubchi-olimlar ushbu o‘quv dasturlaridan foydalanganligi haqida ma’lumot berishlari shart[8].

[8] O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun o‘quv dasturlari ishlab chiqish bo‘yicha yo‘riqnoma. O‘MKHT 29.05.2006y. 91-sonli buyru-i 1-ilova.

7.6. Mustaqil ish.

Quyidagi "Toifalash jadval"ini bajaring:

1-jadval

O‘quv dasturining tarkibi	O‘quv dasturining mazmuni
Kirish	
asosiy qism	
amaliy, seminar, laboratoriya va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar	
kurs ishlari (loyihalari)	
fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi (mavzular ketma-ketligi va bilim olish dasturi) ning tarkibi	
amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun kerakli jihozlar	
o‘qitishning texnik vositalari	
tavsiya etilayotgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar	

Quyidagi "Tushunchalar tahlili" metodini bajaring:

Standart	
Standartlashtirish	
Davlat ta'lim standarti	
O‘quv reja	
O‘quv dastur	
Klassifikator	

8 BOB. KASBIY TA'LIM TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI (CHET EL TAJRIBASI SIFATIDA)

8.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Intergratsiya, kasb, ta'lim, fan, metod, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot

8.2. Mavzuning qisqacha ta'rifi.

Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni.

GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim. Ham do'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim.

Qiyosiy tahlil natijalari haqida bizning respublikada kasbiy ta'limning rivojlanish omillarini, o'ziga xosligini hisobga olingan xulosalari.

8.3. AQSH, GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.
2. Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1—5-sinflarni o'z ichiga oladi.
3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6—8-sinflardan iborat.
4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9—11-sinflar bo'ladi. Mazkur Yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralashtirmaslik kerak.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867—1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1—boyish, 2-G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi.

1872 yili “Ta’lim haqida Qonun” qabul qilindi. Bunda yapon ta’limi G‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtiriladi. 1908 yil Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollej paydo bo‘ldi.

Janubiy Koreyada ta’lim haqidagi Qonun 1948 yilda qabul qilingan. Ta’lim tizimiga asos qilib an’anaviy g‘arb modeli olingan: 6 yil — quyi maktab, 3 yil — o‘rta, yana 3 yil — oliy maktab; so‘ngra to‘rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o‘rganilgandan so‘ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo‘lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Fransiya ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda “Ta’lim haqida”gi Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga qator o‘zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan “Ta’lim haqida”gi Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or tajribalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.

Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablari mavjud.

Maktabgacha tarbiya tizimi *Germaniya ta’lim tizimida* ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy

shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog‘chalariga o‘z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog‘chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog‘chalar ham bor.

Majburiy ta’lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tegishli, ya’ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba’zi joylarda 10 yil) maktabda to‘la haftalik o‘qishda o‘qiydi. O‘qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ozroq. O‘qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktabga o‘tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichidagi yo‘nalish maktablarda maxsus dastur asosida o‘qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko‘chadilar: bular — asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o‘tadi. 9 yoki 10 yillik o‘qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o‘tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo‘lgan bolalar o‘qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o‘rtasida turadi. Qoidaga ko‘ra bu yerda o‘qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to‘la o‘rta ma’lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o‘rta maxsus o‘quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o‘qish huquqiga ega bo‘ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o‘z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o‘quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o‘quv yurtida o‘qish imkonini beradi. Germaniya ta’lim tizimida hunar ta’limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talab kuchlidir. To‘liqsiz o‘rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta’limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o‘qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O‘qish uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi yili asosiy hunar ta’limi beriladi. Bunga o‘qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar

ta’limi beriladi. O‘quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o‘tishi sinov imtihonlari o‘tkazilib o‘qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi yanada chuqurlashtirilib boriladi.. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a’zolari korxonalarning yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O‘qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta’limi to‘g‘risidagi hujjatga asosan oshiriladi.

Buyuk Britaniya ta’limi 4 bosqichdan iborat: boshlang‘ich (Primary school) – 5-11 yoshgacha, o‘rta ta’limi (Secondary school) – 11-16 yoshgacha, navbatdagisi - 16-18 yoshgacha, oliy ta’lim - 18 yoshdan boshlanadi.

*Italiyad*a 13 yillik majburiy maktab ta’limi mavjud. Italyan farzandlari o‘qishni erta boshlashadi. Italyan ota-onalar farzandlarini 3 yoshda bolalar bog‘chalariga beradilar hamda u yerda 3 yil mobaynida maktabga tayyorlaydilar. Pedagog Mariya Montessori usuli asosida guruhda 15-30 o‘quvchi o‘qiydi. U yerda bolalar o‘ynaydi, bir-biri bilan muloqot qilishni o‘rganadilar kelajakda maktabga borish uchun harakat qiladilar. Serkov va monarxiya qoshidagi bog‘chalarda diniy tarbiya beradilar. Mazkur bog‘chalarga 3 yoshdan 6 yoshgacha tarbiyalanadilar. Davlat ixtiyoridagi bog‘chalardan tashqari xususiy katolik bog‘chalar ham mavjud.

8.4. Hamdo‘stlik mamlakatlarida kasbiy ta’lim.

6-jadval

Xorijiy mamlakatlarda ta’lim tizimi

O‘zbekistondagi ta’lim tizimi	Chet eldagi ta’lim tizimi	AQSH	Fransiya	Ispaniya	Buyuk Britaniya	Janubiy Koreya
Maktabgacha ta’lim	**Bolalar bog‘chalari**	3 yoshdan 5 yoshgacha	5-6-yoshlilar *kichik guruh* 2-4 yosh, *o‘rta guruh* 4-5 yosh, *katta guruh* 5-6 yosh	bolalar bog‘chasi (2-3yosh)	Bolalar bog‘chalari	Bolalar bog‘chalari
Umumiy o‘rta ta’lim	**Boshlang‘ich maktab**	1-5-sinf	6 yoshdan 11 yoshgacha 1. *Tayyorlov bosqichi*. 2. *Elementar kurs* (bu bosqich ikki yil davom etadi). 3. *Chuqurlashtirilgan bosqich*.	Boshlang‘ich maktab (4-5 yosh)	*boshlang‘ich* (*Primary school*) – 5-11 yoshgacha	6 yil - quyi maktab
	To‘liq bo‘magan o‘rta maktab	6-8-sinf	O‘rta ta’lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. O‘rta ta’lim ikki bos-qichda amalga oshiri-ladi. O‘rta ta’lim ikki bosqichda beri-ladi. *Birinchi bos-qich* (11 yoshdan15 yoshgacha) 4 yil bo‘lib, eng kichik sinf 6-sinf, *5,4-o‘rta sinf* hisoblanadi.	Bazoviy ta’lim 8 kursdan iborat bo‘lib, o‘quvchi-lari 6-14 yosh oralig‘ida bo‘la-di. *Dastlabki* 5 yil bir o‘qituv-chida bo‘ladi. *Ikkinchi bosqichda* har xil predmet o‘qituvchilari dars o‘tadilar	*o‘rta ta’limi (Secondary school)* – 11-16 yoshgacha	3 yil - o‘rta maktab
	Yuqori maktab	9-11 sinf		Bachilerato o‘rta ta’limning yuqo-ri bosqichini es-latadi. U uch kursdan iborat. *Ikkinchi kursda* kasb-	navbatdagisi - 16-18 yoshgacha. Bu ta’lim universitetga o‘qishga kirish	3 yil - oliy maktab

				hunar ta'limini olishi mumkin, bu ixtiyoriy hisoblanadi. Bachirleto bepul, davlat ixtiyorida. *Uchinchi kursda* o'quvchilar aniq yoki ijtimoiy fanlarni aniqlashi lozim.	uchun bo'lib, kasb ta'limidan iborat. Kasb ta'limi - har doim to'ldirib turiladi. Navbatdagi ta'lim maktab ta'limining davomi hisoblanadi.	
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	**Kollejlar**	2 yoki 4 yillik	Oliy ta'lim universitetlarda uch davrda amalga oshiriladi. *Birinchi davr* umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil. *Ikkinchi davrda* o'qish bir yil davom etadi. Talablar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi. *Uchinchi davrda* o'qish bir-ikki yil bo'lib, bunda: - biron bir fanni chuqurlashtrib o'rganganligi haqida diplom (bir yil); - davlat doktorlik dissertatsiyasi - biron bir sohani mukammal o'rganib, dissertatsiya yozish kabi hujjatlar	1. *1-darajaga* o'rta ta'limning yuqori sinflari kiradi. 2. *2-darajaga* 18 yoshdan boshlab o'qib, 1-darajali kolledjni bitirishi lozim. Birinchi yili o'quvilar tanlangan kasb yuzasidan 4 ta fanni o'qishadi. Ulardan bittasidan imtihon yil yakunida bo'ladi. Ikkinchi yilga 3 ta fan va imtihon qoladi. 4 ta imtihon natijalari asosida diplom beriladi. Bu diplom mutaxassilik yuzasidan ishlash huquqini beradi, lekin menenjerlikni		to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi
Oliy ta'lim	**Bakalavr**	4 yillik kollejni bitirganlar			Oliy ta'lim - 18 yoshdan boshlanadi. Bakalavr bosqichi magistr va doktorlik uchun sharoit yaratadi hamda universitet va kolledjning kunduzgi bo'limida 3-4 yillik maxsus dasturiga qatnashishi lozim. Bu bosqich bitiruvchilari o'rta injener-texnolog yoki o'rta rahbarlikda xususiy yoki davlat ixtiyoridagi korxonalarga ishlish	

			olish mumkin.	bermaydi. Yakuniy imtihon natijalari universitetga kirish imkonini beradi. YA'ni universitetning birinchi bosqichigv kirish imkoniyatidir. Talabaga uch variant qo'yiladi: ishlash, o'qishni davom ettirish yoki universitetga kirish. 3. *3-darajali* kollejda 1 yil o'qib, sertifikat olinadi. Bu sertifikat menejer bo'lish yoki rahbar bo'lish imkonini beradi. 4. *4-darajada* bakalavr diplomi beriladi. Bu diplom bilan firmani boshqa-rishi mumkin.	imkoniyatini beradi.	
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	**Magistr**			Ekvivalent bos-qichda: *Bakalavr* – 2 kursdan iborat bo'lib, 1 kurs oxirida talaba 3 yo'nalishdandan iborat bakalavr-ni oladi, ya'ni	*Magistr bosqichining* dasturida 8-9 soat leksiya va seminardan so'ng imtihon topshirilib, 3-4-oyda diplom proyektrini	tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil

				- arxetektur yo‘-nalish; - texnik yo‘-nalish; - barcha yo‘nalish bo‘yicha 2. *Magistr* – 2 kurs yakunida bakalvr yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim quyidagilardan iborat: - Arxitektur. - Injener. - Litsenziat. -Tadqiqotchi magistr. 1. 3. *Doktor* – 3 kurs yakunida dissertatsiyani ilmiy kengash muhokamasiga tayyorlaydi.	tayyorlaydilar. Imtihon nati-jalari hamda diplom loyi-hasi uchun magistr dara-jasini beradi. Bu bosqichning qoidasi doktorlik darajasini olishi kerak hisoblanadi. *Doktor bosqichining* dasturi ilmiy tadqiqot ishla-ridan iborat. Hech qanday ma’ruza yoki o‘quv seminar-lari o‘tkazil-maydi. Ilmiy rahbar doktorga ilmiy tadqiqot mavzusini bera-di hamda maz-kur tadqiqotni olib borishga sharoit yaratib beradi. Tadqiq ishiga 2-3 yil vaqt ketadi. Yakunida talaba yakuniy hiso-botlarida, il-miy yoki maxsus jurnallarda nashr etishi ke-rak hamda nashr etilgan mate-riallar asosida	vaqt sarflash lozim.

					dissertatsiyani yozadi. Muvaffaqiyatli dissertatsiya himoyasidan so‘ng doktorlik darajasi beriladi.	
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash			Malaka oshirish kurslaridan o‘tish uchun aniq muddat belgilab qo‘yilma-gan. O‘qituvchilar o‘z ixtiyori bilan test markazlarida imti-hon topshiradi. Shu imtihonlar davrida o‘qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar se-zilib, malaka oshi-rishga ehtiyoj aniq-lansa, o‘z vaqti va mablag‘lari hiso-biga malaka oshira-dilar.			

8.5. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Buyuk Britaniya ta’limi necha bosqichdan iborat?
2. Italiya ta’limi necha bosqichdan iborat?
3. AQSH ta’limi necha bosqichdan iborat?
4. Germaniya ta’limi necha bosqichdan iborat?
5. Rossiya ta’limi necha bosqichdan iborat?
6. Yaponiya ta’limi necha bosqichdan iborat?
7. Koreya ta’limi necha bosqichdan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”ini to‘ldiring:

1-jadval

Xorijiy mamlakatlar	**Ta’lim tizimi**
Buyuk Britaniya	
AQSH	
Germaniya	
Yaponiya	
Koreya	

2. “Venn diagrammasi” strategiyasini “O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar ta’limi”ishlab chiqing:



9 BOB. TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH O‘RTASIDAGI ALOQALARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARI

9.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Integratsiya, ta’lim, fan, ishlab chiqarish

9.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Kichik mutaxassislarning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari. Kichik mutaxassislarning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta’lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi-murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume’tiborli va ma’naviy qiziqishiga molik jarayonga aylandi. Ta’lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a’zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir. Kasbiy ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv yordamida inson hayotiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatish mumkin. Ishlab chiqarishga moslashuvning ijtimoiy uyg‘unlashuvi esa texnikani taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi. Bo‘lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Korxonalrning yangi xo‘jalik yuritishga o‘tishi, faoliyat turlari kengayishi va o‘zgarishi, o‘rta va kichik biznes rivojlanishi va jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish. Kichik mutaxassilarga (kollej bituruvchilariga) qo‘yiladigan talablar. «Ijtimoiy hamkorlik» tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta’lim muasasalarining mustaqilligini

oshirish. Korxona va ta’lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalari.

9.3. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 5-modeli kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarishdan iborat.

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta’limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi, chunonchi u:

turli saviya va malakadagi mutaxassislarga bo‘lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

o‘z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, kadr resurslari hamda kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta’lim tizimiga ko‘maklashadi;

muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o‘quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

ta’lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo‘llar bilan ta’minlanadi:

ta’limni karxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo‘shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ta’lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma’naviy va jismoniy tarbiyalash);

ishlab-chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

pedagog kadrlarning ilg‘or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta’lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

ishlab chiqarish amaliyotini o‘tish uchun ta’lim oluvchilarni ish joylari bilan ta’minlash;

o‘zaro integratsiyalangan ta’lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash [4; 52-53].

9.5. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta’lim muasasalarining mustaqilligini oshirish

Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish. Kichik mutaxassilarga (kollej bituruvchilariga) talablar qo‘yiladi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta’lim muasasalarining mustaqilligini oshirish maqsadida korxona va ta’lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar

bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalari tuziladi. Quyida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimiga kiruvchi tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati [9].

I. Madaniyat muassasalari

1. «O‘zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi.

2. «O‘zbeknavo» estrada birlashmasi.

3. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining bosh direksiyasi

4. Akademik, xalq va badiiy jamoalar direksiyasi.

5. Orkestrlar (simfonik orkestr, kamer orkestri, xalq cholg‘u asboblari orkestri).

6. «O‘zbekraqs» milliy raqs birlashmasi.

7. «O‘zbekdavlatsirki» respublika birlashmasi.

8. «Sahnadagi sirk» ko‘chma korxonalar direksiyasi.

9. Oliy ta’lim muassasalari (O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi) [10].

10. O‘rta maxsus ta’lim muassasalari.

11. Respublika metodika va axborot markazi.

12. Ijodkor yoshlar uyi.

13. Xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar respublika ilmiy-metodik markazi.

14. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi.

15. Badiiy ekspertiza boshqarmasi.

16. «O‘zbekmuzey» respublika jamg‘armasi, respublika muzeylari.

17. «Guliston», «Teatr», «Moziydan sado» jurnallari tahririyatlari.

18. Musiqa va san’at maktablari.

19. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi tahririyati.

---

[9] Vazirlar Mahkamasining 5.05.2005 yildagi 96-sonli Qarori 2-ilova.

[10] 2-ilovaning 9-bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 10 avgustdagi 244-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012 y., 33-34-son, 391-modda

20. Ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar[11].

21. Markazlashtirilgan buxgalteriY.

22. Repertuar-tahririyat hay’ati.

23. Badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi [12].

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimiga kiruvchi tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati

«O‘zbekraqs» birlashmasi tarkibiga kiruvchi jamoalar ro‘yxati

1. «Bahor» davlat xalq raqs ansambli

2. «Zarafshon» davlat folklor ansambli

3. «Lazgi» davlat vokal-xoreografiya ansambli

4. «Tanovar» milliy raqs ansambli

5. «Bahor» konsert zali

6. Milliy raqs jamg‘armasi

7. «O‘zbekraqs» birlashmasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi ansambllari:

«Ayqulash» milliy raqs ansambli (Qoraqalpog‘iston)

«Sumalak» milliy raqs ansambli (Andijon)

«Lola» milliy raqs ansambli (Buxoro)

«Gulira’no» milliy raqs ansambli (Jizzax)

«Momogul» raqs ansambli (Qashqadaryo)

«Navoiy navolari» ansambli (Navoiy)

«Namangan gullari» milliy raqs ansambli (Namangan)

«Samarqand bahori» raqs ansambli (Samarqand)

«Do‘stlik» ansambli (Sirdaryo)

---

[11] 20-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 21 avgustdagi 178-sonli qarori tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 34-35-son, 346-modda.

[12] 23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 martdagi 41-sonli qarori bilan to‘ldirilgan — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 11-son, 83-modda.

«Boysun» folklor-etnografik ansambli (Surxondaryo)

«Guldasta» ansambli (Surxondaryo)

«Shalola» ansambli (Toshkent viloyati)

«Anor» qo‘shiq va raqs ansambli (Farg‘ona)

«Kamalak» ansambli (Farg‘ona)

«Xorazm navolari» milliy raqs ansambli (Xorazm)

9.6. O‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 11 fevraldagi “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi 40 - sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘rta maxsus, “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risida” gi nizom ishlab chiqildi. Ushbu Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 11 fevraldagi “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi 40-sonli qarori ijro uchun qabul qilinishi, “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risida” gi nizom ilovaga muvofiq amaliyotga joriy etilishi, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazishni takomillashtirish bilan bog‘liq chora tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan qat’iy monitoring olib borish jadvalini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibda amaliyotga joriy etish, kasb-hunar kollejlari ilmiy pedagogik kengashlarida o‘quvchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash natijalarini muntazam ravishda tahlil etib borish kabi vazifalar tilga olingan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan 4.14. Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini

rivojlantirishda o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash rag‘batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo‘llab-quvvatlanadi. Ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi[13].

9.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy ta’lim tizimi qanday isloh qilinadi?

2. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta’lim muasasalarining mustaqilligi qanday amalga oshiriladi?

3. O‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi qanday amalga oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

Madaniyat muassasalari	**«O‘zbekraqs» birlashmasi tarkibiga kiruvchi jamoalar ro‘yxati**

2-jadval

«O‘zbekraqs» birlashmasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi ansambllari	

[13] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

2. FSMU texnologiyasini mavzu asosida loyihalashtiring.
3. Keys-stadi topshiriqlarini ishlab chiqing.

10 BOB. KASBIY PEDAGOGIKANING DIDAKTIK PRINSIPLARI

10.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Ta’lim, didaktika, kasb ta’limi, tamoyil

10.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Kasb hunar ta’limi jarayonlari taxlili va asosiy dadaktik tushunchalar. Kasb hunar ta’limida umumdidaktik tamoyillar onglilik va faollik ilmiy sistemalik nazariy va amaliy birligi ta’lim tarbiya birligi ko‘rsatmalilik. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta’limida qo‘llash.

10.3. Kasb hunar ta’limi jarayonlari tahlili va asosiy dadaktik tushunchalar.

Didaktikaning asosiy tushunchalariga ta’lim, ta’lim jarayoni, ta’lim tamoyillari, ta’lim metodlari, ta’lim shakllari, ta’lim vositalari, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘qitish, o‘qish va shu kabilar kiradi.

Ta’lim – o‘quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi [30; 121-122].

Ta’lim axboroti – muayyan faoliyat turi, ixtisosini amalga oshirishda qo‘llashi uchun ta’lim oluvchiga taqdim etiladigan bilim [30; 122].

Ta’lim berish, o‘qitish – 1) ta’lim jarayonining asosiy tomonlaridan biri, o‘quvchining tezkor faoliyati, bilimlar zahirasini o‘zlashtirishi, ularni mustaqil egallash usullarini o‘rganishi hamda amalda qo‘llashni bilishiga yo‘naltiriladi; 2) o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi va talabalarga bilim berish, rivojlantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni [30; 122].

Ta’lim vositasi – muayyan o‘qitish metodi yoki usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari [30; 122].

Ta'lim genezesi – ta'lim va uning tarkib topish (yuzaga kelish) jarayoni bilan bog'liq, murakkab so'zlar bo'lagi [30; 122].

Ta'lim granti – ta'lim sohasida amalga oshiriladigan faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun davlat yoki byudjetdan ajratilgan pul [30; 122].

Ta'lim dasturi – ta'limning muayyan yo'nalishi, bosqichi va darajasiga ko'ra belgilab berilgan ta'lim mazmuni [30; 122].

Ta'lim jarayoni monitoringi – kompyuter texnologiyalari majmuida foydalanish asosida, ta'lim jarayoni borishi, natijalari va samaradorligini uzluksiz kuzatish va to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni [30; 122].

Ta'lim jarayonini loyihalash – o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladigan ta'lim jarayonining texnologik tuzilma, uning natijasini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisi [30; 122].

Ta'lim mazmuni – o'quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi [30; 123].

Ta'lim metodikasi – muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi [30; 124].

Ta'lim metodi – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, pedagogik bilimlarni yaratish va asoslash usuli [30; 123-124].

Ta'lim monitoringi – ta'limdagi biror jarayonni baholash maqsadida maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatuv va nazorat qilish [30; 124].

Ta'lim prinsiplari – yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim maqsadlariga muvofiq o'qitishning asosiy xarakterini belgilab beruvchi tayanch qoidalar [30; 124].

Ta'lim standarti – muayyan ta'lim jarayonining modeli, namunasi, etoloni, meyorlari, qoidalari, talablari davlat tomonidan tasdiqlangan meyoriy hujjat [30; 124].

Ta'lim texnologiyalari – 1) ta'limning yanada samaraliroq shakliga erishish uchun, inson zahiralarini va ular o'rtasida o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim jarayonini baholash, amalga oshirish, tizimli rejalashtirish metodi; 2) ta'limning texnik vositalari va kompyuterlarni shunchaki qo'llash emas, balki ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni tahlil etish asosida loyihalash usuli, material (o'quv metodik) va maqbul metodlar yordamida ta'lim jarayonini qulaylashtirish usullarini ishlab chiqish va uning tamoyillarini aniqlash; 3) aniq maqsadga ko'ra o'quv jarayonini boshqarishga oid didaktik muammolarni hal qilish, bunda erishiladigan yutuqlar aniq tavsif va ta'riflarga asoslanishiga erishish metodi [30; 125].

Ko'nikma – o'quvchi yoki talabaning o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyati [30; 65].

Malaka – o'quvchi yoki talabada muayyan o'quv materiali va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahorat [30; 72].

Bilim – o'quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumot [30; 18].

Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash – o'qituvchining o'quv materiallarini taqdim etish jarayonida mustahkamlik prinsipini ta'minlashga qaratilgan maxsus ishlari [30; 18].

Ma'lumot – shaxsning o'qish, o'rganish natijasida o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalari hajmi, yo'nalishi va darajasi [30; 74].

Kasbiy yo‘nalish – motivatsiya sohasidagi xoxish-mayillarga ko‘ra aniqlanadigan kasbiy faoliyat motivatsiyasining integral tavsifnomasi bo‘lib, shaxs qiziqishlari munosabatlari va maqsadga qaratilgan intilishlaridan iborat yo‘nalishdir [30; 57].

Kasbiy mahorat – ta’lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta’limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi [30; 57].

Kasbiy motivatsiya – kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta’sirida shakllanuvchi mayl [30; 57].

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish va ularni boshqaruv amaliyotida qo‘llashni ta’minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo‘lib, rahbarning o‘z faoliyati davomida fan-texnika yangiligiga, ilg‘or tajribalarga tayanish hamda mazkur tajribalar asosida o‘zining ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borishi bilan bir qatorda jamoa faoliyatini boshqarish tajribasi [30; 57].

Kasbiy tayyorgarlik – ta’lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon [30; 58].

Kasbiy tarbiya – inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni [30; 58].

Kasbiy ta’lim – muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim [30; 58].

Kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash – shaxs fikrining tanlangan, o‘zlashtirilgan yoki bajarilgan mehnat faoliyatida ifodalanishi [30; 58].

Kasb-hunar kolleji (KHK) – 1) muayyan kasb-hunarni egallashga ixtisoslashtirilgan o‘rta maxsus ta’lim muassasasi; 2) o‘quvchilaning kasb-hunar moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb tanlash imkonini beradigan ta’lim muassasasi [30; 58].

10.4. Kasb hunar ta’limida umumdidaktik tamoyillar.

Ta’lim prinsiplari o‘qituvchining faoliyatini va o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo’l-yo’riqlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim prinsiplari o‘qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri xal qilisning asosiy qonuniyatlaridir. Qonuniyat bu barqarorlik, zaruriyat, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o‘quv jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini qonuniy ravishda aniqlab beradi.

Ta’lim prinsiplari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qish va o‘qitish jarayonlarining yo’nalishi, o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirishlari, bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun qoidalarining yig‘indisiga aytiladi.

O‘qitish prinsiplari ta’limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri xal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Quyidagilar eng muhim didaktik prinsiplar qatoriga kiradi:

1. Ta’limning ilmiy, muntazam va izchil bo‘lishi prinsipi;
2. Ta’lim va tarbiyaning birligi prinsipi;
3. Ta’limda nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi;
4. Ta’limning ko‘rsatmali bo‘lish prinsipi;
5. Ta’limda onglilik va faollik prinsipi;
6. Ta’limni puxta va mustahkam o‘zlashtirish prinsipi;

7. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish va tushunarli qilib o‘qitish prinsipi.

Shuningdek, quyidagi ta’lim tamoyillari ham mavjud:

Pedagogik jarayoning tizimlilik (yaxlitlik, bir butunlik) prinsipi – ta’lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi (kamoloti)ning uyg‘unligi, muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi.

Asoslanganlik prinsipi – turkum o‘quv predmetlarini o‘rganish obyekti (predmet, hodisa, jarayon, xatto tirik mavjudot sifatida inson)ning mojiyaati, muhim hususiyatlari, aloqalari, obyektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o‘zida ifodalaydi. U har bir o‘quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, o‘zi uchun “yadro”, “o‘zak”, hisoblangan tizimlashtiruvchi ma’lumotlarga ega bo‘ladi va shu ma’lumotlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi, uning aniq soha bo‘yicha Bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishida tayanch bo‘lib hizmat qiladi.

Insonparvarlashtirish prinsipi – pedagogik amaliyotda insoniylashtirish bilan birgalikda qo‘llaniladi. Bu har ikki tushuncha ham lug‘aviy jihatdan yunoncha “humanus” insoniylik va “humanitas” insoniyat so‘zidan olinib, bir o‘zakka ega bo‘lsada, ularning boshqa – boshqaa ma’nolar anglatishi olimlaar tomonidan e’tirof etilgan [6; 50].

Uzluksizlik prinsipi - fan texnika taraqqiyoti, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng ko‘lamda qo‘llash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko‘rsatish uchun shaxsga uning butun umri uchun yetarli bo‘lgan Bilim, ish –harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni belgilangan vaqt davomidaberish mumkin bo‘lmay, balki u butun hayoti davomida takomillashtirib borishini nazarda tutadi. Maskur prinsip o‘qituvchidan ta’lim – tarbiya ishida o‘quvchilarning mustaqilligini ta’minlash uchun kerakli shart- sharoit yaratishni talab qiladi.

Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bog‘liqlik prinsipi – o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qo‘llangan yoki dastrulamal bo‘lib hizmat qilgandagina axamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo‘llanmagan bilimlar asossiz bo‘lib, qisqa vaqt davomida unitiladi.

Ta’limning ilmiylik prinsipi – ilmiy bilish hodisadan mohiyatga, narsaning tashqi ta’siridan uning ichki tuzulishini tasvirlashga o‘tishdan iboratdir. Agar o‘quv materiali o‘quvchini qonunlar, tushunchalar, formulalr va teoremalar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb ataladi.

Tushunarlik prinsipi – bilimlarni o‘zlashtirishning onsonligi, malaka va ko‘nikmalarning hosil qilinishi ularning o‘quchilarning rivojlanish darjasi, shaxsiy tajribasi bilan aloqasini ko‘rsatadi. Agar bunday aloqalarni aniqlab bo‘lmasa, bilimlar tushunarli deb hisoblanmaydi

Ta’limning ko‘rsatmalilik prinsipi – XVII asrda Y.A.Komenskiy ko‘rgazmalilik tamoyilini har qanday tarzdagi o‘qitishning muffaqiyatli bo‘lishi negizi sifatida ta’rifladi. I.G.Pestalotssi bu tamoyilni o‘qitishning asosiy vositasiga aylantirdi.

Ko‘rsatmalilik tamoyilining – hozirgi izoxi quyidagi asosiy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ko‘rgazmalilik deganda o‘quvchining hissiy bilishini tashkil qilish tushuniladi. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish o‘quv jarayonida hissiy bilishni tashkil etishning bir jihati hisoblanadi [6; 51].

Ta’limning onglilik va faollik prinsipi – o‘quvchilarning bilish faoliyatiga asos qilib olingan qoida sifatida uchta muhim jihatni: o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining ongli ravishda tushunilishini, o‘quv mashg‘ulotlariga ongli munosabatda bo‘lishni, bilish faoliyatining shakillanishini o‘z ichiga oladi.

Ta’limning puxtalik prinsipi – o‘quv jarayonining bilimlaar puxta bo‘lishiga erishish imkonini beradigan jixatlarni taxlil qilishda asosiy qoida hisoblanadi.

Ta’limni individuallashtirish prinsipi – o‘quvchilarning individual hususiyatlarini e’tiborga olgan holda mashg‘ulot (dars) jarayonini tashkil qilish-o‘qitishni individuallashtirish deb yuritiladi.

Kasbiy mobillik prinsipi – insonni tez fursat ichida hayotga tadbiq etilayotgan yangi texnika va samarali texnalogiyalarni o‘zlashtirish qobilyatini ko‘zda tutadi.

Kasbiy ta’limning modullik prinsipi – o‘quvchi o‘ziga beriladigan axborotlar banki va metodik ko‘rsatmalardan iborat shaxsiy o‘quv dasturiga asoslanib mustaqil holda didaktik maqsadga erishadi. Modullik prinsipni amalga joroy etish quyidagilarni ta’minlaydi.

- subyekt maqsadlarga erishish uchun barcha faoliyat ko‘rinishlaarini integrasiyalashga va muntazam ravishda subyekt maqsaadlariga yetishish borasida muqobil yechimlaarni izlashga
- istiqbolda subyektni kasbiy tayyorgarlik darjasini oshirishga yo‘naltirishga [6; 52];
- modullar hayotnng barcha sohalaridagi, shu jumladan fan- texnika, texnologiyalardan o‘zgarishlaarni tezkorlik bilan hisobga olish imkoniyatini beradi.

Qulay muhit hosil qilish prinsipi – eng avvalo mehnat va hayot hafsizligi, moddiy –texnik va o‘quv uslubiy negiz, texnik, texnologik erganomik, iqtisodiy, pedagogik, sanitariya- gigiyena, ekologik va shu kabi talablarga amal qilishni ko‘zda tutadi.

Politexnik prinsip – zamonaviy texnik va ishlab chiqaarish texnologiyalarini umuniy asoslari bilan tanishtirish, tizimli bilim hosil qilish demakdir.

Ta’limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo‘shib olib borish prinsipi – nazariy ta’lim bilan amaliyotning bog‘liqlik prinsipi.

Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik prinsipi – ta’lim muassalarida mutahassislar tayyorlashning maqsaadga muvofiqligi, ularga bo‘lgan davlat va jamiyat extiyojlarida o‘zaro mutanosiblik [6; 53].

Talimda predmetlararo bog‘liqlik prinsipi – ta’lim muassalrida umumkasbiy o‘tilayotgan umumta’lim, maxsus va umumkasbiy turkum o‘quv oredmetlari boshqa o‘quv predmetlaaari bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi lozim. Bunda o‘quv predmetdaagi mavzular takrorlanmasdan balki bir-birini to‘ldirib boradi.

Reduksiyalash prinsipi – fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or ishlab chiqaarish texnologiyalarining amaliyotga keng ko‘lam va tezkorlikda joriy etilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida o‘quv materialining imkoni boricha ixchamlashtirish, yani eng muhim tizim hosil qiluvchi qismini ajratib olishni ko‘zda tutadi.

Refleksivlik prinsipi – subyektning o‘z shaxsiy faoliyatiga o‘zlashtirgan hayotiy tajribasiga baxo berish, o‘zgalarning u haqi daagi fikrlaari vaular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini tavsiflaydi.

Maqbullik prinsipi – pedagogic shart sharoitlarning qulayligi mavjud imkoniyatning hisobga olinishi, oz, vaqt, mablag‘ zo‘riqish kuchlari sarflaash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi.

Ta’lim – tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv prinsipi – tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta’lim-tarbiya jarayonini samarali, hususan o‘quvchilarning yosh hususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keying bosqichlaariga o‘tish imkoniyatlaarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko‘zda tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta’minot prinsipi – pedagogik jarayoning ijtimoiy- iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqliligini nazarda tutib, barcha turdagi ta’lim muassalari faoliyatini bu jarayon ishtirokchilari imkoniyatlari davlat va jamiyat talablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish extiyojlarini hisobga olish, ularni uyg‘unlashtirish, integrasiyalashni ko‘zda tutadi [6; 54].

10.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Kasb-hunar ta’limining qanday didaktik tushunchalari mavjud?
2. Mazkur didaktik tushunchalarga izoh bering.
3. Kasb-hunar ta’limida qanday umumdidaktik tamoyillar mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

Kasb-hunar ta’limining asosiy didaktik tushunchalari	**Kasb-hunar ta’limining asosiy didaktik tushunchalari mazmuni**

2-jadval

Kasb-hunar ta’limining didaktik tamoyillari	**Kasb-hunar ta’limining didaktik tamoyillar mazmuni**

11 BOB. KASBIY PEDAGOGIKADA QO‘LLANILADIGAN ILMIY TADQIQOT METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

11.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Uslubiyot, metod, usul, yo‘l

11.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Kasbiy pedagogikada qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari o‘qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas’uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogga o‘zi tanlangan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish. Kasb-hunar ta’limini tashkil qilish shakllari va vositalari bilan talabalarni tanishtirish ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

11.3. Kasbiy pedagogikada qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari.

Metod (yunoncha metodos – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) – ta’lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, o‘rgatish, o‘rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmui [30; 78].

Metodologiya – tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan meyoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig‘indisi [30; 78].

Tadqiqot metodi – 1) bilimlarning ijodiy qo‘llanishini ta’minlash metodi; 2) ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida ularning o‘zlashtirilishiga qaratilgan metod [30; 116].

Kuzatish metodi – 1) obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni; 2) psixologik-pedagogik tadqiqotlardagi asosiy empirik metodlardan biri. Psixologik-pedagogik hodisani maqsadga qaratilgan tizimli o‘rganishda muayyan sharoitlarda ulardagi xususiy o‘zgarishlar va ularning sabablarini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi; 3) voqelikni ta’lim jarayonida idrok qilish imkoniyatini beradigan pedagogik tadqiqot metodi [30; 64].

Suhbat – o‘quvchi, talaba va o‘qituvchi orasida ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan o‘zaro so‘zlashuv, muloqot usuli [30; 115].

Tajriba – pedagogik voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni [30; 116].

«Tajriba vositasida o‘qitish sikli» metodi (D.Kolb g‘oyasi) – reflektiv kuzatish, abstrakt xulosalash (konseptuallash), tajriba vositasida o‘qish sikli, faol tajriba olib borishga tayyorlanish, aniq tajriba o‘tkazish kabi metodlar turkumi [30; 116].

Tahlil – muayyan obyekt, voqea-hodisani har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o‘rganish [30; 128].

Tahlil metodi komponentlari – axborotni anglab idrok etish; ma’lum va noma’lumning muhim belgi va munosabatlar elementlariga ajratish va boshlang‘ich tarkibli birlikni topish; aloqalarni anglash va tushuntirishdan iborat bo‘lgan metod [30; 128].

Empirik metod – tajriba–sinov metodikasiga ma’lum bo‘lgan adabiyotlar, g‘oyalar, tajribalarni o‘rganib chiqish asosida tug‘iladigan farazlar, modellar, bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar loyihasini sinab ko‘rish va amaliyotga tadbiq qilish metodi [30; 148].

Dars berish usullari – ta’lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir, o‘qish usullari esa, ta’lim oluvchining faoliyatini tashkil qilish vositasidir.

Usullar tizimini ta’lim maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qlish uslublari quyidagi belgilari bo‘yicha guruhlarga ajratilgan:

Birinchi guruh - o‘quvchilarning o‘zlashtirish, tushunib yetish, bilimini mustahkamlash bo‘yicha perseptiv (o‘zlashtirish) ish faoliyatini ta’minlaydigan, tayyor holatda o‘quvchilarga bayon qilingan o‘qitish va bilim olish usullari:

- ma’ruza, hikoya, tushuntirish;
- namoyish, illyustratsiya, videousul.

Ikkinchi guruh - o‘quvchilarning bilimini o‘zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo‘yicha reproduktiv faoliyatini ta’minlovchi, mahorat va malakani algoritm (namuna) bo‘yicha o‘quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o‘qitish va bilim olish usullari:

- kitob bilan ishlash;
- laboratoriya usuli;
- mashqlar.

Uchinchi guruh - ta’limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta’lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta’minlovi dars berish va o‘qitish usullari:

To‘rtinchi guruh - o‘quvchilar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar:

- muammoli topshiriqlar usuli;
- individual (amaliy) usul;
- loyihalar usuli. [37; 8-9.]

“Kasbiy pedagogika” fanining tadqiqot metodlari quyidagi 2-rasmda ifodalangan:



2-rasm. “Kasbiy pedagogika” fanining tadqiqot metodlari.

11.4. Kasb-hunar ta’limini tashkil qilish shakllari va vositalari.

Ta’lim tarixida ta’limni tashkil etishga turli shakllardan foydalanilgan. Didaktik g‘oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g‘oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o‘ziga xos tizimlar ko‘rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta’lim turlari o‘quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagi 7-8-jadvallarda ifodalangan:

7-jadval

Pedagogik tizimlarning asosiy turlari

arxaik	Ibtidoiy
qadimgi	Shumer, Misr, Xitoyda Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik
avestit	Baqtiriya, Sug‘diyona, Xorazmda – Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar
yunon	Ellins, rim – yunon, rim – eramizdan avvalgi V-I asrlar
o‘rta asr	dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar
yangi	tushuntirish, tushuntirish – ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli – dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog‘idan foydalanib o‘qitish va shu kabilar
xorijiy	tushuntirish, tushuntirish–ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli – dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog‘idan foydalanib o‘qish va shu kabilar

8-jadval

Ta’lim shakllari

“Avesto”	yoshlarni diniy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash; jismoniy jihatdan tarbiyalash; yoshlarni o‘qish va yozishga o‘rgatish orqali ularning savodxonligini shakllantirish
Suqrotcha suhbat metodi	eng avval o‘qituvchi o‘z o‘quvchisida qiziqish yo‘nalishini va bilishga intilishini o‘yg‘otadigan savollardan foydalanilgan; keyin esa mulohaza yuritish asosida o‘quvchini voqea – hodisalarning mohiyatini idrok etishga undagan. Demak, suqrotcha suhbat metodida qiziqishdan bilishga, bilishdan idrok etishga qarab induktiv metod asosidagi faoliyat dinamikasi shakllantirilgan. Mazkur jarayonda o‘qituvchining mulohazasi ko‘pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to‘ldirib turilgan. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o‘quvchilar ishtirokida tashkil etiladi
Dogmatik o‘qitish	bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo‘lib, u o‘rta asrlarda keng tarqalgan. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada ularning ilk ko‘rinishlari iste’molda bo‘lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o‘rin tutgan. Bu borada *musulmon pedagogik konsepsiyasi* sezilarli darajadagi ma’naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun – mohiyatga ega bo‘lgan. Demak, dogmatik o‘qitishda yoshlarning asosiy faoliyatlarini tinglash, o‘qish, yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma – so‘z takrorlashlar tashkil etgan.
tushuntirish, tushuntirish – namoyish etish kabi ta’lim shakllari	Uning asosiy metodi ko‘rgazmalilik asosida tushuntirishdan iborat bo‘lib, uning asosini tinglash va eslab qolish tashkil etadi. Bu ta’lim turi vaqtni tejash, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning vaqtni tejash, qiyin bilimlarni tushunishini osonlashtirish, ta’lim jarayonini optimal boshqarishni ta’minlaydi. Biroq bu ta’lim turida ayrim kamchiliklar mavjud, ya’ni, “tayyor” bilimlarni berish va ta’lim oluvchilarni bilimlarini o‘zlashtirishida mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensiyallashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o‘qitishda	o‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim tashkil etiladi. Bundagi ta’lim texnologiyasi turli tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki ta’lim oluvchilarni faol ishtirok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Ular ketma – ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi, chunki mazkur jarayonda fikrlash jarayonida qiyinchilik his qilinadi. Muammoli o‘qitishda muammoni ilgari surish *dastlabki bosqich* hisoblanadi. Muammoni hal etishning *keyingi bosqichida* ta’lim oluvchilar berilayotgan savol bo‘yicha mavjud muammoni aniqlaydilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. *Uchinchi bosqich* muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan faoliyat bo‘lib, u ta’lim oluvchida mustaqil fikr shakllanishi orqali aniqlanadi.
Dasturiy ta’lim (Dasturlashtirilgan ta’lim)	harakat (operatsiya) lar ketma – ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi. *Dastur* – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo‘lib, uning yordamida ta’lim oluvchilarga ta’lim – tarbiya berishda o‘quv rejasi va dasturlarini og‘ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi. *Dasturlashtirilgan ta’lim* – o‘quv jarayonini muayyan tartib (dastur) asosida tashkil etishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning yordamida o‘quv jarayonini olib borishning optimal variantlariga erishiladi. U kibernetika, informatika, matematik logika, hisoblash texnikasi asoslari va psixologiya fanlarining samarali tamoyillari va murakkab tizimlaridagi boshqarish vositalarining pedagogikada joriy etilishi natijasi ko‘rinishida XX asrning 50 yillarida paydo bo‘ldi. Dasturlashtirilgan ta’lim o‘quv materialini kichik – kichik qismlarga bo‘lish, ushbu qismlarning biridan ikkinchisiga o‘tish tartibi (qoidalari) ni belgilash, xususan, har bir qismni o‘zlashtirish yuzasidan aniq ko‘rsatmalar, topshiriqlar berish, o‘z – o‘zini nazorat qilishni ta’minlash kabi yo‘llar bilan amalga oshiriladi. U ta’lim oluvchining bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarni oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiriladi.
Kompyuterli ta’lim	Ma’lumki, o‘qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta’lim vujudga keldi. *Kompyuter* – (ing. Computer - hisoblayman) – oldindan berilgan dastur bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta’lim – tarbiya jarayonlarini kompyuterlashtirishda zamonaviy kompyuterlar universal didaktik vositalar (qurilma) bo‘lib hisoblanadi va ularning ta’lim – tarbiya jarayonlarining optimal variantlarini topishdagi roli beqiyos. Shuningdek, kompyuter ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishda yangi dasturiy – texnik universal vositasi bo‘lib, ularning amaliy tafakkurini kengaytirish va chuqurlashtirib, ulardagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni yuqori darajaga ko‘taradi.

Innovatsion ta'lim	bu bo‘lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo‘lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim – tarbiyada yangicha sifat ko‘rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo‘lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo‘naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko‘tarish, shuningdek, ta'lim – tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi.
Masofaviy ta'lim	(lotincha *distantia* - masofa) Bu masofadan turib o‘qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o‘quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Yer sun'iy yo‘ldosh, televideniye, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlar majmuidan iborat.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o‘z ta'sirini o‘tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratilib ko‘rsatiladi: individual; individual – guruhli; sinf – dars; ma'ruza – seminarli; sinfdan tashqari; auditoriyadan tashqari; maktab va maktabdan tashqari.

Darsda bilimlarning o‘zlashtirilishi, malaka va ko‘nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O‘quv materialini o‘rganishning turli vazifalari, yo‘llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko‘p turlari, uning har xil variantlari paydo bo‘ladi. Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O‘tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish darsi;
4. Takroriy – umumlashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.

Ma'ruza. Bugungi kunda zamonaviy o‘quv muassasalari faoliyatida o‘qitish shakllaridan biri bo‘lish ma'ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Ma'ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan faoliyatdir. Ma'ruza

darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lgan ta’lim beruvchining intellektual salohiyati asosida tashkil etiladi. Ta’lim amaliyotida ma’ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda: ma’ruza – hikoya; ma’ruza – suhbat; ma’ruza – munozara; ommaviy ma’ruza.

Ma’ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Shu bois ma’ruza – o‘qituvchi tomonidan ma’ruza mavzusi yuzasidan reja va ma’ruza matni tayyorlanadi. Umumiy qoidaga binoan ma’ruza bir dars davomida oxiriga yetmay qolsa, u yangi mashg‘ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo‘yicha ma’ruza materiallari tushuntirib bo‘lingan, ta’lim oluvchilar bilan savol – javob o‘tkaziladi. Shuningdek, har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etiladi.

Fakultativ mashg‘ulotlar – bu ta’lim oluvchining qiziqish va xohishlariga ko‘ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy – nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim shaklidir. Fakultativ mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga va ijtimoiy faoliyatini faollashtirishga, aqliy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o‘tkaziladi.

Seminar mashg‘ulotlari. Ijtimoiy – gumanitar yo‘nalishidagi predmetlar bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilish keng qo‘llaniladi. Seminar mashg‘ulotlari ta’lim beruvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlash hamda uni dars mashg‘ulotidagi ta’lim oluvchilar bilan muhokama qilish yo‘li bilan olib boriladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin: o‘qituvchi uchun; o‘quvchi uchun; dars o‘tkazish uchun. Quyidagi chizmada ta’lim vositalarini tanlash boyicha ko‘rsatmalar berilgan:

1. *O‘qituvchi uchun vositalar:* o‘quv-metodik qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o‘quv dasturlari, dars rejasi, ma’ruza matni.

2. *O‘quvchi uchun vositalar:* darsliklar, o‘quv qo‘llanma, jadvallar, yo’l-yo’riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar.

3. *Dars o‘tkazish uchun vositalar*: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar.

Quyidagi 3-rasmda ta’lim vositalarining turlari keltirilgan:



3-rasm. Ta’lim vositalari.

Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi va uyg‘unlashuvi kerak. Bundan tashqari ta’lim vositalarining hususyatlariga ko‘ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar. Ta’lim vositalari olti turga bo‘linadi:

- matnli vositalar;
- tasvirli vositalar;
- audiovizual vositalar;
- yordamchi (jihoz) vositalar;

- modelli vositalar;
- haqiqiy vositalar.

Matnli vositalar - ma’lumot olish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi. Ular quyidagilardan biorat:

- o‘quv dasturlari;
- mutaxassislik adabiyot (darslik);
- ma’ruza matnlari;
- tarqatma materiallar;
- imtihon va nazorat varaqalari.

Tasvirli vositalar - umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun foydalaniladi va quyidagilardan iborat:

- fotosuratlar;
- eskiz, chizma, sxemalar;
- ramziy tasvirlar, reja jadvallar, simvollar;
- diagramma va grafiklar.

Audivizual vositalar - jarayonlar va ishlash mexanizmlari to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali tasavvurlarni vujudga keltirish uchun kerak bo‘ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- videofilmlar;
- kompakt disklar;
- audiokassetalar;
- audiomagnitafon, videomagnitafon;
- videokamera;
- televizor.

Yordamchi vositalar - tasvir va matnni yozish va saqlash uchun foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- doskalar (oq doska, magnit doskasi);
- «Pinbord» doskasi;

- videoproektorlar, videoproektor ekrani;
- kodoskop;
- kompyuter;
- flipchartlar.

Modelli vositalar - o‘rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun kerak bo‘ladi va quyidagilardan iborat:

- modellar;
- maketlar;
- trenajerlar.

Haqiqiy vositalar - o‘rganilayotgan obyektlar haqida real tasavvurni vujudga keltirish uchun ishlatiladi va quyidagilardan iborat:

- asbob-uskunalar;
- stanoklar;
- yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar;
- xom-ashyolar.

11.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Uslub va uslubiyot tushunchalariga izoh bering.

2. Kasb ta’lim metodikasi faning tadqiqot metodlari va ularga izoh bering.

4. Ta’lim jaryonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati qanday?

5. Kasb ta’limi metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yuzasidan “Klaster“texnologiyasini ishlab chiqing.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

O‘rta maxsus, kasb-hunr	Kasb-hunar kolleji	Akademik litsey

ta'limiga qo'yiladigan talablar		

2-jadval

"Kasbiy pedagogika" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi	**"Kasbiy pedagogika" fanining metodlari**

2. "Blits-so'rov" texnologiyasini bajaring:

Guruh bahosi	**Guruh xatosi**	**To'g'ri javob**	**Yakka xato**	**Yakka baho**	**Tushunchalar**	**Tushunchalarga izoh**
					Metod	tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan meyoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig'indisi
					Usullar	1) nazariya, ta'limot, fan va hokazolarning asosiy poydevori, qonun-qoidasi; 2) muayyan shaxs qattiq ushlab olgan qoida, maslak, nuqtai-nazar, qarash; 3) mayl, moyillik, tendensiY.
					Metodologiya	muayyan o'qitish metodi yoki usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari
					Tamoyil	(yunoncha metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui
					Ta'lim vositasi	axborotning uzatish va qabul qilishning so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy turlarini qamrab olgan usullar majmui

12 BOB. KASB-HUNAR TA'LIMINI TASHKIL QILISHDA O'QITUVCHINING ASOSIY VAZIFALARI

12.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Intergratsiya, mehnat uslublari, metodik vositalar, maqsad, vazifa, kasb, ta'lim, uslubiyot, fan, metod, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot

12.2. Mavzuning qisqacha ta'rifi. O'qituvchining lavozim vazifalari. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari. O'qituvchining metodik ishlari.

12.3. O'qituvchining lavozim vazifalari.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha yo'riqnomada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 30 iyuldagi PQ-929-sonli «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish va ular mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2008 y., 31-32-son, 296-modda) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagi 165-sonli «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2008 y., 31-32-son, 303-modda) asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini qo'llash tartibini belgilaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagog xodimning lavozimi bo'yicha majburiyatlari ro'yxatini;

- tegishli lavozimni egallab turgan (egallashga nomzod) xodimning bilim ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablarni;

- tegishli lavozimni egallash uchun zarur bo‘lgan ish staji va ta’lim darajasiga qo‘yiladigan talablarni.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarida ko‘rsatilgan har bir lavozim bo‘yicha ish mazmuni, hajmi va bajarish tartibi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi tomonidan Davlat ta’lim standartlariga, ish ko‘rsatmalariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda belgilanadi.

3. U yoki bu lavozim (lavozimlar guruhi) yoki malaka toifasi uchun bir qancha tarif stavkalari belgilangan bo‘lsa, nisbatan yuqori bazaviy tarif stavkasiga ega bo‘lgan xodim nisbatan kichikroq lavozim yoki malaka toifasidagi xodimlar uchun nazarda tutilgan bilimlar, tajribalar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

4. Xodimga lavozim (malaka toifasi) belgilash, berish o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalarini berish tartibi asosida amalga oshiriladi.

5. O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari xodimlarini lavozim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka toifasining hisobi, shuningdek ish to‘g‘risidagi barcha hujjatlardagi yozuvlar ushbu malaka tavsiflaridagi lavozimlar va malaka toifalari nomlari bilan qat’iy mos bo‘lishi kerak [14].

Mazkur yo‘riqnomada bosh, yetakchi, katta o‘qituvchi, oliy va o‘rta-maxsus ma’lumotli o‘qituvchilarining lavozim vazifalari berilgan.

Bosh o‘qituvchining lavozim vazifalarini quyidagi 8-jadvalda ifodalangan:

[14] O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo‘yicha yo‘riqnoma.

9-jadval

O‘qituv chining lavo-zimla-ri	Lavozim vazifalari						
	O‘quv ishlari	**O‘quv uslubiy va ilmiy ishlar**	**Tashkiliy-uslubiy ishlar**	**Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar**	**Boshqa majburiyat-lar**	**Bilishi lozim**	**Malaka talablari**
Bosh o‘qituv-chi	a) o‘zining fani bo‘yicha davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalariga muvofiq o‘quvchilarning o‘qiyotgan kursi va bilim darajasiga mos ravishda nazariy va amaliy o‘quv darslarini tayyorlash va o‘tkazilishini ta’minlaydi; b) maslahatlar o‘tkazadi, o‘quvchilarning olingan bilimlarini mustaqil amaliyotga qo‘llashga tayyorligini amalga oshiradi; v) Davlat ta’lim standartlariga mos ravishda o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishini xolis baholashni ta’minlash	a) mashg‘ulotlar rejalarini ishlab chiqadi, amaliy, tajriba mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti, diplom loyihalari, didaktik, ko‘rgazmali va tarqatma materiallar, metodik ko‘rsatmalar tayyorlaydi; b) amaliy mashg‘ulotlarga o‘quvchilarning mustaqil, individual va o‘quv tadqiqot ishlari, shuningdek ularning bilimini	a) kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini o‘tkazishni boshqaradi, amalga oshiradi; b) mahalla faollari bilan 9-sinf bitiruvchilarini navbatdagi ta’lim bosqichiga qamrab olish masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi; g) ochiq darslar (mashg‘ulotlar) o‘tkazadi va boshqa o‘qituvchilarning ochiq darslari (mashg‘ulotlari)ni kuzatadi,	a) guruhga rahbarlik qiladi, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshiradi; b) o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ish olib boradi, ularni shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi; v) o‘quvchilarning tarbiyaviy masalalari bo‘yicha ota-onalar, psixolog va boshqa o‘qituvchilar bilan individual uchrashuvlar o‘tkazadi; g) o‘quvchilarning muzeylar,	a) o‘quv va laboratoriya kabineti mudirligini amalga oshiradi (zarur bo‘lganda); b) mehnat va ishlab chiqarish intizomiga, hamkasblari va o‘quvchilar bilan pedagogik axloq meyorlariga va qonunlarga mos talablarga, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qiladi, o‘quv jihozlaridan foydalanishda sanitariya va gigiyena	a) O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazining ta’lim tizimi, Davlat ta’lim standartlarini mukammallashtirish to‘g‘risidagi hujjatlari; b) o‘rgatilayotgan o‘quv fani, uning mazmuni va amaliy qo‘llashning ilmiy-nazariy	a) pedagogik yoki muhandis-pedagogik yoki o‘rgatayotgan o‘quv fani yo‘nalishiga mos oliy ma’lumot va yetakchi o‘qituvchi lavozimida 3 yillik amaliy ish staji. Bosh o‘qituvchi lavozimiga da’vogarda ilmiy daraja yoki ilmiy unvon bo‘lganda yetakchi o‘qituvchilik staji talab qilinmaydi b) bosh o‘qituvchi lavozimini egallashda quyidagi

	uchun reyting nazoratini amalga oshiradi. Shu maqsadda joriy oraliq va yakuniy testlarni (nazorat so‘rovini) amalga oshiradi, imtihonlar, o‘quvchilarning yozma ishlarini va daftarlarini tekshiruvini o‘tkazadi, reyting ballarini hisoblaydi; g) davomat hisobini yuritadi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi ustavining talablariga amal qilinishini ta’minlaydi; d) o‘zlashtirishida bo‘shliqlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan guruhiy va alohida ish olib boradi, dastur materiallari, davlat ta’lim standartlari talablariga mos ravishda maksimal o‘zlashtirishni	nazorat qilish uchun topshiriqlar va masalalar ishlab chiqadi; v) o‘qituvchilar kengashi, ilmiy kengash, uslubiy kengash ishida, seminarlar ilmiy anjumanlar, treninglar, yig‘ilishlar, majlislarda, hisobotlar tuzishda qatnashadi; d) o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasining yetakchi, katta va boshqa o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilgan o‘quv va metodik ishlar sifatini nazorat qiladi va baholaydi;	ochiq darslar (mashg‘ulotlar)ni baholaydi; d) fan to‘garaklari va seksiyalarini boshqaradi; ye) tasdiqlangan o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlari doirasida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar mazmunining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlaydi; j) o‘quv muassasasidagi maslahat markazining ishida qatnashadi; z) o‘quvchilar o‘rtasida ijodiy tanlovlar o‘tkazilishini tashkillashtiradi; i) o‘quv	ko‘rgazmalarga tashrifi, ijodiy kechalar, mehnat faxriylari va jamoat arboblari bilan uchrashuvlarini tashkillashtiradi.	qoidalariga rioya qiladi; v) o‘z kasbiy darajasini doimiy oshirib boradi; g) o‘quv muassasasida bo‘lgan vaqtda va darsdan tashqari tadbirlar o‘tkazishda unga ishonib topshirilgan o‘quvchilar kontingentining hayoti va sog‘lig‘ini himoyalashga hamkorlik qiladi.	asoslarini; v) o‘smirlarni o‘qitish va tarbiyalashning ilg‘or shakllari va intensiv usullarini, ta’lim berayotgan fani bo‘yicha darslar olib borishning tartibi va uslubiyotini, didaktik tamoyillarini; g) o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish, test olishning zamonaviy va samarali usullari va baholash mezonlarini, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi va faolligini baholashning reyting tizimini; d) pedagogik va kasbiy muloqot	ko‘rsatkichlar hisobga olinadi: **malaka** quyidagicha aniqlanadi: pedagogika fani va amaliyotining, profilli bilim sohasining eng yangi yutuqlarini o‘zlashtirish darajasi; amaliy masalalarni ijodiy hal qilish. **kasbiy yetuklik (professionalizm)** quyidagicha aniqlanadi: ta’lim-tarbiyaning usul, vosita, shakllarini optimal tanlash yoki tarqatishga tavsiya etilishi mumkin bo‘lgan pedagogik texnologiya yoki uning

	ta’minlaydi.	ye) tegishli fanlar bo‘yicha seminarlar, konferensiyalar o‘tkazishni boshqaradi va tashkillashtiradi; j) o‘quvchilarda barqaror kasbiy bilimlar shakllanishini ta’minlaydi; z) o‘quvchilarni fan olimpiadalari, turli konkurslar, konferensiyalar va festivallarga tayyorlaydi; i) o‘quv jarayoniga progressiv axborot va kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqadi; k) darsliklar va o‘quv	kabinetlari, siklik komissiyalarga mudirlik qiladi; k) binolar, xonalar, laboratoriyalarda unga biriktirilgan o‘quv jihozlari va o‘qitishning texnik vositalari, mulk va boshqa moddiy boyliklardan samarali foydalanishni va ularning saqlanishini ta’minlaydi; l) o‘quvchilar foydalanadigan axborot materiallari, o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlanganlik va saqlanganligini nazorat qiladi;			nazariyasi va amaliyoti, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini; ye) o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta’limning texnik vositalarini amaliy qo‘llashni; j) kadrlar tayyorlash sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni; z) ma’naviy-ma’rifiy ishlarning dolzarb vazifalari va yoshlar bilan tarbiyaviy ishlar olib borilishining usullarini, muloqotda, suhbatlarda, mashg‘ulotlarda nutq madaniyati va axloqning	elementlarini mustaqil ishlab chiqish, tajribadan o‘tkazish va samarali qo‘llash ko‘nikmasi; o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish; amaliy faoliyatda ta’limning tadqiqot va tajriba-eksperimental usullari, pedagogik jarayonni boshqarish va istiqbolini belgilash usullari, o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkillashtirish va rejalashtirish usullarini qo‘llashi;

		qo‘llanmalar, darsliklarning elektron versiyalari, uslubiy qo‘llanmalar yaratadi, ilmiy maqolalar nashr ettiradi; l) kasbiy ta’lim va fanlarning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy, o‘quv tadqiqot ishlarini tashkil etadi va o‘tkazadi, ilmiy ishlar natijalari bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlaydi; m) o‘quvchilar amalga oshiradigan ilmiy va innovatsion ishlarning o‘tkazilishini boshqaradi.				dolzarb masalalarini; i) mehnatni ilmiy tashkil etishni va huquq asoslarini; k) mehnat gigiyenasi va muhofazasi, texnika xavfsizligi qoidalarini, o‘quv kabinetlari, auditoriyalar va boshqa xonalarni jihozlash talablarini; l) maxsus fanlar o‘qituvchilari, shuningdek, mutaxassislikka mos ishlab chiqarish texnologiyasini, iqtisodiyot asoslari va ishlab chiqarishni boshqarishni bilishi kerak	salohiyati pedagog xodimning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar ta’lim tizimida o‘quvchi tayyorgarligining o‘z yo‘nalishi bo‘yicha yuqori hisoblangan darajasini ta’minlashi bilan belgilanadi.

12.4. O‘qituvchining ta’limni rejalashtirish bo‘yicha vazifalar.

O‘qitish risoladagidek bo‘lishi uchun talaba va pedagoglar auditoriya va uydagi ishlar vaqtning o‘zlari uchun gigiyenik va fiziologik jihatdan belgilangan normalariga ega bo‘lishi kerak. Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo‘llari o‘qitishning vazifalarini, ya’ni ta’lim berish va tarbiyalash jarayonini loyihalashda majmu yondashish tamoyilini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- o‘qitish mazmunining qo‘yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta’minlaydigan o‘ziga xos variantni tanlash;

- o‘qitishni qo‘yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta’minlaydigan usullari va uslublarini tanlash;

- masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o‘quvchilarga tabaqali yondashishni ta’minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash [10; 81-82].

12.5. O‘qituvchining nazorat va baholash bo‘yicha vazifalari.

Ma’lumki, ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o‘ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Ta’lim beruvchi nazorat va hisobga olishni to‘g‘ri tashkil etsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida aloqani ta’minlash, ta’lim beruvchi tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdir. Shuningdek, tekshirishning maqsadi nafaqat ta’lim oluvchining bilim darajasi va sifati, balki uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Ta’lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko‘rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi:

- ta’lim oluvchilarning bilim darajasini *oldindan aniqlash*;
- mavzuni o‘zlashtirishni *joriy tekshirish;*
- bilim, ko‘nikma va malakalarni egallanganligining *takroriy tekshirish;*
- yaxlit bo‘lib yoki kursning alohida mavzusi bo‘yicha *davriy tekshirish;*
- ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini *yakuniy tekshirish va hisobga olish.*

Ma’lumki, ta’lim jarayonidagi natijalarni hisobga olish, tekshirish va bilimni nazorat qilish (monitoringga e’tibor berish) hamda baholash pedagogik faoliyatda muhim bosqichlardir. Jumladan, mazkur faoliyatda ta’lim oluvchining bilimini haqiqiy va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma’lum qilib borish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularda o‘tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o‘z bilimini doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish demakdir. Shu bilan birga ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishdagi faoliyat olib borishni yuzaga keltiradi, ya’ni o‘qitishning o‘zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bu ta’lim beruvchi faoliyati va ta’lim oluvchining mehnatga ongli munosabatini uzluksiz jarayon sifatida doimiy bo‘lib turishini ta’minlaydi.

Bunda professor – o‘qituvchilarning ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishi, baholashga doir meyor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi mas’uliyatli yondashishi va tinimsiz mehnati yotadi [49].

12.6. O‘qituvchining metodik ishlari.

Ta’lim beruvchining o‘qitishni bilishi quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayoni muhiti va uni ta’minlash;
- psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
- chet tillarini bilish;
- bilimi chuqurligi, bilimdonlik, zakovati, kasbiy malaka;
- yangi pedagogik texnologiyalarni bilish;
- ilmiy-metodik ishlar;
- ilmiy-tadqiqot ishlar;
- o‘z ishni takomillashtirib borishga intilish;
- meyoriy hujjatdlarni bilish;
- kompyuter texnologiyalarini bilish.

Ta’lim beruvchining zamonaviy metodik salohiyati tavsifi:

- u faqat boshqalarni o‘qitish bilan cheklanmasdan, o‘zini ta’limi bilan ham shug‘ullanadi;

- uning ishi faqatgina o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan ma’lumotni ta’lim oluvchilarga yetkazib berish bilan cheklanmaydi. Turli usullarni qo‘llab, ularni o‘quv jarayonida faol qatnashishga undaydi. Buning uchun u o‘zining xatti-harakatining an’anaviy modelini o‘zgartirishi, o‘zi ko‘proq interfaol bo‘lishi kerak;

- ta’lim beruvchi informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi kerak, chunki hamma yangi o‘quv metodlari, shakllar ular bilan bog‘liqdir;

- o‘quv jarayonini tashkil etish ba’zi bir muomala ko‘nikmalarini, kommunikabellikni, o‘zgaruvchanlikni, mustaqil qarorlarni qabul qilishni, o‘z faoliyatini natijalarini tanqidiy baholashni talab qiladi;

- internet, masofaviy ta’lim rivojlanishi va ularda foydalanuvchilarni soni ko‘payishi bilan maxsus, ushbu foydalanuvchilarni o‘qita oladigan mutaxassis-ta’lim beruvchilar kerak bo‘ladi [32; 47].

12.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. O‘qituvchining qanday lavozim vazifalari bor?
2. O‘qituvchining ta’limni rejalashtirish bo‘yicha qanday vazifalarni bajaradi?
3. O‘qituvchining qanday metodik ishlari mavjud?
4. O‘qituvchining ta’limni rejalashtirish bo‘yicha qanday vazifalari mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi “Toifalash jadvali”ni to‘ldiring:

1-jadval

Lavozimlar	**O‘quv ishlari**	**O‘quv uslubiy va ilmiy ishlar**	**Tashkiliy-uslubiy ishlar**	**Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar**
Yetakchi o‘qituvchi				
Katta o‘qituvchi				
Oliy ma’lumotli o‘qituvchi				
O‘rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchi				

13 BOB. KASBIY FAOLIYAT VA UNING OBYEKTLARI

13.1. Tayanch tushuncha va iboralar.

Konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ, pedagogik qobiliyat, kasbiy mahorat, insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik texnika

13.2. Mavzuning qisqacha mazmuni.

O‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ. O‘qituvchining pedagogik qobiliyati. O‘qish va o‘qitish bo‘yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo‘naltirilgan pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik muloqot qobiliyatlari va faoliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi, materialni ipidan ignasigacha bilishi, unga nihoyatda qiziqishi, oddiy tadqiqot ishlarini oliyub borishi to‘g‘risida tushunchalar xosil qilish.

Kasbiy mahorat haqidagi ta’riflar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o‘rganish. Tarbiyalanuvchilarga murojaat qilishning to‘g‘ri stili va tovush ohangini tanlab ola bilishi, o‘quvchilar hatti-harakatlariga o‘zining munosabatini ko‘rsata olishi, sezgi tempi (yuksakligi), boshqarish ko‘nikmalarini boshqarishni bilish.

13.3. O‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari.

O‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. O‘qituvchi pedagogik

faoliyatining tarkibiy qismlari konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativdan iborat. Quyidagi 10-jadvalda ifodalangan:

10-jadval

O‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari

Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari	O‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari mazmuni
O‘qituvchi uchun zarur bilimlar (gnostik)	Pedagogika va psixologiya fanining metodologik asoslarini egallash
	O‘quvchi rivojlanishining psixologik, fiziologik xususiyatlarini bilish
	Dars o‘tishning pedagogik-psixologik yo‘llarini bilish
	Tarbiyaning mohiyati, uning maqsad, vazifalari va metodlarini bilish
	Turli guruh o‘quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar olib borish metodikasini bilish
	Fan va madaniyat sohasida umumiy bilimlarni egallab borish
Konstruktiv	Tarbiyaviy ishlarni rejalashtira bilish
	O‘quv shaxsini jamoa sharoitida tarbiyalanishning individual rejasini amalga oshira bilish
	Har xil rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish
Tashkiliy	O‘quvchilarning jamoachilik faoliyatini uyushtira bilish, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish
	Kuratorlik ishlarini faol amalga oshira bilish
	O‘quvchilarga berilgan jamoa topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va amaliy yordam bera olish
	Jamoatchilik va ota-onalar o‘rtasidagi ishlarni tashkil eta bilish
Kommunikativ	O‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoatchilik vakillari bilan munosabat va aloqalar o‘rnata bilish
	O‘quvchilar fikrini tushunish va o‘z fikrini nutq, til vositalari orqali tushuntira bilish
	O‘quvchilar jamoasini, qiziqishlarini, ichki munosabatlarini idora qila bilish
	O‘quvchilar bilan yaqin munosabatda bo‘lish va ularda o‘ziga nisbatan mehr-ishonch, hurmat kabi xislatlarni uyg‘ota bilish

13.4. O‘qituvchining pedagogik qobiliyati.

Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod, layoqat va zehn, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat ham bo‘lishi zarur.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi 11-jadvalda ifodalangan turlari mavjud bo‘lmog‘i lozim:

11-jadval

O‘qituvchining pedagogik qobiliyati

Pedagogik qobiliyatlar	Pedagogik qobiliyatlarning mazmuni
Bilish qobiliyati	bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha kenga va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi
Tushuntira olish qobiliyati	o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda to‘g‘ri fikrlashga qiziqish uyg‘otish qobiliyati. O‘qituvchi zarur hollarda o‘quv materialini o‘zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi lozim
Kuzatuvchanlik qobiliyati	o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlik
Nutq qobiliyati	nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati
Tashkilotchilik qobiliyati	birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish, ikkinchidan, o‘z ishini uyushtirishni nazarda tutadi
Obro‘ orttira olish qobiliyati	o‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asnoda obro‘ qozona olishdir
To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati	bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi
Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati	o‘z harakatlarining oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi
Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati	o‘qituvchi uchun diqqtning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko‘chuvchvnligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

13.5. Pedagogik mahorat komponentlari.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo‘lish,

ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta’minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. *Mustaqil o‘qib-o‘rganish* (pedagogika fanida ro‘y berayotgan yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. *Hamkasb tajribali o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish* (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. *Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs* (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.

4. *Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar* (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. *Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida* ularning ish tajribalarini o‘rganish (stajirovka).

Ayni vaqtda, respublikada, «Ustoz» jamg‘armasining homiyligida ta’lim muassasalarining o‘qituvchilar rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo‘lib, ularning ta’lim tizimi va ish tajribalarni o‘rganmoqdalar.

Pedagogik mahoratni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o‘zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada

boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo‘llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda o‘qituvchining jamoadagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

13.6. Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.

Bizning nazarimizda, *zamonaviy o‘qituvchi-bakalavr qiyofasida* quyidagi fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak (so‘z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o‘qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarini ifodalaydi):

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.
2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.
3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.
4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.
5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o‘zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarni noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish) so‘zlardan holi bo‘lishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish).

9. O‘qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o‘zlashtirishga erishishi lozim.

10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

13.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlar:

1. O‘qituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
2. Konstruktiv malakalar deganda nimani tushunasiz?
3. Tashkiliy, gnostik, kommunikativ malakalarning bir-biridan qarqi jihatlari mavjudmi?
4. O‘qituvchining qanday pedagogik qobiliyatlari mavjud?
5. O‘qish va o‘qitish bo‘yicha qobiliyatlar deganda nimni tushunasiz?
6. Tarbiya jarayoniga yo‘naltirilgan pedagogik qobiliyatlar-chi?
7. Pedagogik muloqot qobiliyatlari qanday qobiliyatlar?
8. Kasbiy mahorat nima?
9. Pedagogik mahorat komponentlariga nimlar kiradi?

Mustaqil ish topshiriqlar:

1. O‘qituvchi mavzusini “Kungaboqar” metodidan foydalanib, yoriting.
2. Zamonaviy o‘qituvchi qiyofasini Nima uchun? sxemasida ifodalang:

Mavzu: Zamonaviy o‘qituvchi



14 BOB. KASB TA'LIMI DUAL TIZIMI

14.1. Tayanch tushuncha va iboralar.

Ishlab chiqarish, kasb ta'limi, moslashuvchanlik, "Dual tizim"

14.2. Mavzuning qisqacha mazmuni.

Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari turlari. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi.

Jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ijobiy tomonlarini hisobga olib hayotga tadbiq qilish bizning ochiq siyosatimizdir. Bu borada hamkorlikning o'rni muhim. Kadrlar tayyorlashda eng avvalo so'nggi paytlarda bizning hayotimizga kirib kelayotgan mehnat bozori talablari tushunchasini hisobga olish muhim o'ringa ega. Germaniya Federativ Respublikasida aksariyat yoshlar deyarli tengqurlarning to'rtdan uch qismi ishlab chiqarish kasb-hunar ta'limini o'taydilar. Ular o'zlari tanlagan kasb-hunarlarini korxona sharoitiga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda «dual tizim» asosida egallaydilar. Shuning uchun ular tajribasini o'rganish kasb – hunar ta'limi tizimida o'z samarasini beradi.

14.3. Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Shuningdek, kadrlar tayyorlash o'quv jarayonida ikki yoqlama (dual) tizim asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarga beriladigan ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasasining zamonaviy jihozlangan ustaxonalarida va korxonalarda ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Shu bilan birga bir qatorda umumiy bilimlar asoslarini berish, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni har tomonlama rivojlantirish

va zamon talablariga javob berruvchi mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun berilayotgan ta’lim milliy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil davlatimizga sodiqlik va iftixor tuyg‘ulari ruhidagi tarbiya bilan mushtaraklikda amalga oshiriladi” [3; 157-158].

Milliy modelda ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimining teng huquqli komponentlaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Chunki ishlab chiqarish bilan kadrlar tayyorlash tizimi o‘rtasida bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qayta aloqalar mavjud.

Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste’molchi funksiyalarni bajarib, tegishli sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini faol ishtirok etadi.

Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida tengqur sherik sifatida ishtirok etadi va o‘ziga xos bo‘lgan aniq vazifalarni bajarishga qaratiladi. YA’ni, kadrlar tayyorlashga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantirishda alohida o‘ringa ega.

Kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlashda bevosita ishtirok etib o‘z fikr-muloazalari, malakaviy talablari bilan ta’lim tizimini shakllantirishda faol ishtirok etadi, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning majmua tarzidagi integratsiyasi uchun tegishli sharoitlar yaratadi.

Kadrlarning o‘qishi, malakasini oshirish va qayta tayyorlash ehtiyojlari uchun o‘zining ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliyaviy, kadrlar va boshqa resurslarini taqdim etadi.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o‘quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag‘batlantiradi, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi [Barkamol avlod orzusi; 173-174].

14.4. «Dual tizim»nig mohiyati.

Germaniyada kasb-hunar ta’limi dual tizimga asosan tashkil etilgan. “Dual” tushunchasi ikkilik degan ma’noni bildiradi va uning asosiy elementidan biri korxona bo‘lsa, ikkinchisi kasb-hunar maktabi hisoblanadi. Korxona va kasb-hunar maktabi hamkorlikda kasb-hunar ta’limi jarayonini ta’minlaydi. Korxona va kasb-hunar maktabi o‘rnashgan joyi va ishlash vaqti turli xil bo‘lsada, bir-biri bilan hamkorlik qiladi.

Dual tizim, hatto o‘zini oqlagan bo‘lsa ham, uni kamdan kam mamlakatlarda uchratish mumkin. U kasb-hunar ta’limining bir necha o‘qitish joylari (kasb-hunar maktabi va kasb-hunar ta’limi beruvchi korxonalar)ga bo‘linganligi bilan xarakterlanadi va ba’zida korxonalararo o‘quv markaziga yuboriladi. Kasb-hunar maktabi maxsus nazariy va umumiy ta’limni beradi. Ular aniq biror bir kasbga bog‘liq fanlarni, umumiy kasbiy fanlarni yoki siyosiy va umumta’lim fanlarni o‘qitadi. Ta’lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashi(KMK)da tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejaga asoslangan holda har bir kasb-hunar maktabi o‘zining o‘quv rejasini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish korxonasida, ya’ni ish joyidagi ta’lim amaliy kasb-hunar ta’limini beradi. «Kasb-hunar ta’limi to‘g‘risidagi Nizom»da belgilab berilgandek, korxona o‘z vaqtini rejalashtirishni, o‘qitish joyini va o‘qitish metodini erkin tanlaydi. Korxonalararo va korxona ichidagi o‘quv markazda qisman ta’lim kurslari o‘tkaziladi.

Odatda korxona va kasb-hunar maktabining vazifalari quyidagicha taqsimlangan: korxona amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishga, kasb-hunar maktabi esa nazariy bilimlarni berishga mas’ul. Real hayotda korxona nazariy mashg‘ulotlarni ham o‘tkazadi, kasb-hunar maktabida esa nazariy mashg‘ulotlarga qo‘shimcha ravishda amaliy mashg‘ulotlar ham o‘tkaziladi. Bundan kelib chiqish aytish mumkinki, dual tizimida bir-birini takrorlash o‘rniga, bir-birini to‘ldirib borish juda muhimdir.

Korxona va kasb-hunar maktabi o‘rtasidagi hamkorlikdan bir misol keltirsak. Korxonaning ustaxonasida o‘quvchi «Ford» va «Folksvagen» avtomobil modellari asosiy qismlarining tuzilishi va vazifasini o‘rganadi. Kasb-hunar maktabida o‘quvchi avtomobilning ehtiyot qismlarini almashtirish bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘rganadi va bo‘lajak mehnat faoliyatida boshqa firma avtomobillari modellarining ehtiyot qismlarini ham almashtira olishi kerak.

O‘quvchi nazariy mashg‘ulotlarda nimani o‘rgansa, shuni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llay olishi lozim. O‘quvchi avtomobil asosiy qismlarini ko‘rishi yetarli emas, balki uni o‘rnata olishni ham bilishi kerak. Bundan tashqari o‘quvchi o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini shunga o‘xshash vazifa va mashqlarda ham qo‘llay olishi lozim.

Dual tizimi asosan quyidagi joylarda:

- korxonada;
- davlat tashkilotlarida, shuningdek davlat boshqarmalarida va idoralarida;
- erkin kasblar bo‘yicha muassasalarda (misol uchun: shifoxonalarda, advokatlar idorasida, arxitektura bo‘limlarida);
- ta’lim muassasalarida va maxsus maktablarda, shuningdek, ishlab chiqarish ta’lim ustalarini tayyorlash maktablarida, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarida o‘tkaziladi.

Germaniyada kasb-hunar ta’lim tizimi asosan o‘quvchilarning korxonadagi kasbiy faoliyati bilan boshlanadi. Germaniyada davlat tomonidan tan olingan 350 ta kasblar bo‘yicha korxonalarda o‘quvchilarga kasb-hunar ta’limi beriladi.

Germaniyada odatda ko‘pchilik yoshlar maktabni bitirgandan so‘ng, kasb-hunar ta’limi oladi.

Kasb-hunar ta’limining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘quvchi tanlagan kasbining asoslarini o‘rganishi;

- o‘quvchi kasbiy faoliyatiga zarur bo‘lgan muayyan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi;
- o‘quvchi o‘z kasbiy faoliyatda ishlash layoqatiga ega bo‘lishi;
- o‘quvchi ta’lim olish davomida ish tajribalarini to‘plashi.

Kasb-hunar ta’limi yakunida o‘quvchi mas’ul organlar (odatda savdo va sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi) tomonidan imtihon qilinadi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o‘quvchilar kasb-hunar ta’limini bitirganlik haqida guvohnoma oladi. Guvohnoma o‘quvchiga egallagan kasbiy bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha ish joyi topib, ishlash imkoniyatini beradi. Korxonalar o‘quvchiga berilgan guvohnomadan uning kerakli bilim va ko‘nikmalarni egallaganini bilib olishi mumkin.

«Yaxshi kasb-hunar ta’limi, bu - kelajakka investitsiya» shiorida Germaniyada ta’lim siyosati, korxonalar va kasaba uyushmalari birlashgan.

Germaniyada kasb-hunar ta’limining dual tizimi murakkab va keng ko‘lamdagi tizim hisoblanadi. Dual tizimini rejalashtirish, amalga oshirish va yanada rivojlantirish uchun umumiy javobgarlik hamma darajalardagi barcha ishtirokchilarning (ish beruvchi, ishchi, davlat) qiziqishlari va javobgarliklaridan kelib chiqadi. Barcha darajalar (federal mamlakat, yerlar, hududlar, o‘quv yurti)dagi hamkorlik qonuniylashtirilgan va o‘zini oqlagan.

Federal mamlakat darajasida Ta’lim va tadqiqot ishlari federal vazirligi asosiy va muvofiqlashtiruvchi vazirlik hisoblanadi. Boshqa federal vazirliklar (tarmoq vazirliklar) ta’lim va tadqiqot ishlari federal vazirligi bilan kelishilgan holda bo‘yruq va farmoyishlar chiqaradi. Kasb-hunar ta’limi federal institutining bosh qo‘mitasida ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, federal yerlar va federal hukumat vakillari tenghuquqli asosida birgalikda qatnashadi.

Federal yerlar vazirlari yig‘ilishlarda ta’lim, fan va madaniyatdagi butun yerlarni qamrab oluvchi umumiylikni ta’minlaydi. Korxonalarda kasb-hunar ta’limi federal

hukumat tomonidan tartibga solinadi. Maktablardagi kasb-hunar ta’limi yerlarning javobgarligiga kiradi.

Yerlar darajasida birinchi navbatda yerlar hukumatlari (ta’lim, din va madaniyat ishlari vazirliklari vakillik qiladi) umumiy va kasb-hunar ta’limi maktablariga mas’ul hisoblanadi. Kasb-hunar ta’limi bo‘yicha yerlar qo‘mitalarida ish beruvchilar, ishchilar va har bir yer hukumatidan vakillar qatnashadi. Yerlarning qo‘mitalari yerlar hukumatlariga kasb-hunar ta’limi masalalari bo‘yicha maslahat beradi. Ayniqsa ular kasb-hunar maktablar va korxonalar o‘rtasida kasb-hunar ta’limi bo‘yicha hamkorlik hamda ta’lim tizimi rivojlanishda kasb-hunar ta’limini nazarda tutish bo‘yicha faoliyatini yo‘naltirishi lozim.

Hududlar darajasida iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari, birinchi o‘rinda savdo-sotiq va sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi va b. mavjud. Ular tegishli hududlardagi kasb-hunar ta’limi beruvchi korxonalarga maslahatlar beradi va ularni nazorat qiladi (kasb-hunar ta’lim beruvchi korxonalar va ishlab chiqarish ta’lim ustasiga yaroqligini aniqlaydi). Ular ta’lim shartnomalarini qayd qilib boradi. Kasb-hunar ta’limida ishchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha oraliq va yakuniy imtihon komissiyalarni tuzadi. Kasb-hunar ta’lim beruvchi korxonalarga hududiy mas’ul organlarni nazorat qiluvchi mas’ul boshqarmalar odatda yerlarning iqtisodiyot vazirliklari hisoblanadi.

O‘quv yurtlari darajasida kasb-hunar ta’limi beruvchilar korxonalarda tanlab olingan ishchilar vakillari (ishlab chiqarish kengashi) korxonadagi ishchilar vakillari organi to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra kasb-hunar ta’limini rejalashtirish va amalga oshirish hamda ishlab chiqarish ta’lim ustalarini ishga qabul qilish bo‘yicha qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi.

Dual tizimida kasb-hunar ta’limi beruvchi korxonalarning hamkorlari kasb-hunar maktablari hisoblanadi. Kasb-hunar maktabda o‘quvchilar tanlagan kasbi bo‘yicha zarur nazariy bilimlarni oladi. Bundan tashqari kasb-hunar maktabi amaliy mashg‘ulotlarni to‘ldirib boradi. Misol uchun: maktabning o‘quv ustaxonasida

avtomobilning tuzilishini ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari, kasb-hunar maktabi nemis tili, siyosatshunoslik, dinshunoslik va jismoniy madaniyat kabi umumta’lim fanlarni o‘qitadi. Ko‘pgina kasblarni egallash uchun ingliz tili ham o‘qitiladi.

Kasb-hunar maktabi to‘liqsiz o‘quv xaftalik majburiy davlat o‘quv muassasasi hisoblanadi. Kasb-hunar maktabiga borish federal yerlarda turli-xil tartibga solingan. Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerida 21 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar kasb-hunar ta’limida o‘qishni boshlasa, kasb-hunar maktabga borishi majburiy hisoblanadi. Ushbu majburiyat kasb-hunar ta’limini bitirgungacha davom etadi. O‘quvchi 21 yoshga to‘lib, kasb-hunar ta’limida o‘qishni boshlagan bo‘lsa, kasb-hunar maktabga borish huquqi o‘zida saqlanib qoladi. Korxona o‘quvchilarni kasb-hunar maktabga borganini qayd qilib borishga majbur. Ularni maktabga borishi uchun barcha ishlardan ozod qiladi.

Kasb-hunar maktabida dars jadvali belgilangan tartibda ishlab chiqiladi. O‘quvchilar maktabga haftada bir kundan ikki kungacha keladi. Ba’zi kasb-hunar maktablarda blok darslari o‘tiladi va blok darslar bir necha hafta davomida o‘tilishi mumkin. Kasb-hunar maktabda o‘qish davomida o‘quvchilar o‘y vazifalarini har kunlik korxona va kasb-hunar maktabga borishdan tashqari vaqtlarda bajarishi lozim.

Kasb-hunar maktabiga bitta kasb bo‘yicha yetarli miqdorda o‘quvchilar kelsa, kasb bo‘yicha sinf tashkil etiladi. Bitta kasb bo‘yicha yetarli miqdorda o‘quvchilar kelmasa, o‘xshash kasblarni birlashtirib sinf tashkil etiladi. Ayrim hollarda bitta sinfda turli xil kasblar bo‘yicha yig‘ilgan o‘quvchilar ta’lim oladi. Kam uchraydigan kasblar bo‘yicha bitta yer yoki ikkita yerlar dajasida bitta sinf tashkil etiladi. Bunday hollarda o‘quvchilar maxsus belgilangan kasb-hunar maktablarga blok darslarini o‘qish uchun keladi. Korxona ko‘p miqdorda o‘quvchilarni o‘qitsa, bunday korxonalar o‘quvchilari uchun alohida sinflar tashkil etiladi [germaniya 157-158].

14.7. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlar:

1. O‘qituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
2. Konstruktiv malakalar deganda nimani tushunasiz?
3. Tashkiliy, gnostik, kommunikativ malakalarning bir-biridan qarqi jihatlari mavjudmi?
4. O‘qituvchining qanday pedagogik qobiliyatlari mavjud?
5. O‘qish va o‘qitish bo‘yicha qobiliyatlar deganda nimni tushunasiz?
6. Tarbiya jarayoniga yo‘naltirilgan pedagogik qobiliyatlar-chi?
7. Pedagogik muloqot qobiliyatlari qanday qobiliyatlar?
8. Kasbiy mahorat nima?
9. Pedagogik mahorat komponentlariga nimlar kiradi?

Mustaqil ish topshiriqlar:

1. Quyidagi “Toifalash jadval”ini to‘ldiring:

1-jadval

Dual tizimining afzalliklari	**Dual tizimining kamchilliklari**

2. Ishlab chiqarish jumlasiga “Klaster” metodini ishlab chiqing.
3. “Tushunchalar tahlili” metodini bajaring:

№	**Tushunchalarga topshiriqlar**	**Tushunchalar**
1.	Obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni (7+6)	Kuzatish metodi
2.	Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini va moddiy texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi (5+7)	Ishlab chiqarish
3.	Alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy birlik (4 ta)	Shaxs
4.	O‘quvchi, talaba va o‘qituvchilar orasida ta’lim-tarbiya	Suhbat

	jarayonida amalga oshiriladigan o‘zaro so‘zlashuv, muloqot (6 ta)	
5.	O‘qituvchi tomonidan o‘zaro yaqin individual xususiyatlariga ko‘ra ajratilgan, noformal yoki tuzilmaviy tarzda tashkil topgan o‘quvchilar guruhiga maqsadga qaratilgan pedagogik ta’sir ko‘rsatish (12+7)	Tabaqalashgan yondashuv
6.	Inson shu jumladan o‘quvchi salomatligi haqidagi ta’limot (10 ta)	Valeologiya

15 BOB. KASB-HUNAR TA’LIMINI BOSHQARISH

15.1. Tayanch tushuncha va iboralar

Boshqarish, rahbar, pedagogik, psixologik

15.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni. O‘quv jarayoni didaktikani, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o‘qitish metodlari va vositalarini o‘zgartirib turish. Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlarini boshqarish oshkoralik demokratiya va o‘z o‘zini boshqarishi asosida amalga oshirilishi to‘g‘risida zaruriy bilimlarni tarkib toptish.

Pedagogik, psixologik boshqaruv to‘g‘risida ma’lumot. Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv uslublari. Boshqaruvga yangicha yondashuv: yakka shaxs va jamoa bilan ishlash usullari. Boshqaruvda o‘qituvchining roli: faol, tashabbuskor va ijodkor munosabati. Ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish o‘quv yurtida, o‘quvchi-talabalar jamoasida sog‘lom psixologik muhit yaratish yo‘llari.

15.3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari.

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo‘lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta’lim tizimida ham boshqarishni to‘g‘ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. *Boshqarish* ma’lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir.

Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta’lim muassasalarini boshqarish bo‘yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta’sir etish» tushunchasining o‘rniga «o‘zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo‘llanilmoqda.

Ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo‘sh, «menejment» va «menejer» atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi? Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta’lim muassasida davlat-jamoat boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor. «Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o‘z mulklari va xodimlarni o‘zlari boshqarganlaridan ko‘ra tanlangan yo‘nalish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so‘ng paydo bo‘ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. *Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir*. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida so‘z yuritilganda, O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning

4.6-bandida so‘z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tilganligini alohida ta’kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ta’lim muassasasi menejmentining quyidagi vazifalari ko‘rsatib berilgan:

1) uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib borilishi;

2) barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi;

3) ta’limning normativ-huqu³iy bazasi rivojlantiriladi;

4) moliya-xo‘jalik faoliyatini olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi;

5) ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi;

6) muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta’lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta’lim menejmetining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

7) ta’lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so‘zi bilan aniqlanadigan ma’naviy o‘lchovga ega;

8) ta’lim menejmenti – bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi);

9) menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi;

10) ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, endilikda ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi –ta’lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota-onalarga ta’lim dasturlarini, turlarini, ta’lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining (1997 yil) 3-moddasida, ya’ni ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarida aks etgan. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun respublikamizda ta’limni boshqarishning davlat organlari tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida, O‘zbekistonda ta’lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan [49].

15.4. Pedagogik, psixologik boshqaruv to‘g‘risida ma’lumot.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 4.6-bandida ta’lim tizimini boshqarish berilgan. YA’ni, uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta’limning normativ-huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo‘jalik faoliyati olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi. Ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta’lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi [4; 36-37].

15.5. Boshqaruv jarayoni bosqichlari.

“Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun 4-bobining 25-29-moddalarida ta’lim tizimini boshqarish berilgan. 25-moddada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari, 26-moddada ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi, 27-moddada mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari, 28-moddada ta’lim muassasasini boshqarish hamda 29-moddada ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yoritilgan.

Ta’lim tizimini boshqarishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari, ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi hamda Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari quyidagi 12-jadvalda o‘z ifodasini topgan:

12-jadval

Tahlim tizimini boshqarish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari (25-modda)	Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi (26-modda)	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari (27-modda)
ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish	ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish	ta’lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydilar
ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish	ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish	ta’lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar, (respublika tasarrufida bo‘lgan muassasalar

		bundan mustasno), ularning ustavlarini ro‘yxatga oladilar
ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish	davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablar bajarilishini ta’minlash	o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar
ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash	o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish	ta’lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo‘lgan davlat talablariga rioya etilishini ta’minlaydilar
ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash	o‘quv va o‘quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish	qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar
boshqa davlatlarning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasining hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish	ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash	
qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash	davlat oliy ta’lim muassasasining rektorini tayinlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish	
davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash	pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish	
davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash	qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar	
davlat grantlari miqdori va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash		
davlat oliy ta’lim muassasasining rektorlarini tayinlash		
ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibini belgilash		

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar		

15.4. Mustaqil ish.

2. “Blits-so‘rov” texnologiyasini “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida bajaring:

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Moddalar nomi	Moddalar
					Ta’lim soxasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari	20-modda
					Bilim olish xuquqi	24-modda
					Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqi	17-modda
					Ta’lim muassasasining xuquqiy maqomi	21-modda
					Davlat ta’lim standartlari	16-modda
					Ta’lim berish tili	21-modda
					Ta’lim tizimi	3-modda
					Ta’lim turlari	4-modda
					Maktabgacha ta’lim	23-modda
					Umumiy o‘rta ta’lim	8-modda
					O‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi	5-modda
					Oliy ta’lim	6-modda
					Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim	10-modda
					Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	7-modda
					Maktabdan tashqari ta’lim	9-modda
					Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy ximoya qilish	11-modda
					Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy ximoya qilish	12-modda
					Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish	13-modda
					Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish	14-modda
					Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muxtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari	15-modda

16 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASH

16.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Tarbiya, kasb-hunar, kollej, ta’lim sifati, nazorat

16.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalash. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilar tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalashga qo‘yiladigan talablar. O‘quvchilarni o‘rganishning pedagogik-psixologik metodlari. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalash metodlari.

Kasb-hunar ta’limida ta’lim – tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilishning maqsad va vazifalari. Kasb-hunar ta’limida o‘quv ta’lim jarayonini nazorat qilish. Kasb-hunar ta’limida tarbiya jarayonini nazorat qilish. Kasb-hunar kollej ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish o‘quv yurtining rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish pedagogik jamoaga rahbarlik qilishning ma’lum bir shakli hisoblanib, unda ta’lim-tarbiya ishini takomillashtirishga oid hujjatlarga asoslaniladi.

16.3. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalash.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko‘lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Maqsadsiz, ma’lum g‘oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo‘lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Ilg‘or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg‘unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo‘naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, *tarbiya maqsadi* tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan *vazifalar tizimidir*. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko‘plab obyektiv sabablar yetakchi rol o‘ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug‘i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo‘nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma’naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o‘zlashtirib olishlari uchun g‘amxo‘rlik qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko‘pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» Qonunini hayotga joriy etish, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliylashtirish, o‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o‘tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o‘z samarasini bermoqda.

Jamiyat ma’naviyati va shaxs kamolotida muhim o‘rin tutuvchi ma’naviy va axlohiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va samarasi yotadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir [Toxtaxodjayeva;].

*Tarbiya jarayoni*_o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo‘naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda *tarbiya jarayoni*_o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda *aniq maqsadga yo‘naltirilgan* samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

*Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon*_bo‘lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo‘nalishi, shakli hamda obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o‘qituvchi faoliyati, balki o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni

mukammal o‘rganishlari, texnika va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. Qo‘shimcha ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko‘rgazma, ko‘rik va suhbatlar o‘quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta’sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo‘lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo‘nalishda, ya’ni, o‘qituvchining o‘quvchiga nisbatan ko‘rsatadigan ta’siri (to‘g‘ri aloqa) hamda o‘quvchining o‘qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g‘oyasiga muvofiq endilikda o‘quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo‘lib qolmasdan, subyektiv sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – *tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi* kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o‘quvchilarda o‘z tushunchalariga muvofiq paydo bo‘lgan dastlabki sifatlar o‘rtasida yoki o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o‘rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko‘pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo‘lmasligidan, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe’l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog‘lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etidi:

1) aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayon;
2) ko‘p qirrali jarayon;
3) uzoq muddatli jarayon;
4) yaxlit tizimlilik jarayon;
5) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
6) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

13-jadvalda tarbiya mazmuni va vazifalari ifodalangan:

13-jadval

Tarbiya mazmuni va vazifalari

Tarbiya turlari	Aqliy tarbiya	Jismoniy tarbiya	Axloqiy tarbiya
Tarbiya mazmuni	shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi	o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.	muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonla-rini o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir
Tarbiya vazifalari	- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o‘zlashtirili-shiga erishish; - bilishga bo‘lgan qizi-qishlarni yuzaga kel-tirish; - aqliy qobiliyat va	- o‘quvchilarning sog‘li-g‘ini mustahkamlash, ularni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirish; - o‘quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobi-liyatlarini oshirish;	

	iqtidorni rivojlan-tirish; - bilishga bo‘lgan faollikni kuchaytirish; - mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyi-tib borish, umumiy o‘rta ta’lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo‘lgan ehti-yojni rivojlantirish. - ilmiy dunyoqarashni shakllantirish	- ularning tabiiy harakatchanligini ri-vojlantirish va mukammalashtirish; - o‘quvchilarni harakat-ning yangi turlariga o‘rgatish; - ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqon-lik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlan-tirish; - o‘quvchilarning gigiye-nik ko‘nikmalarni rivojlantirish; - ularda ma’naviy-axlo-qiy sifatlar (dadillik, qat’iyatlik, intizom-lilik, mas’uliyatlik, jamoa bilan bo‘lish)ni tarbiyalash; - o‘quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojni shakllan-tirish; - o‘quvchilarning sog‘-lom va baquvvat bo‘lishlariga erishish	
Tarbiya turlari	**Mehnat tarbiyasi**	**Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya)**	**Ekologik tarbiya**
Tarbiya mazmuni	shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-- foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi	shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish, to‘g‘ri tushunishni o‘rgantish, ularning estetik didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, shuningdek, go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi	o‘quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o‘quvchilarga tushuntirish, ularda ekologiyaning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o‘rni va ahamiyati borasida tushunchalarni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish.
Tarbiya vazifalari	- mehnatning mohiyatini anglatish orqali	- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat	

	o‘quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish; - inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o‘rgatish; - mehnat qilishga nisbatan rag‘batni, shuningdek, muhabbatni uyg‘otish; - o‘quvchilarning mehnat-ga ijtimoiy burch sifatida yonda shuvlarini yuzaga keltirish; - mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish; - mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish; - mehnatga hayotiy zururat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo‘lish; - mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish; - o‘quvchilarda mehnatse-varlik xislatini tarbiyalash; o‘z mehnati samarasidan g‘ururlanish tuyo‘usini shakllantirish; - muayyan kasb-hunar sirlarini o‘zlashti-rishga erishish va hokazolar	munosabatlari hamda turmush turmush go‘zalliklari va ularni anglash to‘g‘risidagi bilimlarni berish; - shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go‘zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash, - unda mavjud go‘zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish; - go‘zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.	

16.4. Tarbiya tamoyillari va metodlari.

Tarbiya tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim

talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oya va qoidalar yio‘indisiga aytiladi.

Tarbiya tamoyillari o‘qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilo‘or talimotlar g‘oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilo‘or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta’minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat (14-jadval):

- tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi;
- tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi;
- tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo‘shib olib borish;
- tarbiyani mehnat bilan bog‘lash;
- tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyada o‘quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- tarbiyada o‘quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo‘qotish.

14-jadval

Tarbiya tamoyillarining mazmuni

Tarbiya tamoyillari	Tarbiya tamoyillarining mazmuni
Tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi	o‘qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur
Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi	tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va o‘spirinning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim
Tarbiyada izchillik va tizimlilik	trarbiyaga yaxlit tizimli yondoshish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo‘naltirilganlik darajasini belgilab beradi
Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat	o‘quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim

qilish	tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi
Tarbiyada o‘quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish	tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo‘ladi
Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash	tarbiya jarayoni o‘quvchilarning jamoa bo‘lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o‘zaro yordam tuyo‘usini o‘stirish xizmat qilishi lozim

Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarbiyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan talim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.

Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida faoliyat olib boruvchi shaxsni tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g‘oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib ish ko‘rish lozim bo‘ladi.

Tarbiya metodlari bu o‘qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g‘oyaviy va ma’naviy e’tiqodlarini, ma’naviy his-tuyo‘u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari demakdir. Tarbiya metodlari o‘quvchi (tarbiyalanuvchilar) ning o‘z shaxsni takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘langan, birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi.

O‘quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta’sirga turlicha munosabatda bo‘ladilar. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o‘rinli va samarali tanlanganiga hamda mohirona qo‘llanganiga bog‘liq. Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi.

Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularnng mohiyatini puxta o‘zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir (15-jadval).

15-jadval

Tarbiya metodlari

Tarbiya metodlari	
Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar	Hikoya, tushuntirish, o‘qitish, ma’ruza, axloqiy (manaviy) suhbat va bahs
Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari	Pedagogik talab, o‘rgatish, mashq qilish, tarbiyalovchi vazifalar, musobaqa, jamoatchilik fikri, namuna ko‘rsatishi
Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari	Rag‘batlantirish: ma’qullash, ko‘ngilni ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og‘zaki yoki yozma tashakkur bildirish, mukofatlash: jazolash: tanbeh berish.

16.5. Kasb-hunar ta’limida ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilishning maqsad va vazifalari.

Ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash. Baholashni ta’lim tizimi strategiyasi muvofiqligining, samaradorligining va uni ro‘yobga chiqrishning keyingi tahlilini maqsad qilib qo‘ygan jarayon deb belgilash mumkin.

Baholashning muhimligi u yuz berayotgan o‘zgarishlarni monitoring qilish, tizimning hamda uning tarkibiy qismlarining kuchli va zaif tomonlarini imkon qadar ilk bosqichda aniqlash uchun hamda ushbu tizimning samarali (samarasiz) amal qilishini, sabablari bilan birga, tavsiflash uchun xizmat qiladigan vosita ekanligidan kelib chiqadi.

Muvaqqat ko‘rsatkichlar nuqtai nazaridan qaraganda, baholashdan maqsad – u o‘tgan faoliyatnigina emas, balki joriy faoliyatni ham baholash, shuningdek, istiqbol uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ustiga ustak, baholash turli vaqtlarda va utrli mintaqalarda amal qilib turgan xilma-xil tizimlar hamda ularning atrkibiy qismlarini qiyoslash uchun vositadir.

Baholashdan maqsad – ta’lim tizimi va uning tarkibiy qismlari DTS asosida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarning umumiy shkalasini ta’minlash [45; 224].

16.6. Mustaqil ish.

“Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” metodini ishlab chiqing. Quyida keltirilgan metodlar bilan tanishing va ularni manbasiga ko‘ra ustunlarga joylashtiring:

Hikoya

Dalda berish

Pedagogik talab

Og‘zaki yoki yozma tashakkur bildirish

Ma’qullash

Tushuntirish,

O‘qitish,

O‘rgatish

Ko‘ngilni ko‘tarish

Ma’ruza,

Ishonch bildirish

Axloqiy (manaviy) suhbat

Mashq qilish

Tarbiyalovchi vazifalar

Musobaqa

Bahs

Mukofatlash

Jamoatchilik fikri

Namuna ko‘rsatishi

Qayd qilish

Tanbeh berish

Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari	Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar	Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari

17 BOB. KASB TA'LIMINI UMUMIY O'RTA TA'LIM, OLIY TA'LIM VA FAN BILAN INTEGRATSIYALASH

17.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Kasb ta'limi, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, integratsiya, mexanizm, metodik, o'zaro ta'sir

17.2. Mavzuning qisqacha ta'rifi.

Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyalash omillari. Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi. Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyasi. Integratsiyaning u yoki bu darajasini ta'lim jarayonida qo'llash natijasida o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi. Ota-onalarning hamda davlatning o'qish jarayoniga sarflaydigan mablag'ini iqtisod qilish imkoniyati vujudga keladi; mavzulararo integratsiya asosida o'quv-biluv jarayoni natijalarini istiqbollik qilish mexanizmlari yaratiladi; integratsiyalashtirilgan ta'lim jarayonini boshqaradigan o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida shuningdek kasb-hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi ushbu jarayonlar ishtirokchisi hisoblanadi. Bu ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi natijasida, ya'ni o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlari tufayli ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi.

17.3. Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyalash omillari.

Tabaqalashtirilganlikning aksi ta'lim tizimining integrativligi hisoblanadi. Agar tabaqalashtirganlik – ta'lim tizimining bo'linish darajasini tavsiflovchi sifat bo'lsa,

integrativlik aksincha, ta’lim tizimining ayrim elementlari va uning kichik tizimlarining o‘zaro bog‘liqlik darajasini tavsiflaydigan sifatdir.

Integratsiyaga ehtiyoj tabaqalashuv, ya’ni mehnat taqsimoti oqibatida yuzaga keladi. Tizimning integrativligi uning alohida tizimlarida (masalan, boshlang‘ich va o‘rta maktabda yoki alohida sinflarda) ta’lim maqsadlari, mazmuni, shakl va metodlarini muvofiqlashtirish, ta’lim sohalari va o‘quv fanlari o‘rtasida, asosiy va qo‘shimcha ta’lim dasturlari o‘rtasida aloqa o‘rnatish bilan ta’minlanadi.

Ta’lim tizimlarida tabaqalashtirilganlik va integrativlik darajasi munosibligi turlicha bo‘lishi mumkin.

Tabaqalashtirilganlik va integrativlik darajasining pastligiga umumta’lim maktablaridagi an’anaviy tizimni misol sifatida keltirish mumkin: unda jarayon sinflar va o‘quv fanlari, ta’lim va tarbiya funksiyalari bo‘yicha tabaqalashtirilgan, biroq turli ta’lim jarayonlari o‘zaro zaif bog‘langan.

Past darajada integratsiyalashgan tabaqalashtirilgan ta’lim – bu, masalan, o‘quvchilarni boshqa bosqichga o‘tishini ta’minlaydigan (“saralash modeli”) mexanizmga ega bo‘lmagan ta’limning darajali modeli variantidir. Uning asosiy maqsadlariga o‘quvchilar bilan ishlash mazmuni, shakl va uslublarini tabaqalashtirish orqali erishiladi.

Past darajada tabaqalashtirilgan integrativ tizimlar ta’limning o‘quv fanlariaro dasturiga ega bo‘lgan kam o‘quvchili maktablarda uchrashi mumkin: ularda o‘ziga xos ta’lim muhiti, integratsiyalovchi pedagogik jarayonni yuzaga keltirish oson. “Bog‘cha – boshlang‘ich maktab” majmuida ham tizim shunday. Kunning ikkinchi yarmini bolalar “oila” tamoyili bo‘yicha yaratilgan yoshlararo guruhlarda o‘tkazadi, uning tarkibiga tarbiyachilar, kichik va o‘rta yoshdagi bolalar kiradi.

Va nihoyat, ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni yuqori darajada tabaqalashtirilgan va integratsiyalashgan tizimni yaratish mumkin. Uning g‘oyasi jarayonni individullashtirish, biroq bunda yagona ta’lim muhitini va “ta’lim yo‘nalishini” tanlash imkoniyatini saqlab qolishdan iborat. Bunda ta’lim tizimini

dastlabki tabaqalashtirish, masalan, darajali ta'limning "saralash" modelini yaratish, so'ngra integratsiyalovchi maxsus mexanizmlar yordamida tabaqalashtirilgan kichik tizimlarni integratsiyalash; tayyorlov bo'limlar, boshqa sinflar o'quvchilarining tarkibi bo'yicha tabaqalashtirlganlardan guruhlaridan shakllantirilgan sinflar, fanlararo darslar va boshqalar hisobiga erishiladi[45; 278-279].

Bu ta'dlim tizimlarining barchasi ta'lim muassasalarida tashkiliy tuzilmasini yaratishda turli xil yondashuvlarni talab etadi.

Integrativ ta'lim tizimini yaratishning asosiy g'oyasi uning tabaqalashgan elementlarini birlashtirishdan iborat. Ta'lim muassasalari uchun turli darajada integratsiyalashgan jarayonga ega tuzilmani yaratishning asosiy muammosi mehnatni ixtisoslashtirish va ishlarni keng ko'lamli asoslar bo'yicha guruhlashning maqbul usullarini topish, kichik tizimlarni integratsiyalash mexanizmlarini tanlashdan iborat [45; 278-279].

17.4. Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi.

Kasb ta'limini ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyalashda ba'zi tushunchalarga to'xtalish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Dissertatsiya – (yunoncha dissertatio – tadqiqot, mulohaza) – bu ilmiy daraja olish uchun taqdim etiladigan va ilmiy jamoatchilik oldida yakka tartibda himoya qilinadigan ilmiy asar. Dissertatsiya fan va amaliyotga muhim hissa bo'lib qo'shiluvchi, ilmiy masalalarni nazariy umumlashtiruvchi va hal qiluvchi mustaqil ilmiy tadqiqot ishi. Dissertatsiya talabaning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni yakunlovchi va o'qish davrida egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajargan ilmiy–tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi [30; 42].

Annotatsiya – kitob, qo'llanma va shu kabilarning ahamiyati, mazmuni haqida qisqacha ma'lumot [30; 10].

Ilmiy mavzu – tadqiqot uchun tanlangan mavzu.

Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayoni.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati – ta'lim oluvchining mustaqil izlanish, muayyan ilmiy muammoni hal qilishga qaratilgan faoliyati.

Ilmiy taxmin – muammoni yechishning taxminiy yo'lini ilmiy tasdiqlash, usuli.

Ilmiy g'oya – ilmiy tadqiqot ishining va umuman ilmiy bilish jarayonining dastlabki harakatlantiruvchi omil bo'lib, u tadqiqot maqsadi, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shakli [30; 45].

Kasbiy ta'lim – muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim [30; 45].

17.5. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Ilmiy g'oya nima?
2. Kasbiy ta'lim tushunchasiga izoh bering.
3. Ilmiy tadqiqot qanday olib boriladi?
4. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyati qanday?
5. Integratsiya qanday amalga oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi "Toifalash jadval"larini to'ldiring:

1-jadval

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi	**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari**	**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish**

18 BOB. MUTAXASSISLIK FANLARI KASB-HUNAR KOLLEJI O‘QUVCHILARI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

18.1. Tushunchalar va tayanch iboralar.

Mutaxassis, maxsus bilim, shakl, metod, innovatsiya, konsepsiya

18.2. Mavzuning qisqacha ta’rifi.

Kasb-hunar ta’limda o‘quvchilar shaxsini shakllantirish, ularni akliy va jismoniy kamol toptirishning umumiy hamda maxsus bilim berishning eng muhim vositalari. O‘qitish jarayoni davomida o‘quvchilarining bilish kuchlari rivojlantirish.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, o‘rta maktabda o‘qitishni tashkil qilishning shakl va metodlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. O‘qitishning shakl va metodlarini sinflarga ajratish. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, o‘rta maktabda o‘qitishni tashkil qilishning shakl va metodlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. O‘qitishning shakl va metodlarini sinflarga ajratish. Pedagogning innovatsion faoliyati - o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish.

18.3. Kasb-hunar ta’limda o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda maxsus bilim berish muhim vositasi.

Ma’lumki, zamonaviy kasb – hunar kollejlarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda “Milliy model” negizida har tomonlama kamol topgan, ma’naviy va kasbiy yetuk, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shuvchi ta’lim va kasb – hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy – siyosiy, huquqiy, psixologik va boshqa tarzdagi pedagogik – tashkiliy sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldidagi o‘z javobgarliklarini his etadigan bo‘lajak mutaxassislarni tarbiyalashga e’tibor qaratilishi lozim.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o‘quv rejaga kiritilgan 23 ta fan kasb–hunar kollejlarining *“Umumta’lim fanlari”* blokining asosini tashkil etadi. Bulardagi matematika, informatika, fizika, huquqshunoslik, ma’naviyat asoslari, axborot texnologiyalari, estetika, milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, iqtisodiyot asoslari kabi fanlari bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda umumkasbiy fanlari va mutaxassislik fanlari bloklari bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi bo‘lajak mutaxassislarni intellektual salohiyati va kasbiy yetuk qilib tarbiyalashning g‘oyaviy – didaktik asosini tashkil etadi.

Umumta’lim fanlari blokidagi *ijtimoiy fanlar* bo‘lajak mutaxassislarning aynan jamiyat qonuniyatlarini va iqtisodiy aloqalar ta’moyillarini, mehnat bozorining funksional vazifalari va unda shaxsning (lozim topilganda jamoaning, ya’ni firmaning, o‘quv muassasalarining va shu kabilar) o‘z o‘rnini topishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni beradi. Ayniqsa, kasb – hunar kollejining o‘quv rejasidagi “Ma’naviyat asoslari” bir qator ijtimoiy - gumanitor fanlar mazmunini qamrab oladi va aynan mazkur fan mazmni ham ma’nafiy jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan, ham fundamental fanlar asoslari jihatlari bilan manazam ravishja boyitilib, rivojlantirilib borilmog‘i lozim bo‘ladi.

Umuman olganda, umumta’lim fanlar blokidagi ijtimoiy fanlarni bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi qolgan fanlar bloklari bilan integratsiyalashgan holda olib borish o‘rta maxsus, kasb – hunar ta’limidagi bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy va ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashda muhim fundamental asos bo‘ladi.

Mutaxassislik fanlari bloki. Kasb–hunar ta’limidagi bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda maxsus (mutaxassislik) fanlarining o‘ziga xos salmoqli hissasi bor. Ular egallanishi lozim bo‘lgan ixtisoslikni o‘rganishning asosini tashkil etadi va turli ko‘nikma hamda malakalarni o‘z ichiga oladi.

Mutaxassislik fanlari blokining asosiy vazifalaridan biri aniq bir kasb bo‘yicha texnikalar yoki texnologik jarayonlar bo‘yicha o‘quvchilarda kasbiy jihatdan shakllanishi kerak bo‘lgan ko‘nikma va asosini tashkil etuvchi bilimlar majmuasini

hosil qilishdan iborat. Mazkur fan blokining asosiy *maqsadi* tayyorlanadigan mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yadrosini tashkil etib, ular bo‘lajak mutaxassislarning amaliy faoliyatga bemalol kirib borishiga sharoit yaratishdan iboratdir. Bunda ushbu blokka kiruvchi fanlar mazmuni, o‘qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakllari, vositalari, tashkillashtirilishi, o‘tkazilish joyi, jihozlanishi, ajratilgan vaqti bilan boshqa fanlar bloklaridan va umumta’lim fanlaridan farq bo‘ladi, chunki bu blok bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhimdir. Shu sababli bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo ushbu sohaga tegishli moddiy – texnika baza, o‘quv – axborotli ta’minot va kasbiy yetuk o‘qituvchilar bilan ta’minlash kasb – hunar ta’limda ustivor vazifadir.

Mutaxassislik fanlar blokiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda nazariy va amaliyot birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ko‘proq amaliy kasbiy faoliyatga tegishli ko‘nikma va malakalar muhim o‘rin tutganligi sababli nazariy materiallarni bayon qilishda amaldagi trenejyorlardan hamda kichik gabaritli (o‘lchamli) universal qurilmalardan foydalanishga ko‘proq e’tibor bergan ma’qul, chunki bular orqali amaliy faoliyatga kirishib ketish oson kechadi va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda ham anchagina samara beradi. Bu esa nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘quvchilar ongiga singdirishda uyg‘un holdagi variantni kafolatlaydi. Shu sababli ham mutaxassislik fanlaridan o‘quv – uslubiy majmualarni yaratishda ularga oid o‘quv – axborotli – uslubiy majmua va multimediali ta’lim texnologiyalarini joriy etishni e’tiborga olish lozim, chunki hozirgi davr *axborotlashtirilgan jamiyat* asridan iboratdir.

Demak, kasb – hunar ta’limida amaliy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar nazariy bilimlardan kam emas va albatta ulardan ko‘zlangan maqsad bo‘lajak mutaxassislarni kasbif faoliyatga tayyorlashning samarali yo‘llarini yaratish va joriy etishdan iboratdir.

Kasb – hunar kollejlaridagi (mutaxassislar va kasblar) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda asosan quyidagi o‘quv fanlari bloklari

bor: umumta’lim fanlari; umum kasbiy fanlar; mutaxassislik fanlari; o‘quv amaliyoti; ishlab chiqarish amaliyoti; Davlat attestatsiyasi; Kollej ixtiyoridagi soat.

O‘quv fanlari bloki – bu ta’lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan o‘quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qism.

Bu bloklarning har birining bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda o‘z o‘rni va roli hamda vazifasi bor. Bu yerda ularga tegishli quyidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

Umumta’lim fanlari bloki bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ularning yordamida bilishning usullari, axborot to‘plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati jihatidagi tasavvurlarni shakllantirish; tabiiy fanlarning o‘zaro fundamental bo‘lishi; zamonaviy tabiiy fanlarning tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoiyllari; tabiatga putur yetkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari, koinotning tabiy obyekt ekanligi va uning evolyusiyasi haqidagi ilmiy tasavvurlarini shakllantirish; muayyan bilim sohasi uchun zurur bo‘lgan fundamental fanlarni chuqur o‘rganishning nazariy asoslarini o‘rgatishlar amalga oshiriladi.

Umumkasbiy fanlar bloki bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta’lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yondamida umumta’lim fanlar bloki bilan mutaxassislik fanlari blokining nazariy bog‘liqfliklarini ta’minlaydi.

Ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bloki ham bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta’lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yordamida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga bevosita tegishli bo‘lgan maxsus bilimlarni, kasbiy faoliyat bo‘yicha ko‘nikmalarni va usullarni shakllantirishni ta’minlaydi.

O‘quv amaliyoti bloki bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta’lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, uning yordamida nazariy olgan bilimlarni amaliy faoliyatdagi o‘z aksini topishning vositalari, omillari, shakllari va uslublarining

hayotiyligini, shuningdek, “Fan – ta’lim – amaliyoti” uzviyligini akmaliy jihatdan asoslashi ta’minlanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti bloki bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta’lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yordamida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini kasbiy malakaga aylantirishga tayyorlanadi va bo‘lajak mutaxassislarning o‘zini “Mehnat bozori”ga, ya’ni kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan va shuning bilan birga yakuniy davlat attestatsiyasiga qatnashishga ham imkoniyat yaratilishi ta’minlanadi.

Kollej ixtiyoridagi blok bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta’lim dasturining ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talabalar va “Mehnat bozori” konyukturasi tez o‘zgarayotgan sharoitda ta’lim dasturining safarbarligi va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasini blokida umumiy natijalar baholarini aniqlash jarayoni kechadi. Bu bosqich bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasbiga oid fanlarni nechog‘lik puxta o‘zlashtirilganligini va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini baholash imkoniyatini beradi. Bu orqali o‘tkazilgan ta’lim – tarbiya jarayoniga xulosa yasashga ham imkoniyat yaratiladi va ular asosida kasb – hunar kollejlarini bitiruvchisiga tavsiyalar berilishi mumkin bo‘ladi. Yakuniy Davlat attestatsiyasi nazoratlari natijalari to‘g‘risidagi qarorni jamoaviy qabul qilinadi.

Kasb – hunar ta’limida, ularning o‘quv rejasidagi fanlar bloklarining uzviy aloqadorligi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning integratsiyalashgan jarayonlarini amalga oshirishning asosiy negizi hisoblanadi. Bu asosiy negiz bo‘lajak mutaxassislarni ilmiy – nazariy va amaliy tayyorgarligini hamda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning izchilligini ta’minlashni kafolatlaydi. Ayniqsa, mutaxassislarni tayyorlashdagi izchillikni amalga oshirish davomida shakllantiriladigan umumlashtirilgan (joriy xulosalar va tavsiyalar) bo‘lajak mutaxassisga bilim va ko‘nikmalarni o‘zlarining kasbiy faoliyatiga, qolaversa kelgusi ishlab chiqarish, ilmiy va ijtimoiy hayotda aniq (muayyan) holatlarda qo‘llash

imkonini beradi, ya’ni ular o‘z kasbiy faoliyatiga tegishli malakalarni to‘liq egallagan bo‘ladilar.

Qayd etilgan aloqadorlik nafaqat bo‘lajak mutaxassislarga ta’lim berishning maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirishni ta’minlaydi, balki u bo‘lajak mutaxassislarning bilim salohiyatini rivojlantirish va tarbiyalashni innovatsion darajada hal etmoqda. Bu bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy tafakkurini yuksaltirishning murakkab majmualarini shakllantirish va ulardan bo‘lajak mutaxassislarni tayorlashdagi amaliy faoliyatda keng foydalanishga asosiy poydevor bo‘ladi.

Hozirgi kundagi ta’lim tizimi nafaqat shu o‘quv rejadagi fanlarni bilishni, balki uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rta umumta’lim muassasalaridagi (kasb – hunar ta’limigacha bo‘lgan davrdagi ta’limdagi) o‘rganiladigan mavzuga mos ma’lumotlarni oqilona o‘rganib, ulardan “Fan→ ta’lim → amaliyot” tizimida samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shundagina bo‘lajak mutaxassislardagi kasbiy faoliyatlar DTS dagi bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablarga to‘la javob bera oladi va bo‘lajak mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlashga erishiladi hamda ularga ishonch bilan kasbiy faoliyatini amalga oshirishga yo‘llanma bera olamiz [49].

18.4. Pedagogning innovatsion faoliyati.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) –yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter” – bu o‘zaro “act” – harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman talabalarning faolitini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi[18; 15].

Bu uslublarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga:

- talabalarning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiyligini ta’minlanishi;
- talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan xolda kuchaytirilishi;
- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi [18; 15].

Umumlashtirganda esa «Interfaol» -«o‘zaro harakat qilmoq» ma’nosini anglatadi. Ineraction – hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi. O‘zaro harakat turlari:

o‘qituvchi – talaba (o‘quvchi);

talaba (o‘quvchi) – talaba (o‘quvchi);

o‘qituvchi – talabalar (o‘quvchilar);

talabalar o‘quvchilar – talabalar (o‘quvchilar);

talabalar (o‘quvchi) – talabalar (o‘quvchilar);

talabalar (o‘quvchilar) – o‘qituvchi.

Interfaol ta’lim mohiyatiga ko‘ra suhbatning “o‘quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o‘quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirishini anglatadi [33; 5].

O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash [33; 6].

Interfaol ta’limning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- ko‘pfikrlilik;
- suhbat (dialog);
- fikrlashga asoslangan faoliyat;
- g‘oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi);
- muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish;
- refleksiya [33; 7].

Interfaol ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg‘ulot – ma’ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi o‘qituvchining tajribasidan ko‘p.
3. O‘quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko‘ra o‘zaro teng.
4. Har bir o‘quvchi o‘rganilayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg‘ulotda o‘quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqil qilinishi mumkin emas).
6. Bildirilgan g‘oyalar o‘quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma’lumot) bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror toptirish uchun o‘qituvchilar bir qator shartlarga rioya etishlari zarur. Ular:

- ta’lim jarayoniga jamoadagi barcha o‘quvchilarning to‘la qamrab olinishi;
- o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga ruhan tayyorgarliklarini inobatga olish;
- o‘quvchilar sonining ko‘p bo‘masligi;
- o‘quv xonasining jihozlanishi;
- topshiriqni bajarish, materialni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;
- o‘quvchilarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi [33; 8].

Interfaol ta’lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. O‘qitishning interfaol metodlari:

1. *Kognitiv* (cognito – lotincha so‘z, «bilim», «bilish» ma’nosini anglatadi) – eng avvalo, o‘quvchi-talabalarni tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog‘lik bo‘lgan metoddir.

2. *Eksperimental* o‘quvchi-talabalarning «jonli», shaxsiy tajriba orttirishga yo‘naltirilgan.

3. *Rolli o‘yinlar, modellashtirish* hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma’lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko‘rishga yo‘naltirilgan. Bu metod jamoa

tafakkuri, muhokama bilan bog‘lik, ammo muhokama rolli uyin tahlili asosida olib boriladi.

4. *Fasilitatsiya* (inglizcha fasilitate - osonlashtirish) – guruh ishini tashkil etish, ko‘pincha aniq, real, amaliy topshiriqlar bilan bog‘lik, aniq qaror qabul qilish bo‘yicha muhokama, faoliyatning real rejasini ishlab chiqish, real, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirish [21; 92].

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg‘ulotlar o‘ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, uni tashkil qilish va olib borish bo‘yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo‘yicha alohida vazifalar belgilangan. Bunda bir mashg‘ulot jarayonida mashg‘ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu vazifalarni bajarishi ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg‘ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo‘llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko‘ra quyidagicha nomlanadilar [18; 81-83]:

1. *Moderator* – ta’lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.

2. *Trener* – o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis.

3.*Tyutor* – masofadan o‘qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta’minlovchi.

4. *Fasilitator* – darsda ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

5. *Mentor* – ustoz, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

6. *Kouch* – ta’lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish).

7. *Konsultant* – maslahat beruvchi, tushuntiruvchi, qo‘shimcha ma’lumot beruvchi.

8. *Lektor* – nazariy ma’lumotlar bilan tanishtiruvchi.

9. *Ekspert* – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

10. *Innovator* – yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi.

11. *Menejer* – tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etuvchi.

12. *Spekter* – kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

13. *Assistent* – mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

14. *Sekretar* – zarur ma’lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

15. *Texnolog* – pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

16. *Metodist* – ta’lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

18.5. Mustaqil ish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Innovatsiya nima?

2. Interfaol va innovatsion ta’lim tushunchalariga izoh bering.

3. Mutaxassislik fanlarining o‘zaro bog‘iliqligiga misollar keltiring.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Quyidagi “Toifalash jadval”larini to‘ldiring:

1-jadval

№	Asosiy tushunchalar	An’anaviy dars	Interfaol dars
1.	Qo‘llanish darajasi		
2.	Dars maqsadi		
3.	O‘qituvchining vazifalari va ish usullari		
4.	Darsga tayyorgarlikka talablar		
5.	O‘quvchilar tayyorgarligiga talablar		
6.	O‘quvchining vazifalari va ish usullari		
7.	Vaqt taqsimoti		
8.	Darsning modul va algoritmi		
9.	O‘quvchilar ning faollik darajasi		
10.	Kutiladigan natija		

2-jadval

№	Fanlar	Maqsadi	Vazifalari	Metodlari

1.	Aktyorlik mahorati			
2.	Sahna harakati			
3.	Sahna nutqi			
4.				

GLOSSARIY

Davlat va jamiyat – Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi qadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafolatlovchi subyektlari.

Dars – 1) uzluksiz ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’limning asosiy shakli;

2) o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi.

Dars-auksion – mashg‘ulotlar auksion tarzda o‘tkaziladigan dars.

Dars jadvali – o‘quv rejasiga ko‘ra o‘quv haftasining har bir kunida sinflar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ketma-ketligini belgilovchi hujjat.

Dars tahlili – o‘quv mashg‘ulotini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo‘laklarga bo‘lib baholash.

Darslik – muayyan fanga doir bilim asoslarini ma’lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma’naviy-g‘oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan o‘quvchilar va talabalar uchun mo‘ljallangan o‘quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi.

Darslik yoki manba (kitob) bilan ishlash – materialni og‘zaki bayon qilish metodlaridan biri. Bu metod Oliy ta’lim muassasalari amaliyotida muhim o‘rin tutadi.

Darsni jihozlash – o‘tiladigan dars mavzusiga ko‘ra o‘quv-didaktik materiallar, qo‘llanma, multimedia, o‘quv vositalari kabilarni tanlash va tartibga keltirish.

Dastur – o‘quv faoliyatini amalga oshirish rejasi va ushbu faoliyatning mazmunini ifodalovchi meyoriy hujjat.

Dasturlashtirilgan ta’lim – materialni (qismlarga bo‘lib) qadam-baqadam, har bir qismning o‘zlashtirilganligini nazorat qilgan holda o‘rganish texnologiyasi.

Dasturli ma’ruza-maslahat – talabalarni muammo muhokamasiga faol ishtirok etishiga undaydigan ma’ruza turi.

Dasturli ta’lim – tadrijiy ketma-ketlikda joylashgan sertarmoq o‘quv materiali qismlaridan tashkil topgan o‘rgatuvchi dasturlar yordamida o‘qitish texnologiyasi

Dasturli ma’ruza-maslahat – talabalarni muammo muhokamasiga faol ishtirok etishiga undaydigan ma’ruza turi.

Didaktik material – o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv materiallari.

Didaktik material – ko‘rgazmali o‘quv qo‘llanmalarning maxsus turlari.

Didaktika – 1) pedagogikaning ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i; 2) ta’lim nazariyasi.

Joriy nazorat – o‘rganilayotgan mavzularni o‘quvchi talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jaryonida nazorat qilishdan iborat usuli.

Kasbga yo‘naltirish tizimi – turli davlat va ijtimoiy tashkilotlar, muassasa, maktablar, shuningdek, oilaning tashkiliy va boshqariluvchan faoliyati bo‘lib, u jamiyat manfaatlari va ta’lim oluvchilarning shaxsiy qiziqishlariga ko‘ra kasbiy va ijtimoiy o‘z-o‘zini aniqlash jarayonidir.

Kasbiy yo‘nalish – motivatsiya sohasidagi xoxish-mayillarga ko‘ra aniqlanadigan kasbiy faoliyat motivasiyasining integral tavsifnomasi bo‘lib, shaxs qiziqishlari munosabatlari va maqsadga qaratilgan intilishlaridan iborat yo‘nalishdir.

Kasbiy mahorat – ta’lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini

loyihalashtirish, innovasion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta’limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi.

Kasbiy motivatsiya – kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta’sirida shakllanuvchi mayl.

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish va ularni boshqaruv amaliyotida qo‘llashni ta’minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo‘lib, rahbarning o‘z faoliyati davomida fan-texnika yangiligiga, ilg‘or tajribalarga tayanish hamda mazkur tajribalar asosida o‘zining ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borishi bilan bir qatorda jamoa faoliyatini boshqarish tajribasi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta’lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon.

Kasbiy tarbiya – inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni.

Kasbiy ta’lim – muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash – shaxs fikrining tanlangan, o‘zlashtirilgan yoki bajarilgan mehnat faoliyatida ifodalanishi.

Kasb-hunar kolleji (KHK) – 1) muayyan kasb-hunarni egallashga ixtisoslashtirilgan o‘rta maxsus ta’lim muassasasi; 2) o‘quvchilaning kasb-hunar moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb tanlash imkonini beradigan ta’lim muassasasi.

Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi – kasb-hunar kollejlari o‘quv tarbiya jarayoniga ixtisoslashgan pedagogika fanining alohida tarmog‘i.

Kasb-hunarga yo‘naltirish – o‘quvchilarga muayyan kasb-xunar haqida ma’lumot berish orqali ularni shu kasbga qiziqtirish, yo‘llash jarayoni.

Klassifikatsiya – tasniflash

Klassifikator – 1) oliy ta’lim muassalari va kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan mutaxassislik va ta’lim yo‘nalishlari; 2) ta’lim va bilim sohalari, ta’lim darajalarini nazarda tutuvchi kasb, mutaxassislik va ta’lim yo‘nalishlarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

«Klaster» (tarmoqlar) metodi – 1) o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog‘liqligini anglab olishga o‘rgatuvchi metod.

2) klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradigan usuldir.

Kollej (fran. college-birodar, o‘quv joyi) – **1)** turli mamlakatlarda o‘rta ta’lim o‘quv yurti o‘quvchilariga Davlat ta’lim standartlari asosida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradigan o‘quv muassasasi;

2) o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallashga yo‘naltirilgan o‘quv muassasasi; 3) Buyuk Britaniya, AQSH va ayrim boshqa mamlakatlarda oliy, o‘rta, yuqori o‘rta o‘quv yurti; 4) Fransiya, Shveysariya, Belgiya, shuningdek, Afrika va Osiyoning bir qancha mamlakatlaridagi o‘rta va to‘liqsiz o‘rta o‘quv yurti; 5) O‘zbekistonda o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurti.

Kuzatish metodi – 1) obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni; 2) psixologik-pedagogik tadqiqotlardagi asosiy empirik metodlardan biri. Psixologik-pedagogik hodisani maqsadga qaratilgan tizimli o‘rganishda muayyan sharoitlarda ulardagi xususiy o‘zgarishlar va ularning sabablarini aniqlash

maqsadida qo‘llaniladi; 3) voqelikni ta’lim jarayonida idrok qilish imkoniyatini beradigan pedagogik tadqiqot metodi.

Kuzatish texnologiyasi – ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish davomida tadqiqotning amaliy jihatlarini muayyan algoritmik tizimda amalga oshirish texnologiyasi.

Masofaviy o‘qitish –o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikasion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladigan masofadan turib o‘qitish.

Masofaviy o‘qitish texnologiyasi – 1) bu inson va texnik resurslarini, ularning o‘zaro aloqasini, hisobga olgan holda, ta’lim xizmatining yaxlit tizimli jarayonini yaratish, qo‘llash va ommalashtirishdan iborat texnologiya; 2) inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga asoslangan o‘qitishning istiqbolli tizimi; 3) inson va texnik resurslarning o‘zaro aloqasi yordamida amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni.

Ma’ruza – 1)o‘quv materialiga oid biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil, tartibli, og‘zaki bayoni. O‘quv muassasasida o‘quv jarayonining asosiy shakli, ta’lim muassasalarida dars berish usullaridan biri; 2) bir soatlik mashg‘ulot davomida o‘rganilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, unda ilgari surilgan g‘oyalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish va ularni umumlashgan holda bilimlarni muayyan izchillikda bayon etish shakli; 3) ma’ruza, leksiya- o‘quv materiali, biror masala, ilmiy mavzularning izchil, tartibli bayoni.

Ma’ruza ikkovlon – ikki yoki undan ortiq o‘qituvchilar tomonidan oldindan tayyorlangan ssenariy asosida o‘tkaziladigan ma’ruza.

Ma’ruza metodi – o‘quvchining og‘zaki, izchil bayoni.

Ma’ruza-maslahat – munozara ustivorlik qiladigan, amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga mo‘ljallangan ma’ruza turi.

Ma’ruza-matbuot konferensiya – talabalar bilimidagi nuqsonlarni yo‘qotish va ular tayyorgarligi darajasini tashxislashga mo‘ljallangan ma’ruzalar yig‘indisi.

Ma’ruza-suhbat – o‘quv jarayoniga talabalarni faol jalb etishga qaratilgan, ularni o‘qituvchi bilan samarali suhbatga kirishishini ta’minlovchi ma’ruza shakli.

Ma’ruza-tadqiqot – umumiy muammo mavzuning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xususiy biluv topshiriqlari yordamida aniqlanishiga mo‘ljallangan ma’ruza shakli.

Metod (yunoncha metodos – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) – ta’lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, o‘rgatish, o‘rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmui.

Metodik ish – o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish va ularning metodik malakalarini oshirish.

Metodik qo‘llanma – o‘qituvchilarga mo‘ljallangan maxsus kitob.

Metodist – muayyan o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi bo‘yicha mutaxassis.

Metodologik yondashuv – metodologik yondashuv pedagogik jarayon va unda qatnashuvchilar faoliyatini tashkil etishning yetakchi tamoyillardan biri.

Metodologiya – tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan meyoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig‘indisi.

Nazorat – o‘qitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni.

Nazorat qilish dastur vositalari – ma’lumotlar omboridagi o‘qituvchi tomonidan tuzilgan topshiriqlar, savollar, test va shu kabilardan foydalanish dasturlarini joriy etish vositalari.

Pedagogik jarayon – aniq maqsadga yo‘naltirilgan, mazmunan boy, tarkibi jihatidan qat’iy shakllangan o‘quv vaziyatida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hamkorlik.

Pedagogik mahorat – 1) kasbiy ko‘nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) shaxsning kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; 3) san’at darajasidagi mahorat; 4) pedagogik mohirlik, san’at va bilimdonlik.

Pedagogik texnologiya – a) o‘quv faoliyatini oqilona tashkil etish va jihozlash; b) imkon qadar ozroq vaqt sarflab, ta’lim natijasini kafolatlaydigan izchil pedagogik tizim; v) pedagogik muammolarni metodologik darajada hal etishga imkon beruvchi pedagogik hodisa; g) o‘quv jarayonini to‘liq boshqarish imkonini beradigan tizimli tafakkur usulini pedagogik amaliyotga tatbiq etish shakli; d) pedagogik maqsadga erishishni kafolatlaydigan xarakatlarning izchil tizimi.

Rejalashtirish – pedagogik tahlil natijalariga tayangan holda o‘quv tarbiya jarayonini loyihalashtirish yoki muhim hukm chiqarish.

Seminar – 1) oliy yoki o‘rta maxsus maktab talaba (o‘quvchi) larining muayyan nazariy kursni qanchalik o‘zlashtirganliklarini aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘quv amaliyotining muhim turlaridan biri. 2) muayyan ta’lim tadbiri bo‘yicha o‘tkaziladigan maslahat yig‘ilishi. 3) O‘zbekistonda nomzodlik yoki doktorlik ilmiy darajasiga da’vogarning tayyorgarligini sinab ko‘rish uchun ilmiy tadqiqot muassasasi va oliy o‘quv yurtlaridagi olimlarni o‘z ichiga oluvchi ilmiy tuzilma

Semestr (lot. Semestrius – yarim yillik) – o‘rta maxsus kasb –hunar va oliy ta’limda yarim yillik o‘quv muddati.

Tasnif – umumiy belgilariga ko‘ra predmet, hodisa yoki tushunchalarning guruhlar, bo‘limlar va toifalar kesimida taqsimlanishi.

Ta’lim mazmuni – o‘quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi.

Uzluksiz ta’lim – o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi.

Fan – 1) dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. 2) kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi.

O‘zbekiston Respublikasining o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim standartlari tarmoq tizimi – o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi chuqurlashtirilgan umumta’lim predmetlari bo‘yicha va amaliy-nazariy ta’limning asosiy mazmunini ifodalaydigan kasblar, mutaxassisliklar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikning so‘nggi maqsadlarini belgilaydigan hamda ta’limning kafolatlangan darajasi va sifatini aniqlaydigan meyoriy hujjatlar majmui.

O‘quv fani – o‘quv yurtlarida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, i.ch. faoliyati va b. muayyan sohalardan tanlab olingan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi.

O‘quv faoliyati – o‘quvchilarning atrof olamni bilish, bilim va tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv harakati.

O‘quv haftasi – ta’lim oluvchilar o‘quv muasasalarida ta’lim oladigan kunlar yig‘indisi.

O‘quv qo‘llanma – darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va fan asoslarini chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, ayrim bob va bo‘limlarini keng yoritishga yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlar yechimiga mo‘ljallangan pedagogik o‘quv nashri.

O‘quvchi- umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarda ta’lim oluvchi yoshlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 47 b.

2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

3. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. –181 b.

4. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 64 b.

5. Abdullayeva M. Sahna mahorati maktabi. Monografiya – Toshkent: Chashma Print, 2011. – 160 b.

6. Abduqudusov O.A., Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi. – T.: O‘MKHTTKMOUQTI, 2009. – 238 b.

7. Azimova Z.E. O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi: Dis. … ped.fan.nom. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – 185 b.

8. Akbarov N. Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 82 b.

9. Asqarova O‘.M., Xayitboyev M., Nishonov M.S. Pedagogika. – Toshkent: Talqin, 2008. – 288 b.

10. Ziyomuhamedov B. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 112 b.

11. Ziyomuhamedov B. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – Toshkent: Lider Press, 2009. – 104 b.

12. Ibragimov X., Abdullayev SH. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: Fan va texnalogiya, 2008. - 288 b.

13. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro‘ziyeva D.I., Usmonboyeva M.H.

Pedagogika. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 256 b.

14. Isayeva G. Integrallashgan ta’lim jarayonida innovatsiyalarni tatbiq etishning pedagogik-psixologik asosi // Umumiy o‘rta ta’limning nazariy va amaliy muammolari: Resp.ilmiy-amal.konf. –Toshkent, 2009. –B.42-44.

15. Isakulova N., Baxovuddinova Z., Maxmudova S. O‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish uslubiyati. – Toshkent: Fan, 2013. – 48 b.

16. Isakulova N., Baxovuddinova Z., Maxmudova S. “Kasb ta’limi metodikasi” fanini o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalarini qo‘llash uslubiyati. – Toshkent: Sharq, 2013. – 72 b.

17. Ismoilova Z.K. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: Fan, 2001. – 159 b.

18. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

19. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2010. – 141 b.

20. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2006. – 76 b.

21. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008. – 132 b.

22. Yo‘ldoshev M., Nazarzoda N. Rahbarlik psixologiyasida axloq. – Toshkent: Sharq, 2010. – 192 b.

23. Kamoldinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Talqin, 2010. – 128 b.

24. Konstantinov N.A., Medinsiy YE.N., Shabayeva F.M. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1967. – 549 b.

25. Mavlonova R. A., Raxmonqulova N. H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T., 2006. – 99 b.

26. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – T.:

O‘qituvchi, 2001. – 512 b.

27. Mahkamova M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 184 b.

28. Murodova M. Folklor va etnografiY. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 100 b.

29. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 262 b.

30. Pedagogikadan atamalar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2008. – 195 b.

31. Pedagogika: uchebnik dlya studentov pedagogicheskix vuzov i pedagogicheskix kolledjey / Pod red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Pedagogicheskoye obo‘yestvo Rossii, 2002. – 608 s. Toxtaxodjayeva

32. Raximov B.H., Mavlyanov A., Choriyev V., Abdalova S., Temirova N.S. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. – 124 b.

33. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M,, Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 108 b.

34. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 388 b.

35. Salomov A.A. Matematikaning fanlararo aloqadorlik funksiyasi asosida yuqori sinf o‘quvchilarining ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish: Dis. … ped.fan.nom. – Toshkent, 1998. – 182 b.

36. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. 1-qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 25010. – 468 b.

37. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish instituti, 2001. 68 b.

38. Umarova M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 324 b.

39. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta’minlash muammolari: Resp. ilmiy-amaliy konf. material. – Toshkent,

2009. – B.6; – B.179; – B. 193.

40. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari rahbarlari uchun meyoriy hujjatlar to‘plami. 1-qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 291 b.

41. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari rahbarlari uchun meyoriy hujjatlar to‘plami. 2-qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 339 b.

42. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari rahbarlari uchun meyoriy hujjatlar to‘plami. 3-qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 457 b.

43. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston, 2003. T.5. B. 507.

44. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 2008 b.

45. Qurbonov SH., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

46. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 371 b.

47. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. 2-qism. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2005. – 304 b.

48. Hashimov K., Nishonova S., Imomova M., Hasanova R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 488 b.

49. Internet (Jizzax pedagogikasi)